

**ЛУЧШИЕ
ИНТЕЛЕКТУАЛЬНЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**



международном научно-образовательном
электронном журнале

**ЧАСТЬ-34
ТОМ-4
12/2024**



ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

международный научный электронный журнал

ЧАСТЬ-34 ТОМ-4

Декабрь - 2024 год





XALQARO VA MILLIY HUQUQNING O'ZARO ALOQADORLIGI VA HALQARO HUQUQDA HUDUD

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Ikromov Hayrullo Orifjonovich

Abdullahayev Muhammadali Tavakkal o'g'li

ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari

huquq ta'lif yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro huquq normalariga asosalangan tushincha berilgan . Davlatlarni hududiy hamda chegaraviy munosabatlari haqida ma'lumotlariga ega bo'lishingiz mumkin.

Аннотация: В этой статье дается понятие, основанное на нормах международного права . Вы можете получить информацию о территориальных и пограничных отношениях государств.

Annotation: this article gives an overview based on the norms of international law. You can have information about territorial and border relations of states.

Kalit so'zlar: xalqaro huquq , xalqaro tashkilotlar, chegara, obyekti , subyektlari, ijtimoiy munosabatlar Rossiya federatsiyasi.

Ключевые слова: международное право , международные организации, граница, объект , субъекты, общественные отношения Российской Федерации.

Keywords: international law , international organizations, border, object , subjects, social relations of the Russian Federation.

Xalqaro va milliy huquq turli sohalarda amal qiladigan va bir-biriga bo'yusunmaydigan mustaqil huquq tizimlari hisoblanadi. Ayni chog'da, ular o'zaro murakkab munosabatlar bilan bog'langandir. xalqaro huquq subyektlari sifatida - davlatlar, milliy huquq subyektlari sifatida esa, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, ushbu davlatlarning organlari namoyon bo'ladi.

•Tartibga solish obyekti xalqaro huquqda - xalqaro davlatlararo munosabatlar, milliy huquqda esa, mamlakat ichkarisidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

• Xalqaro huquqda normativ manbalarni davlatlar, bitim asosida yaratadi, milliy huquq manbalarini esa, qonunlar hamda davlatning oliy hokimiyat va boshqaruvin qonun osti hujjatlari tashkil etadi.

•milliy huquq normalariga rioya etishni alohida davlat majburlov apparati ta'min etgani holda, xalqaro huquq normalariga amal qilishni ta'minlash alohida



yoki jamoa tarzida majburlovchi qo'llash yo'li bilan ro'yobga chiqariladi, bunda majburlovi qo'llash doirasi va shakllari maxsus prinsiplar hamda xalqaro huquq normalarida belgilangan bo'ladi.

Xalqaro huquqning milliy huquq bilan o'zaro munosabatlaridagi chuqurlashuv ijtimoiy hayotni baynalminallashtirish bilan belgilanadi. Xalqaro huquqda norma ijodkorligi milliy huquq tizimlariga ta'sir ko'rsatishi hamda bu davlatlarning tashqi siyosati va diplomatiyasida hisobga olinishi fakt sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro huquq o'z navbatida milliy qonunchilikka ta'sir ko'rsatadi. Bir qator davlatlarda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar to'g'ridan-to'g'ri milliy qonunchilikning bir qismiga aylanadi. Ko'plab davlatlar qonunlarida shunday qoida belgilanganki, unga ko'ra, qonundagi qoidalari bilan xalqaro shartnoma normalari o'rtasida farq mavjud bo'lgan hollarda xalqaro shartnoma qoidalari ustun kuchga ega sanaladi.

Xalqaro huquq subyektlari, prinsip nuqtai nazaridan olganda, xalqaro majburiyatlarga rioya qilmaganliklarini oqlash uchun o'z qonunchiligidagi havola qilishlari mumkin emas. Davlatlar o'z zimmalariga olgan xalqaro majburiyatlarni sidqidildan bajarishlari zarur. Davlat hududi davlatning moddiy asosini tashkil etadi. Hududni himoya qilish davlatning asosiy vazifalaridan biri. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaga muvofiq, «Rossiya Federatsiyasi o'z hududining yaxlitligi va daxlsizligini ta'minlaydi» to'rtinchı moddasining uchinchi qismida belgilangan . Xalqaro huquq ham davlat hududini qo'riqlashga alohida ahamiyat beradi. Uning kuch ishlatmaslik, hududiy yaxlitlik, chegaralar daxlsizligi kabi asosiy prinsiplarining mazmun-mohiyati deyarli shu masalaga bag'ishlangan. Davlat boshqa har qanday davlatning hududiy daxlsizligiga qarshi kuch bilan tahdid qilishdan yoki uni ishlatishdan o'zini tiyib turishga majbur. Davlat hududi boshqa davlatning unga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatish evaziga egalik qilinadigan obyekt bo'lishi mumkin emas. shuningdek davlat suvereniteti amal qiladigan keng makon, davlatning hududiy yurisdiksiyasi makoni sifatida tushuniladi.

Davlat hududi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- quruqlik hududi (quruqlikning yuza qismi), shu jumladan orollar;
- suv hududi (akovatoriya): ichki suvlar va hududiy dengiz;
- quruqlik va suv hududlari ostidagi yer osti boyliklari;bunda yer qa'ri chuqurligi chegaralanmagan va nazariy jihatdan kurrasining markazigacha taalluqli hisoblanadi;
- havo hududi bo'lib, u sanab o'tilgan makonlar doirasida toki fazogacha



bo‘lgan ustki hududdan iborat; havo hududining balandlik chegarasi o‘rnatilmagan, ayrim fikrlarga qaraganda, u 100 -110 kilometrni tashkil etadi.

Konstitutsiyaga muvofiq, Rossiya Federatsiyasi hududi «uning subyektlari hududlari, ichki suvlar va hududiy dengizlar, ular ustidagi hududiy makondan iboratdir» oltishmish birinchi moddasining birinchi qismida belgilangan. Davlat muayyan huquqlarni boshqa davlatga bergen holda, bir tomonlama asosda yoxud xalqaro shartnoma bo‘yicha o‘zining hududiy yurisdiksiyasini cheklashi mumkin. Bunday hollar bevosita va tranzit havo yo‘llari hamda chet el qurolli kuchlarining boshqa davlat hududida bo‘lib turishi bo‘yicha bitimlarda ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Hududlarning mansubligi va chegaralar o‘tishi bilan bog‘liq xalqaro nizolar faqat tinch yo‘l bilan, kuch ishlatmasdan va xalqaro huquq asosida hal etilmog‘i zarur.

Muzokaralar yo‘li bilan yoki xalqaro organlarda bunday nizolarni hal etish borasida orttirilgan katta tajriba odatda davlatlar o‘zining hududga egalik qilishini asoslash uchun ilgari suradigan bir necha dalil - isbotlarni aniqlash imkonini beradi. Xalqning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi plebissit referendum jarayonida aniqlanishi mumkin. Xalqaro huquqiy amaliyotda muayyan hududiy tuzilmalarning u yoki bu davlatga qo‘shilishi yuzasidan xalqning xohish-irodasini aniqlash maqsadida bir necha marta plebissit huquqidan foydalanilgan. Davlat chegarasining shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o‘tilishi xalqaro avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo qatnovi yo‘llarida yoki qonun hujjatlarida hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilab qo‘yiladigan boshqa joylarda amalga oshiriladi.

Chegara nizolari va mojarolarini hal etish qonun hujjatlarida hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda amalgा oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlар vazirligi davlat chegarasini himoya qilish va qo‘riqlash sohasida muayyan vakolatlarga ega:

- 1) davlat chegarasini himoya qilish va qo‘riqlashni tashqi siyosiy xalqaro huquqiy jihatdan ta’minalashni amalgа oshiradi;
- 2) davlat chegarasini va uning rejimini belgilash bo‘yicha muzokaralar olib boradi, zarur hujjatlar va materiallarni tayyorlaydi;
- 3) O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslarning O‘zbekiston Respublikasiga kirishi va O‘zbekiston Respublikasidan chiqishi huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtiradi;
- 4) davlat chegarasi rejimiga rioya etish masalalarini, chegara nizolarni belgilagan tartibda hal etadi;



qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Davlat chegarasi deganda, uning yuzasi bo‘ylab o‘tkazilgan va davlat hududi sarhadlarini, ya’ni hududiy yurisdiksiya makonini belgilab bergan, yuridik jihatdan asoslangan shartli chiziq tushuniladi. Chegarani doimo davlatning o‘zi o‘rnatadi, ammo faqat shartnoma shaklidagi xalqaro bitim yoki boshqa davlatlarning sukut saqlash ko‘rinishidagi tan olishi bilan tasdiqlangan chegara chizig‘igina qonuniy deb e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasi chegaralarni shartnomaviy negizda mustahkamlash zaruratiga asoslanadi. Bunda O‘zbekiston ichki va xalqaro xavfsizlikni ta’minlash, chet el davlatlari bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik, davlatlarning suvereniteti va hududiy yaxlitligini va davlat chegaralarining daxlsizligini o‘zaro hurmat qilish, chegara muammolarini tinch yo‘l bilan hal etish prinsiplariga amal qilmoqda. O‘zbekistonning chegara to‘g‘risidagi qonunchiligi xalqaro shartnomalarga asoslanadi. O‘zbekiston beshta davlat bilan chegaradosh bo‘lib, mamlakatimiz chegarasining uzunligi qariyb 7 ming kilometrni tashkil etadi. Davlat chegarasini belgilash, o‘zgartirish, himoya qilish va qo‘riqlash sohasidagi munosabatlар «O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risida» gi qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunda O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi mamlakat hududi doirasini belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iboratligi ko‘rsatilgan. Bu tushuncha xalqaro huquq normalariga mos kelib, O‘zbekiston hududining barcha tabiiy ko‘rinishlariga quruqlikda, suvda, yer ostida va havo bo‘shiligidagi makon chegaralarini belgilaydi. Chegara chiziqlari shartnomada yoki davlatning qonun hujjatida bat afsil bayon etiladi va xaritada chiziladi. Bu bosqich *delimitatsiya* deb ataladi. Keyin chegara joyning o‘zida belgilanadi, chegaraga oid belgilar o‘rnatiladi, tegishli hujjatlar tayyorланади. Bu chegaralar *demarkatsiyasi* bosqichidir. Davlatlar amaliyotida, shuningdek, *redemarkatsiya* bosqichi ham ma’lumki, u ilgari o‘rnatilgan chegaralarning tiklanishi yoki yangilanishini anglatadi. Ba’zan redemarkatsiya chegaralarni xalqaro huquqning umumiyligi normalariga muvofiqlashtirgan holda, hududlarni o‘zaro almashish, ularni boshqa tomonga topshirish bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki xalqaro huquqda biz davlarning munosabatlari birga hududiy chegarasi haqida ma’lumotlarga ega bo’ldik. Shu o‘rinda O‘zbekiston inson huquqlari sohasidagi xalqaro majburiyatlariga bundan keyin ham sodiq qoladi. Shu bilan birga, Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, «biz inson huquqlari borasida hali ulkan yo‘lning boshida turganimizni yaxshi tushunamiz va xalqaro hamkorlarimizning qo’llab quvvatlashiga umid qilamiz» deb aytib o’tgan.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatlari:

1. Jinoyat huquqi . Umumiy qism . Oliy o'quv yurtlari uchun darslik «Yangi asr avlodni», 2010 , 277- bet.
2. [https://lex.uz/acts- 111453](https://lex.uz/acts-111453) Jinoyat kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodesiga sharhalar. Umumiy qism /M Rustambayev .Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2021.784 b.
4. O.A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova “ Inson huquqlari” o'quv qo'llanmasi
5. Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari:Darslik, I-qism. – T., 2010.
6. Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).
7. Икромов, Х. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ҲАРБИЙВАТАНПАРВАРЛИК ҲАРАКАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЖТИМОИЙФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(9), 102-107.
8. Egamberdiyev, A. YOSHLAR FAOLIYATINING FALSAFIY JONLARI. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych , 91 (1), 2022-2026.
9. Abdumalikovich, E. A. (2018). Uyushmagan yoshlар bilan ishlashning innovatsion usullari. Evropa fanlari sharhi , (9-10-1), 259-260.
10. Yusupova, S. va Norinova, D. (2023). YOSH AVLOD TARBIYASIDA “TA'LIM” FANINI O'QITISH VA O'QITISH TUSHUNCHASINING O'RNI. Fan va innovatsiyalar , 2 (B6), 98-101.
11. Nizomtdinovna, Y. S. (2022). Farg'ona vodisidagi tarixiy demografik jarayonlar. Miasto Przyszlosci , 24 , 546-548.
12. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA'LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O'RNI. Talqin va katta , 1 (24).
13. Poziljonov, J. (2024). TURKISTON JADIDLARI IJTIMOIYFALSAFIY TA'LIMOTINING KELIB CHIQISH OMILLARI. Sharh va tadqiqotlar , 2 (1 (23)).
14. Qosimbek o'g'li, PJ (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O'ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO 'NALTIRILGAN TARG 'IBOT MAQSAD MUDDAOSI. OBRAZOVANIE NAUCA I INNOVATSIONNYE IDEI V MIRE , 20 (7), 39-42.
15. Poziljonov, J. (2023). Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lism-tarbiyani isloh qilishdagi o'rni. TALQIN VA TADQIQOTLAR ILMIY-USLUBIY JURNALI .
16. Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va katta , 1 (1).



JINOYATDA ISHTIROKCHILIK TUSHUNCHASI TURLARI VA SHAKLLARI

*Otaboyev Niyyatbek O'ktambek o'g'li
ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari
huquq ta'lif yo'nalishi 3 – bosqich talabasi
Ijtimoiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi
Xayrulla Ikromov Orifjonovich*

Annotatsiya: Ushbu keltirilgan maqolada asosan ishtirokchilik nima ekanligi, uning tarkibini tashkil etuvchi bo'g'inlari haqida ham batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari har bir harakat qay tartibda bo'lishi ham yoritilgan. Ishtirokchilikning qanday shakllarga bo'linishi, vazifalar hamda ularga nisbatan qonuniy ravishda qo'llaniladigan javobgarlik asoslari ham keltirib o'tilgan hisoblanadi.

Аннотация: В этой статье в основном представлена подробная информация о том, что такое участие и его компоненты. Кроме того, также поясняется порядок каждого действия. Какие формы участия подразделяются, также упоминаются задачи и юридически применимые к ним основания ответственности.

Annotation: This article mainly provides detailed information about what participation is and its components. In addition, the order of each action is also explained. What forms of participation are divided, tasks and the bases of responsibility legally applied to them are also mentioned.

Kalit so'zlar: kodeks, ishtirokchilik, bajaruvchi ,dalolatchi, tashkilotchi, yordamchi uyushgan guruh, jinoiy uyushma, javobgarlik.

Ключевые слова: кодекс, соучастие, исполнитель ,исполнитель, организатор, вспомогательная организованная группа, преступное объединение, ответственность.

Keywords: code, participation ,acting, witness, organizer, assistant organized group, criminal association, responsibility.

Kirish: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 14-moddasida ta'kidlab o'tilganidek , Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan , aybli ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Ushbu Kodeks



bilan qo'riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli qilmish deb topiladi.

Real borliqda jinoyatlar ko'pincha bir nechta shaxs tomonidan sodir etilib, ular jinoyat sodir etish yoxud jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun o'z kuchlarini birlashtiradilar. Jinoyat kodeksining Umumiy qismida jinoiy faoliyatning alohida shakli sifatida ishtirokchilikning yuridik tabiatini nazarda tutilgan bo'lib, ishtirokchilikda jinoyat sodir etgan shaxslarning javobgarlik doirasi va asoslari aniqlab berilgan. Jinoyat kodeksining 27-moddasiga binoan, ikki yoki undan ortiq shaxsning qasddan jinoyat sodir etishda bирgalashib qatnashishi ishtirokchilik deb topiladi. Ushbu tushunchadan kelib chiqqan holda, ishtirokchilik jinoiy faoliyatning alohida shakli bo'lib, u quyidagi majburiy subyektiv va obyektiv belgilarni majmuiga ega deyish mumkin. Bir jinoyatni sodir etish yoki jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishdaikki yoki undan ortiq shaxsning qatnashishi ishtirokchilikning miqdoriy ko'rsatkichini tashkil etadi. Biroq, mazkur dalilning o'zi ishtirokchilikni tavsiflash uchun yetarli emas. Zero, bir nechta shaxs bir makon va zamonda tasodifiy birlashib qolishi, biroq har biri boshqalaridan mustaqil ravishda, ya'ni alohida jinoyat sodir etishi mumkin. Shuning uchun ishtirokchilik miqdoriy belgisidan tashqari, obyektiv tomonidan bir nechta shaxs bирgalikda harakat qilayotganliklarini anglab uyushganliklarini taqozo etadi. Jinoyatda bирgalikda ishtirok etish jinoyat va jinoiy faoliyatning bирgalashib, umumiy maqsadlarni ko'zlagan holda amalga oshirilishini anglatadi va quyidagilarni bildiradi: har bir ishtirokchining qilmishi boshqa ishtirokchilar qilmishini amalga oshirish uchun zaruriy shart hisoblanib, ular bir-birini to'ldiradi; barcha ishtirokchilarning qilmishlari bajaruvchi sodir etayotgan jinoyat bilan sababiy bog'lanishga ega bo'ladi; yuzaga kelgan jinoiy oqibat barcha ishtirokchilar uchun umumiy va yagona hisoblanadi

Ishtirokchilikning obyektiv va subyektiv tomonlari farqlanadi:

Obyektiv tomonidan ishtirokchilikka quyidagi belgilarni xos: 1) ikki va undan ortiq shaxslarning mavjudligi; 2) jinoiy qilmishda bирgalikda ishtirok etish.

Subyektiv tomonidan ishtirokchilik: 1) qasddan sodir etilgan jinoyatning mavjudligi; 2) o'zaro xabardorlik bilan ta'riflanadi

Ishtirokchilik ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatlarda bo'lmaydi. Shuningdek, shaxs jinoyat sodir etishda qasddan boshqa shaxslarni yo'ldan urish orqali ulardan foydalangan yoki Jinoyat kodeksiga binoan, jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan shaxslardan foydalaniб qisman sodir etilgan jinoyatlar ham bundan istisno



Jinoyat kodeksining 28-moddasida “Jinoyatni bajaruvchi bilan bir qatorda tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham jinoyat ishtirokchilari deb topiladi.

Jinoyatni bevosita to‘la yoki qisman sodir etgan yoxud ushbu Kodeksga muvofiq javobgarlikka tortilishi mumkin bo‘lmagan shaxslardan yoki boshqa vositalardan foydalanib, jinoyat sodir etgan shaxs bajaruvchi deb topiladi.

Jinoyatga tayyorgarlik ko‘rilishiga yoki jinoyat sodir etilishiga rahbarlik qilgan shaxs tashkilotchi deb topiladi.

Jinoyat sodir etilishiga qiziqtiruvchi shaxs dalolatchi deb topiladi.¹

Jinoyat sodir etishga tayyorgarlik ko‘rishda ishtirok etish ishtirokchilarni topish, jinoiy tajovuz obyektini aniqlash, jinoyat sodir etish rejasini ishlab chiqish va shunga o‘xshash bevosita jinoyat sodir etishning tayyorlov bosqichini o‘z ichiga olgan boshqa xatti-harakatlarda o‘z aksini topadi. Jinoyat sodir etishda rahbarlik qilish bajaruvchilar va hamkor bajaruvchilar kuchini bevosita jinoiy qilmishni amalga oshirishga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyatni bildiradi Jinoiy faoliyatni tashkil etish shaxs tomonidan bir nechta shaxsni uyushgan jinoiy guruhga, guruhlarni esa jinoiy uyushmaga birlashtirishda o‘z aksini topadi. Jinoiy uyushma tashkil etishning ijtimoiy xavflilik darajasi o‘ta yuqori bo‘lganligi sababli, qonun chiqaruvchi mazkur jinoyatuchun Jinoyat kodeksi Maxsus qismining alohida moddasida javobgarlikni nazarda tutadi.

Jinoyat Kodeksining 29-moddasida ishtirokchilikning shakllari haqida ma’lumot berilgan bo‘lib unda keltirilishicha: Jinoyatda ishtirokchilik: oddiy ishtirokchilik, murakkab ishtirokchilik, uyushgan guruh, jinoiy uyushma shaklida bo’ladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsining oldindan til biriktrmay jinoyat sodir etishda qatnashishi oddiy ishtirokchilik deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsining oldindan til biriktrmay jinoyat sodir etishda ishtirok qilishi murakkab ishtirokchilik deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq shaxsning bиргаликда jinoiy faoliyat olib boorish uchun oldindan bir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi.

Ikki yoki undan ortiq uyushgan guruhning jinoiy faoliyat bilan shug’ullanish uchun oldindan birlashishi jinoiy uyushma deb topiladi.²

¹ O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi

² O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.



Ishtirokchilikning dastlabki ikkita shakli (oddiy va murakkab ishtirokchilik) bir necha shaxsning turli darajadagi hamkorligidan iborat sa'y-harakatini muayyan jinoyatlarni sodir etish uchun birlashtirishni nazarda tutadi. Ishtirokchilikning mazkur ikki shakli «eng oddiy» jinoiy tashkilotga xosdir. Zero, ularning turg'unlik darjasи alohida jinoyatnisodir etish uchun ajratilgan vaqt doirasi bilan chegaralanadi. Shu bilan birga, bir necha shaxs sa'y-harakatining muayyan jinoyat sodir etish uchun, oz muddat bo'lsa-da, birlashtirilishi ijtimoiy munosabatlar uchun bitta shaxs tomonidan shunga o'xhash jinoyat sodir etganlikka qaragandadoimo xavfliroq hisoblanadi. Aynan shu holat bitta shaxs va bir necha shaxs birgalikda jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlik tayinlashgaalohida-alohida yondashishni taqozo etadi. Uyushgan guruh va jinoiy uyushma ishtirokchilik shakllari sifatida, jinoyat huquqi nuqtai nazaridan, ikki omil birligidan iborat alohida ijtimoiy hodisani tashkil etadi: birinchisi, bir nechta shaxs maqsadining birlashishi; ikkinchisi, bir qancha jinoyat sodir etish.

ikki yoki undan ortiq shaxsning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun birlashishi bir qancha jinoyat sodir etishda ishtirokchilikni tashkil etadi.

ishtirokchilar orasidagi subyektiv bog'liqlik kam bo'lib, boshqashaxsning jinoyat sodir etishda qatnashishi haqida bilishi bilan chegaralanadi. Subyektiv bog'liqlik jinoiy maqsadni amalga oshirish vaqtida yoxud jinoyatni amalga oshirish jarayonida, ya'ni ishtirokchilarning xatti-harakatlari obyektiv ravishda birgalikda amalga oshirayotgan jinoiy qilmishining tarkibiy qismi bo'lган vaqtdan boshlab yuzaga keladi. Ishtirokchilikning oddiy shakli jinoyatni ijro etishdagi hamkorlikda namoyon bo'ladi. Bunda vazifalar qat'iy belgilanmagan bo'lib, har bir ishtirokchi muayyan tarkibli jinoyatning obyektiv tomonini to'liq yoki qisman amalga oshiradi. Shu bilan birga, oddiy ishtirokchilikda ham vazifalarni taqsimlash imkoniyati mavjud. Biroq, bu kabi taqsimlash bevosita jinoyat sodir etish jarayonida yuz beradi. Mazkur shakldagi ishtirokchilikning jinoyat huquqiga oid ahamiyati ko'p miqdordagi ijtimoiy xavflilik, muayyan jinoyat sodir etishda bir nechta shaxsning birlashishi hamda shu turdagи jinoyatning bir shaxs tomonidan sodir etilishiga qaraganda ortishi bilan bog'liq. Shu bois qonunchiqaruvchi mazkur shart-sharoitni hisobga olgan holda jinoyatning «bir guruh shaxslar» tomonidan sodir etilishi jinoiy javobgarlikni og'irlash-tiruvchi holat ekanligini nazarda tutadi va bu alohida turdagи jinoyatlar uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgi sifatida baholanadi

Tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar ham ushbu Kodeks Maxsus qismining bajaruvchini javobgarlikka tortish belgilangan moddasi bo'yicha javobgarlikka tortiladilar.



Oldindan til biriktirgan guruh, jinoiy guruh va jinoiy uyushmaning tashkilotchilari hamda a'zolari tayyorgarlik ko'riliishi yoki sodir etilishida o'zlar qatnashgan barcha jinoyatlar uchun javobgarlikka tortiladilar.

Uyushgan guruh yoki jinoiy uyushma tashkil etgan yoki ularga rahbarlik qilgan shaxslar shu guruh yoki uyushma sodir etgan barcha jinoyatlar uchun, basharti, bu jinoyatlar ularning jinoiy niyati bilan qamrab olingan bo'lsa, javobgarlikka tortiladilar.³

Boshqa ishtirokchilarning jinoiy niyati bilan qamrab olinmagan qilmish uchun uni sodir etgan shaxs javobgar bo'ladi.⁴

Tashkilotchi, dalolatchi yoki yordamchi jinoyatdan ixtiyoriy ravishda qaytib, jinoyatning oldini olish uchun o'ziga bog'liq bo'lgan barcha choralarни o'z vaqtida ko'rghanligi, jinoyatda ishtirokchilik uchun javobgarlikni istisno qiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, jinoyatda ishtirokchilik bu birgalikda harakat qilishni bildiradi. Ishtirokchilik tarkibiga kiruvchi bajaruvchi, tashkilotchi, dalolatchi va yordamchilar hammasi o'z o'rnida turli xil vazifasi bilan ajralib turadi.

Jinoyatda ishtirokchik - bu jinoyat sodir etishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etadigan shaxslarni anglatadi. Jinoyat ishtirokchilari jinoyatni amalga oshirish jarayonida turli rollarda qatnashadilar va har biri o'zining ishtirok qilish darajasiga ko'ra alohida turlarga ajratiladi. Jinoyat ishtirokchilari turli rollarda qatnashganligi uchun ularning javobgarligi ham farqlanadi. Ularning javobgarligi darajasi sodir etilgan jinoyatning o'ziga qarab va ishtirokchining roliga qarab belgilanishi mumkin.

Jinoyatda ishtirokchilikning huquqiy tahlilida ishtirokchilarning javobgarligi belgilovchi me'yorlar quyidagilar:

³ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 5 майдаги 13-сонли «Бирнечажиноятсодирэтилгандақилмишниквалификацияқилишгадоирмасалалартўғрисида» гиқарори 12-бандининг учинчихатбоииси.



Jinoyatni o‘z vaqtida aniqlash va tergov qilish: Har bir ishtirokchining ishtiroki tergov jarayonida aniqlanishi zarur. Jinoyatning barcha ishtirokchilari, shu jumladan yordamchi, maslahat beruvchi va boshqalar, tergovda to‘liq tasvirlanishi kerak.

Ishtirokchilarни ажратиш: Jinoyatda ishtirokchilarning har biri o‘zining o‘rni va darajasiga qarab javobgarlikka tortilishi lozim. Ularning har biri jinoyatni sodir etishda o‘ziga xos rol o‘ynaydi va jazo miqdori shu asosda belgilanadi.

Jinoyatda ishtirokchilikni aniqlashda huquqiy mexanizmlar: Tergov organlari, sudlar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari jinoyatga ishtirok etgan barcha shaxslarni aniqlashda yuridik normalarga asoslanishi kerak. Ishtirokchilikning har bir turi bo‘yicha alohida huquqiy tahlil olib borilishi zarur.

Jinoyatga ishtirok etishda uning huquqiy asosliligi

Jinoyatda ishtirok qilish, faqat jinoyatni amalga oshirishda qatnashgan shaxslarning huquqiy mavqeini belgilash emas, balki jinoyatga ishtirok etishning jamiyatga va ijtimoiy tartibga ta’sirini ham o‘rganish zarur. Har bir ishtirokchi uchun jazoni qo‘llashda uning jamiyatdagi roli, jinoyatga ta’siri va bu faoliyatning jiddiyligi hisobga olinadi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.
3. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
4. <https://lex.uz>
5. <https://wipolex-res.wipo.int/edocs/lexdocs/laws/uz/uz/uz071uz.html>
6. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2008 йил 5 майдаги 13-сонли «Бирнечажиноятсодирэтилгандақилмишниквалификацияқилишгадоирмас алалартўғрисида» гиқарори 12-бандининг учинчихатбошиси.



JINOYAT QONUNI VA AMAL QILISH DOIRASI

Ochilov Ismoil Hayitbek o'g'li

*ADPIMilliy g'oya va ma'naviyat asoslari
huquq ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi.
Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Ikromov Hayrullo Orifjonovich*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinoyat qonuni haqida va jinoyat kodeksi haqida ham ma'lumotlar keltirilgan . Uni amal qilish doirasi ham keng yoritilib berilgan. Bundan tashqari tarmoqlarga bo'linganligi haqida ham ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация об уголовном законе и Уголовном кодексе. Также широко освещена сфера его реализации. Кроме того, также дана информация о разделении на отрасли.

Annotation: This article provides information about the criminal law and the criminal code. The scope of its implementation is also widely covered. In addition, information about the division into sectors is also given.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, kodeks, jinoyat, huquq, modernizatsiya, hokimiyat, ayb, imperative huquq, xalqaro huquq

Ключевые слова: Конституция, кодекс, преступление, право, модернизация, власть, вина, императивное право, международное право

Keywords: Constitution, code, crime, law, modernization, authority, guilt, imperative law, international law

KIRISH

Jinoyat qonuni haqida o'rghanishdan oldin jinoyat nima ekanligini bilib olishimiz kerak. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 14-moddasida keltirilishicha , ushbu kodeks bilan taqiqlangan , aybli ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy munosabatlarning butun tizimini modernizatsiya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, bo'yicha ko'pgina islohotlar, chora-tadbirlar olib borilmoqda.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi respublikamizning jinoyat tog'risidagi qonun hujjatlarini tashkil etuvchi barcha jinoiy-huquqiy normalarning asosi va yagona shaklidir.Tarkibida jinoiy-huquqiy normalar bo'lgan yangi



qonunchilik hujjatlari qabul qilingan taqdirda, ular majburiy tartibda Jinoyat Kodeksiga kiritilishi kerak va mustaqil ravishda qo'llanilishi mumkin emas.

Jinoyat huquqi - huquq tizimining bir tarmog'i; oliy davlat hokimiyati organi tomonidan o'rnatilgan, qonun bilan qo'riqlanadigan, ijtimoiy munosabatlar uchun xavfli bo'lgan tajovuzlarning jinoyat ekanligi va jazoga loyiqligini, jazo choralar tayinlash shartlari va tartibini hamda jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisi. O'zbekiston Respublikasida Jinoyat huquqining asosiy manbai O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va jinoyat qonunidir. Jinoyat huquq jinoyat qonunining amalda tatbiq qilinishidan kelib chiqadigan munosabatlarni o'rganadi, jinoiy javobgarlik asoslari va tamoyillarini belgilaydi. Jinoyat huquqining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olishdan, fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat. Jinoyat huquqi davr talabidan kelib chiqqan holda qonuniylik, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi qoidalariga asoslanadi. Jinoyat huquqi 2 qismdan iborat. Bular: Umumiy qism va Maxsus qism. Umumiy qism Jinoyat huquqining vazifalari va tamoyillarini amalda qo'llanish doirasi, javobgarlikning asoslari, jazo turlari va ularni tayinlash, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlar javobgarligi va tibbiy yo'sindagi majburlov choralar to'g'risidagi masalalarini o'z ichiga oladi. Umumiy qismda 7 bo'lim 17 bob 96 ta modda bor. Maxsus qism esa alohida jinoyatlar va shu jinoyatlar uchun tayinlanadigan jazolarni o'z ichiga oladi. Maxsus qismda 8 bo'lim 26 bob va 206 ta modda bor.

Jinoyat huquqi fani jinoyat qonunchiligining ijtimoiy vazifalari va ijtimoiy samaradorligini, rivojlanish tamoyillari va muammolarini ham o'rganadi. Jinoyat kodeksining huquqiy negizi sifatida xalqaro huquqning umume'tirof etgan normalari ham o'rin olgan, bu Jinoyat kodeksining 1- moddasida mustahkamlangan. Xalqaro huquqning imperativ-buyruq tusida bo'lgan hamda barcha xalqaro huquq subyektlari, jumladan davlatlar tomonidan e'tirof etilgan qoidalari tan olinishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida xal-qaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalarining ustuvorligi tan olinadi. Ayni paytda, O'zbekistonda qo'llanishi uchun umume'tirof etilmagan xalqaro shartnomalarning normalari qonunchiligidizga, jumladan Kodeksga tegishli o'zgartish va



qo'shimchalar shaklida kiritilishi lozim. Bu holat shundan kelib chiqadiki, birinchidan, ko'pgina xalqaro shartnomalar (konvensiyalar) faqat ishtirokchi davlatlarning u yoki bujinoyatlar bilan kurashish niyatining bildiradi; ikkinchidan, agar xalqaro shartnoma u yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishning belgilarini aniqlagan holda ham, odatda, u tegishli jazoni belgilab bermaydi; uchinchidan, shartnoma jazoni ko'rsatgan holda uning qo'llanish chegaralari va shartlarini ko'rsatmaydi. Natijada, hatto, O'zbekiston Respublikasida ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalarning qoidalari amaldagi jinoyat qonunchiligiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalarni kiritmagan holda amalda qo'llanmaydi.

O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunlarini yaxlit tizim sifatida tasavvur etish mumkin, chunki unda aks etgan normalar bir-biri bilan o'zaro aloqador bo'lgan huquqiy institatlardan iborat. Chunonchi, jinoyat qonunlarining to'liq kodifikasiya qilinishi va yagona manba sifatida Jinoyat kodeksiga to'planishi ushbu fikrning yorqin dalilidir. Jinoyat qonunining ma'lum qoidalari asosida tizimlanishi nafaqat uning tarkibiy qismlarini to'g'ri aniqlash, bevosita huquqni qo'llash jarayonida ularning o'zaro bog'liqligini belgilash, balki qonun ijodkorligi faoliyatida xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik imkoniyatini beradi. Qonun chiqaruvchi zarur hollarda yangi jinoyat qonunlarini qabul qilish orqali Jinoyat kodeksining amaldagi moddalariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritadi yoki Jinoyat kodeksiga kiritilishi lozim bo'lgan moddalarni ishlab chiqadi. Darhaqiqat, ta'kidlash joizki, bunda jinoyat qonunlarining tizimini hisobga olish nafaqat qonunchilik texnikasi va qonunning tarkibiy tuzilishiga rioya qilish nuqtai nazaridan, balki o'zaro muvofiqlik, uyg'unlik va mantiq qoidalari amal qilish nuqtai nazaridan ham muhimdir. Jinoyat kodeksi maxsus tuzilishga ega bo'lib, u qonun chiqaruv-chining irodasi aks etgan texnik qoidalarga bo'ysunuvchi shakldan iborat. Tarkibi jihatidan Jinoyat kodeksini ikki: Umumiylar va Maxsus qismdan iborat. Qonunning ushbu qismlari o'zaro aloqador birlikni tashkil qilishiga qaramay, ulardagi moddalar ma'no-mazmuniga ko'ra bir-biridanjiddiy farq qiladi. Binobarin, kodeksning Umumiylar qismida umumiylar, kodeksning prinsip va vazifalari, jinoyat qonunining amal qilish doirasi, javobgarlik va jazo asoslari, ularni tayinlashning qonun-qoidalari, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, voyaga yetmaganlarning javobgarligi hamda ularga jazo tayinlash xususiyatlari, shuningdek, jinoyat qonunlariga taalluqli boshqa qoidalari o'z aksini topgan. Maxsus qismda esa jinoyat deb topilgan aniq ijtimoiy xavfli qilmishlar (harakat yoki harakatsizlik) hamda ularni sodir etishda aybdor bo'lgan shaxslarga nisbatan tayinlanishi mumkin bo'lgan aniq jazo choralar belgilangan. Umumiylar va Maxsus qismlar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Chunonchi, Maxsus qismdagi aniq



jinoyatlar turlari bo‘limganida, Umumiy qismning moddalari o‘z mazmun va ahamiyatini yo‘qotgan bo‘lar edi, shuningdek, Maxsus qismning moddalarini ham Umumiy qismning asosiy qoidalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Jinoyat kodeksining Umumiy qismi yetta bo‘lim va o‘n yetti bobdan iborat, bo‘limlari alohida boblarga bo‘lingan bo‘lib, ularda huquqning ushbu sohasi institutlarini tartibga soluvchi normalar mujassamlashgan: Jinoyat kodeksining Maxsus qismi ham alohida bo‘lim va boblarga bo‘lingan bo‘lib, u ma’lum bir turga mansublik alomati bo‘yicha tartibga solingan. Chunonchi, boblarda taqiqlovchi xususiyatga ega normalar mujassamlashgan bo‘lib, ular jinoyat qonuni muhofaza qiladigan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlarni nazarda tutadi. Ushbu ijtimoiy munosabatlar, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, turdosh bo‘lganligi sababli, davlat yoki jamiyat hayotining aniq bir sohasidagina namoyon bo‘ladi. Har bir bobda bir turga mansub munosabatlarning tarkibiy qismidan iborat muayyan ijtimoiy munosabatga zarar yetkazadigan hamma jinoyatlarning to‘liq ro‘yxati keltirilgan. Hammasi bo‘lib Maxsus qism yetta bo‘lim, yigirma to‘rtta bobdan iborat

Jinonyat kodeksi «Atamalarning huquqiy ma’nosи» deb atalgan sakkizinchи bo‘lim bilan yakunlanib, unda jinoyat qonunida uchraydigan ba’zi atamalarning huquqiy ma’nosiga izoh beriladi. Umumiy va Maxsus qismlarda jinoyat qonuniga oid barcha normalar alohida qoidalar – moddalarga ajratilgan bo‘lib, ular maxsus ketma- ketlikka ega. Kodeksning sakkizinchи bo‘limi bundan mustasno bo‘lib, unda Kodeksda uchraydigan ba’zi huquqiy tushuncha va atamalargagina izoh beriladi. Biroq, ular modda shaklida berilmagan bo‘lsa-da, mohiyatan alohida modda hisoblanadi. Bunday texnik uslub huquq- tartibot organlari va bunday vakolati bo‘limgan boshqa organlarning qonunni tor yoki keng doirada talqin qilishiga yo‘l qo‘ymaslik shartidan kelib chiqqan. Binobarin, ushbu bo‘limdagi atamalar va tushunchalarga berilgan sharhlar rasmiy va umummajburiy hisoblanadi. Umumiy va Maxsus qismning ko‘pchilik moddalari alohida qism yoki bandlarga, ya’ni moddaning har bir qismi alohida abzasga ajratiladi. Bandlardan iborat moddalar harfiy ishoratga ega. Bunday ichki tartib jinoyat qonunini qo‘llash hamda unga murojaat etishda nafaqat u yoki bu moddaning tartib raqamini, balki unga tegishli qism yoki bandni aniq ko‘rsatish zaruratidan kelib chiqadi.

Jinoyat qonuni, mamlakatdagi jinoyatlarni belgilovchi va ularni sodir etgan shaxslar uchun jazolarni belgilovchi normativ-huquqiy hujatlardan iborat. Ushbu qonun, jinoyatni aniqlash, jinoyatchilikni himoya qilish maqsadida yaratiladi.



Jinoyat kodeksining Umumiy qismidagi ba'zi moddalar umumiy xususiyatga ega ekanligi sababli, ularni umumiy moddalar deb atash maqsadga muvofiqdir. Chunonchi, umumiy moddalar Maxsus qismning ma'lum moddalarini qo'llashda, umuman olganda, qonun ishlab chiqish jarayonida bevosita amal qilinishi lozim bo'lgan umumiy qoidalar va prinsiplardan iborat. Jinoyat kodeksining Umumiy qismdagi moddalar, asosan, deklarativ xususiyatga ega bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida sodir etilgan jinoyatga aniq huquqiy baho bera olish xususiyatiga ega bo'lganligi sababli qonunda muhim o'rinni egallaydi. Maxsus qismdagi moddalarda ko'zda tutilgan jinoyat turlari hamda ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan jazo choralarini nazarda tutilganligi sababli, ular turdosh moddalar deb ataladi. Turdosh moddalar ikkita element – dispozitsiya va sanksiyadan iborat. Dispozitsiya deganda, jinoyatning muayyan alomati nazarda tutilgan qism tushuniladi. Dispozitsiya jinoyat huquqiga oid normaning taqilovchi yoki tayinlovchi qismi bo'lib, u mazkur turdagini jinoyatlar va ularning alomatlarini ko'rsatib beradi. Chunonchi, jinoyat huquqi nazariyasida dispozitsiyaning beshta turi ajratiladi. Ular: oddiy, ta'riflovchi, blanket, havolaki va murakkab (aralash) dispozitsiyalardan iborat. Oddiy dispozitsiyada jinoiy qilmish alomatlari ko'rsatilmasdan, u umumiste'moldagi atama yoki umumiy ma'noga ega bo'lgan so'z birikmasi bilan ataladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, jinoyat qonuni bu jamiyatdagi, davlatdagi turli xil sodir bo'ladigan jinoyatlarni belgilab beruvchi hamda ularni oldini oluvchi normativ-huquqiy hujjatlardan iborat. Jinoyat qonuning asosiy qoidalari sifatida quyidagilarni olishimiz mumkin.

1. Jinoyatni aniqlash: Jinoyatlar odatda 3 ta asosiy mezon bo'yicha tasniflanadi:
 - o'ziga xoslik(masalan, o'g'irlik, qotillik)
 - jinoyatchilik darajasi (yengil, o'rta,og'ir)
 - jinoyatning oqibatlari (jismoniy zarar yetkazish yoki moliyaviy yo'qotish)
2. Amal qilish doirasi: jinoyat qonuni bir qancha jihatda belgilangan.
3. Jazo tizimi: Jinoyat qonuni jazolarni belgilaydi. Jazo yengilroq (jarima) va og'irroq(qamoq) bo'lishi mumkin.
4. Himoya kafolatlari: Har bir shaxsning huquqlari himoyalangan bo'lishi zarur. Bu yerda sudda advokat yollash huquqi, sud qarorlariga shikoyat qilish huquqi kabi kafolatlar mayjud.

Jinoyat qonuni har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga, asosiy maqsadi jamiyat xavfsizligini ta'minlash va odamlarning huquqlarini



himoya qilishdir. U samarali ishlashi uchun aholiga uning qoidalari haqida ma'lumot berish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi.
4. <http://ziyo.uz>
5. <https://kun.uz>
6. <https://lex.uz>
7. <https://parliament.gov.uz>



BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING TINCHLIKNI SAQLASHDAGI ROLI VA SAMARADORLIGI

Andijon davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti

Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi

301-guruh talabasi - Ergashov Shohruhhon

Andijon davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar"

kafedrasи o'qituvchisi - Ikromov Xayrullo Orifjonovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni, uning tinchlikni saqlash missiyalarining tarixi, mexanizmlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Maqola BMTning tinchlikni saqlashda erishgan muvaffaqiyatlari va duch kelgan qiyinchiliklarini o'rganib chiqib, ushbu jarayonning xalqaro huquqiy asoslari hamda xavfsizlikni ta'minlashda xalqaro hamjamiyatning o'rni haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, maqolada BMT missiyalarining zamonaviy global tahdidlarga moslashish ehtiyoji va ushbu yo'nalishda zarur bo'lgan islohotlar muhokama qilinadi. Maqola xalqaro huquq va xavfsizlik masalalariga qiziqqan ilmiy hamjamiyat va amaliyotchilar uchun foydali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: BMT, tinchlikni saqlash, xalqaro xavfsizlik, tinchlik missiyalari, xavfsizlik kengashi, xalqaro huquq, qurolli nizolar, mojarolarni hal qilish, tinchlikni tiklash, gumanitar yordam, global tahididlari, islohotlar, mintaqaviy hamkorlik.

Annotation: This article analyzes the role of the United Nations (UN) in ensuring international peace and security, the history, mechanisms and effectiveness of its peacekeeping missions. The article examines the successes of the UN in peacekeeping and the difficulties it faces, and provides detailed information about the international legal basis of this process and the role of the international community in ensuring security. The article also discusses the need for UN missions to adapt to modern global threats and the necessary reforms in this direction. The article can serve as a useful resource for the scientific community and practitioners interested in international law and security issues.

Key words: UN, peacekeeping, international security, peace missions, security council, international law, armed conflicts, conflict resolution, peace restoration, humanitarian aid, global threats, reforms, regional cooperation.



Аннотация: В данной статье анализируется роль Организации Объединенных Наций (ООН) в обеспечении международного мира и безопасности, история, механизмы и эффективность ее миротворческих миссий. В статье рассматриваются успехи ООН в миротворчестве и трудности, с которыми она сталкивается, а также дается подробная информация о международно-правовой основе этого процесса и роли международного сообщества в обеспечении безопасности. В статье также рассматривается необходимость адаптации миссий ООН к современным глобальным угрозам и необходимые реформы в этом направлении. Статья может послужить полезным ресурсом для научного сообщества и практиков, интересующихся вопросами международного права и безопасности.

Ключевые слова: ООН, миротворчество, международная безопасность, миротворческие миссии, Совет Безопасности, международное право, вооруженные конфликты, разрешение конфликтов, восстановление мира, гуманитарная помощь, глобальные угрозы, реформы, региональное сотрудничество

Kirish. BMT 1945-yilda tashkil etilganidan beri xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun keng qamrovli tashabbuslarni amalga oshirib kelmoqda. Tinchlikni saqlash missiyalari BMTning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ammo ular samaradorligi, duch kelgan muammolari va o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvi har doim muhokama mavzusi bo'lib kelgan.

BMTning asosiy vazifalarining Ichida eng asosiysi tinchlikni saqlashdir.

BMT Nizomiga ko'ra, tashkilotning asosiy vazifasi qurolli nizolarni oldini olish, tinchlik o'rnatish va mojarolarni hal qilishdir. Shu maqsadda tinchlikni saqlash kuchlari mojarolarni kuzatish, taraflarni ajratish va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan harakatlarni amalga oshiradi.

Tinchlikni saqlash missiyalarining mohiyatiga kelsak ular quyidagilar:

Tinchlikni saqlash missiyalari davlatlararo va davlat ichidagi qurolli nizolarni yumshatishga xizmat qiladi. Bu jarayonda qurolli kuchlardan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lsa-da, ular tinchlik bitimlarini nazorat qilish, saylovlarni tashkil etish va gumanitar yordamni ta'minlash kabi mas'uliyatlarga ega.

Tinchlikni saqlashning tarixiy rivoji haqida so'z yuritilganida quyidagilarni keltirib o'tish muhim. Bular:

1948-yildan buyon tinchlikni saqlash missiyalari turli shakllarda rivojlanib keldi:



1948-1960-yillar: Asosiy vazifa mojarolarni kuzatish va qurolli kuchlarni ajratishdan iborat edi.

1990-yillar: Sovuq urushdan keyingi davrda BMTning roli kengaydi, qurolli nizolarni oldini olish va fuqarolik infratuzilmasini qayta tiklashga e'tibor qaratildi.

Hozirgi davr: Tinchlikni saqlash ko'p qirrali masalalarni qamrab olmoqda, jumladan, terrorizmga qarshi kurash va iqlim inqirozining ta'sirini yumshatish.

Tinchlikni saqlashning huquqiy asosi.

BMTning tinchlikni saqlash missiyalari xalqaro huquqqa asoslanadi. Xavfsizlik Kengashi tomonidan qabul qilinadigan rezolyutsiyalar ushbu missiyalarni boshlash uchun huquqiy asosdir. Masalan:

- Tinchlikni tinch vositalar orqali saqlash.
- Xavfsizlikni tiklash uchun kuch ishlatish imkonini beruvchi huquqiy asos.
- Mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlik.
- BMT tinchlik kuchlarining tarkibi.
- BMT kuchlari harbiylar, politsiya xodimlari va tinch aholiga yordam beruvchi fuqarolik xodimlaridan iborat:

- Harbiylar: Mojaroli hududlarda xavfsizlikni ta'minlash.
- Politsiya: Huquq-tartibotni tiklash va mahalliy politsiyani tayyorlash.
- Fuqarolik xodimlari: Inson huquqlarini himoya qilish, gumanitar yordamni yetkazish va demokratik tizimlarni rivojlantirish.
- Tinchlikni saqlash missiyalarining moliyalashtirilishi vas hu kabilardan iboratdir.

BMTning tinchlikni saqlash operatsiyalari uchun byudjeti a'zo davlatlar hissasi hisobidan shakllantiriladi. Hozirda ushbu byudjet o'nlab milliard dollarni tashkil qilishi haqida ma'lumotlar mavjud. Biroq ayrim davlatlarning moliyaviy majburiyatlarini vaqtida bajarmasligi tizimning samaradorligini pasaytirishi ham mumkin.

BMT missiyalarining muvaffaqiyatlari.

Ba'zi missiyalar butunlay muvaffaqiyatl bo'lgan:

Mozambik: Fuqarolar urushidan keyin tinchlik bitimi o'rnatildi.

Namibiya: Mustaqillik jarayonini nazorat qilish va saylovlarni tashkil etish orqali mamlakat barqarorligini ta'minladi.

Liberiya: 14 yillik fuqarolar urushidan so'ng tinchlik tiklandi.

Tinchlikni saqlashda duch kelinayotgan qiyinchiliiklar

BMT missiyalari bir qator muammolarga duch kelmoqda:

Resurslarning yetishmasligi.



Mojaroli hududlarda xavfsizlikka tahdid.

Siyosiy manfaatlarning to‘qnashuvi.

Harbiy aralashuv uchun mahalliy aholi tomonidan qarshilik.

Sudan va Somali kabi muvaffaqiyatsizliklar.

Ba’zi vaziyatlarda BMT missiyalari kutilgan natijani bermagan:

Ruanda (1994): 800 mingdan ortiq odam genotsiddan halok bo‘lganida BMTning harakatsizligi tanqid qilindi.

Bosniya (1995): Srebrenitsa qirg‘ini paytida BMT tinchlikparvar kuchlari aholini himoya qila olmadi.

Xavfsizlik kengashining roli

Xavfsizlik Kengashi tinchlikni saqlash missiyalarini tasdiqlash va nazorat qilish uchun mas’uldir. Lekin veto huquqiga ega davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar ko‘p hollarda samaradorlikni pasaytiradi.

Zamonaviy xavflarga moslashish: BMT terrorizm, ekologik inqiroz va pandemiylar kabi yangi tahdidlarga qarshi strategiyalarni ishlab chiqishi zarur. Ayniqsa, iqlim o‘zgarishining tinchlikka ta’siri yangi tashabbuslarni talab qilmoqda.

Islohotlarning zarurati: Tinchlikni saqlashning samaradorligini oshirish uchun quyidagi islohotlar zarur:

- Xavfsizlik Kengashida veto tizimini qayta ko‘rib chiqish,
- Moliyaviy tizimni mustahkamlash,
- Xalqaro hamjamiyatning yordami.

Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik tinchlik missiyalarining samaradorligini oshiradi. Masalan, Afrikaning mintaqaviy tashkilotlari BMT missiyalarini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

BMTning tinchlikni saqlashdagi roli katta ahamiyatga ega, lekin uning muvaffaqiyati xalqaro hamjamiyatning qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq. Tashkilot o‘z missiyalarini amalga oshirishda muammolarga duch kelsa-da, global tinchlikni saqlashdagi o‘rni muhim bo‘lib qolmoqda. BMTning tinchlikni saqlash missiyalari xalqaro xavfsizlikni ta’minlashda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ushbu missiyalar qurolli mojarolarni oldini olish, tinchlikni tiklash va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo‘lsa-da, ularning muvaffaqiyati turli omillarga bog‘liq. Tashkilot o‘z tarixida Namibiya, Mozambik va Liberiya kabi davlatlarda tinchlikni tiklashga erishgan bo‘lsa-da, Ruanda va Bosniya kabi vaziyatlarda jiddiy tanqidlarga uchragan. Tinchlikni saqlash missiyalari moliyaviy, siyosiy va strategik cheklolvar bilan yuzlashmoqda. Ayniqsa, resurslarning yetishmasligi va xavfsizlik



kengashidagi kelishmovchiliklar samaradorlikni pasaytiruvchi asosiy omillardir. Shu bilan birga, zamonaviy xavflar, jumladan terrorizm, iqlim o‘zgarishi va pandemiyalar, tinchlikni saqlash jarayonlarini murakkablashtirmoqda. BMTning ushbu yo‘nalishdagi islohotlarga ehtiyoji katta. Xavfsizlik kengashining tarkibini yangilash, missiyalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish va yangi texnologiyalardan foydalanish samaradorlikni oshirishi mumkin. BMTning muvaffaqiyati faqat xalqaro hamjamiatning faol hamkorligi va qo‘llab-quvvatlashiga asoslangan holda ta’milanadi. Kelgusida BMTning tinchlikni saqlashdagi muvaffaqiyatlari xalqaro hamkorlik, yangi yondashuvlar va tashkilotning ichki tuzilmasidagi islohotlarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Foydalanimanadabiyotlar:

1. Inson huquqlari umujahon deklaratasiysi 1948-yil 10-dekabr.
- 2.O’zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi 2023-y
- 3.Davlat huquq va nazariyasi 2019-y
3. A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova “ Inson huquqlari” o’quv qo’llanmasi
4. Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari:Darslik, I-qism.



JINOYAT HUQUQI TUSHUNCHASI

Otaboyev Niyyatbek O'ktamboy o'g'li

ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari huquq

ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabasi

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Ikromov Hayrullo Orifjonovich

Annotatsiya: Mazkur maqolada jinoyat huquqi sohasidagi zamonaviy tendensiylar, huquqiy islohotlar, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi muvaffaqiyat va muammolar keng tahlil qilinadi. Jinoyat huquqi inson huquqlarini ta'minlash va jamiyatda adolatni qaror toptirishning muhim vositasi hisoblanadi. O'zbekiston mustaqillik yillarda jinoyat huquqi tizimini demokratlashtirish, insonparvarlik tamoyillariga asoslash va xalqaro standartlarga moslashtirish yo'lida katta yutuqlarga erishdi.

Аннотация: В данной статье будет проведен обширный анализ современных тенденций в области уголовного права, правовых реформ, а также успехов и проблем борьбы с преступностью. Уголовное право является важным инструментом обеспечения прав человека и установления справедливости в обществе. За годы независимости Узбекистан добился больших успехов на пути демократизации системы уголовного права, ее гуманизации и приведения в соответствие с международными стандартами.

Annotation: in this article, modern trends in the field of criminal law, legal reforms, as well as success and problems in the fight against crime are widely analyzed. Criminal law is an important means of ensuring human rights and determining justice in society. During the years of independence, Uzbekistan made great strides towards democratization of the Criminal Law System, Foundation of humanitarian principles and adaptation to international standards.

Kalit so'zlar : jinoyat huquqi , jinoyatchilikka qarshi kurash , huquqiy islohotlar , jazoni ijro etish tizimi , adolat va qonunchilik .

Ключевые слова: уголовное право , борьба с преступностью , правовая реформа, пенитенциарная система, правосудие и законодательство .

Keywords: criminal law , crime fighting , legal reform , penal system , justice and legislation .



Kirish. Maqolada jinoyat huquqi sohasidagi dolzARB masalalar, jumladan, jamiyatda jinoyatchilikka qarshi profilaktik choralar, jazoni yengillashtirish yoki almashtirishdagi yangi yondashuvlar, shuningdek, xalqaro hamkorlik doirasida olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, jinoyat huquqining davlatning huquqiy siyosatidagi o'rni va uning ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi roli ham yoritiladi. Maqola jinoyatchilikni kamaytirish va inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy va amaliy choralarining samaradorligini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Mazkur tahlil natijalari kelgusida jinoyat huquqi sohasida olib borilishi lozim bo'lgan islohotlarni belgilashga ko'maklashadi va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirishga asos yaratadi.

Jinoyat huquqi jinoyat sodir etish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquq sohasidir. U jamiyatda adolatni ta'minlash, jinoyatchilikni oldini olish va qonuniylikni qaror toptirishga xizmat qiladi. Mazkur sohaga xos asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

Qonuniylik: Jinoyat va jazo faqat qonunda belgilanishi kerak. Adolat va insonparvarlik: Jinoyatga muvofiq jazo tayinlash, jazoni yengillashtirish imkoniyatlari. Tenglik va huquqni himoya qilish: Jinoyatchilar va jabrlanuvchilar huquqlari teng ta'minlanishi. O'zbekiston jinoyat huquqi tizimining rivojlanishi

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng jinoyat huquqi sohasida bir qator islohotlarni amalga oshirdi:

Jinoyat qonunchilagini liberallashtirish: Ayrim jinoyatlar uchun jazolarni yengillashtirish va iqtisodiy jinoyatlarni dekriminalizatsiya qilish.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining qayta ishlanishi va zamonaviy talablarga moslashtirilishi.

Jazoni ijro etish tizimidagi o'zgarishlar: Mahkumlarning huquqlarini himoya qilish, jazoni ijro etish sharoitlarini yaxshilash va qayta moslashtirish dasturlarini amalga oshirish.¹

Jinoyatchilikka qarshi kurashda erishilgan yutuqlar

So'nggi yillarda O'zbekiston jinoyatchilikning kamayishida muhim yutuqlarga erishdi:

Profilaktik chora-tadbirlar: Jinoyatchilikning oldini olish uchun yoshlar bilan ishslash, ta'lim dasturlarini amalga oshirish.

¹ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (oxirgi tahrir, 2023).



Raqamli texnologiyalarni joriy etish: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

Xalqaro hamkorlik: INTERPOL, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha loyihibar amalga oshirildi.

Jazoni ijro etish tizimida islohotlar

O'zbekistonda jazoni ijro etish tizimi inson huquqlariga asoslangan yangi yondashuvlarni qo'llab-quvvatlamоqda. Xususan:

Reabilitatsiya dasturlari: Mahkulmlarni jamiyatga moslashuvini ta'minlash.

Jazoni yengillashtirish: Yengil jinoyatlar uchun muqobil jazolar (jarima, jamoat ishlari)ni joriy etish

Mahkullar huquqlarini himoya qilish: Jazoni ijro etish muassasalarida yashash sharoitlarini yaxshilash.

Jinoyatchilikni oldini olishda ijtimoiy mas'uliyat

Jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish, huquqiy bilimlarni ommalashtirish. Oilaviy tarbiyaning jinoyatchilikni kamaytirishdagi o'rni.. Mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining huquqni muhofaza qilishdagi roli.²

Xalqaro huquqiy hamkorlik. O'zbekiston jinoyatchilikka qarshi kurash va jinoyat huquqi sohasida xalqaro hamjamiyat bilan faol hamkorlikni amalga oshirmoqda:

BMT Konvensiyalariga qo'shilish: Terrorizm, giyohvand moddalar savdosi va boshqa xalqaro jinoyatlar bo'yicha.

Mintaqaviy hamkorlik: Markaziy Osiyo davlatlari bilan terrorizm va korrupsiyaga qarshi kurashda qo'shma dasturlar.

Qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish: O'zbekiston xalqaro huquqiy hujjatlar talablari asosida o'z qonunlarini takomillashtirmoqda.

Jinoyat huquqi va inson huquqlari o'zaro bog'liqligi

Jinoyat huquqi inson huquqlari bilan uzviy bog'liqdir. Jinoyat sodir etgan shaxslar huquqlari himoya qilinishi bilan bir qatorda jabrlanuvchilarining ham qonuniy manfaatlari ta'minlanishi muhimdir. Bu borada:

Ayblov siz jazo berilmasligi tamoyili.

Jabrlanuvchilarga psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish.

Jinoyatlarni tergov qilishda inson huquqlari buzilishining oldini olish bo'yicha mexanizmlar ishlab chiqilishi.

² S. Abdurahmonov, "Huquqiy davlat va jinoyatchilikka qarshi kurash", Toshkent, 2022.



Jinoyatlarning ijtimoiy va iqtisodiy omillari

Jinoyatchilikning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilish uning oldini olish uchun muhimdir. O‘zbekistonda jinoyatchilikning ba’zi asosiy omillari:

Ijtimoiy tengsizlik va ishsizlik: Bu holat yoshlar o‘rtasida jinoyatlarga moyillikni oshirishi mumkin.

Oiladagi zo‘ravonlik va e’tiborsizlik: Ko‘pincha oilaviy muammolar jinoyatchilikning boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’naviyatsizlik va huquqiy madaniyatning pastligi: Jinoyat huquqi sohasi bu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks chora-tadbirlarni talab etadi.

Jinoyatchilikning zamonaviy shakllari va ularga qarshi kurash

Bugungi global muhitda yangi jinoyat turlari paydo bo‘lmoqda:

Kiber jinoyatlar: Axborot xavfsizligini buzish, onlayn firibgarlik va shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash holatlari.

Terrorizm va ekstremizm: Ushbu jinoyatlar jamiyat xavfsizligi va barqarorligiga tahdid soladi.

Xalqaro giyohvand moddalar savdosi: O‘zbekiston mintaqaviy geografiyasi sabab bu jinoyatga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston hukumati ushbu jinoyatlarga qarshi kurash uchun quyidagi choralarни amalga oshirmoqda: Kiber xavfsizlikni ta’minalash uchun maxsus texnologik markazlar tashkil etish. Terrorizmga qarshi milliy strategiya ishlab chiqish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Giyohvandlikka qarshi kurashda jamiyatni, ayniqsa yoshlarni jalb etish. Jinoyatchilikning statistik tahlili va tahliliy yondashuvlar.³

Jinoyatchilik holatlarini aniqlash va ularning oldini olish uchun statistik tahlilning ahamiyati katta:

Hududlar kesimida jinoyatchilik darajasi: Qaysi hududlarda jinoyat ko‘p sodir etilishi va sabablarini aniqlash.

Yoshlar va jinoyatchilik: Jinoyat sodir etuvchi yoshlar orasida ko‘p uchraydigan xatti-harakatlar va ularning sabablarini o‘rganish.

Jinoyatlarning mavsumiyligi: Ayrim jinoyat turlari yilning ma’lum davrlarida ko‘payishi mumkin.

Jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha xalqaro tajriba

³ . O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, “Jazoni ijro etish tizimida islohotlar”, Toshkent, 2023.



O‘zbekiston bir qancha rivojlangan davlatlarning jinoyat huquqi sohasidagi tajribasini o‘rganmoqda:

Singapur tajribasi: Jinoyatlarning oldini olishda qat’iy qonunlar va tezkor jazo mexanizmlarini joriy qilish.

Germaniya modeli: Mahkumlarni reabilitatsiya qilish va ularni jamiyatga qaytarish dasturlari.

Shvetsiya yondashuvi: Jazoni minimallashtirish va jinoyatni ildizda bartaraf etish tamoyili.⁴

Kelgusidagi istiqbollar va takliflar

Ta’lim dasturlarini takomillashtirish: Jinoyatchilikka qarshi kurashda yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish.

Qonunlar bazasini yangilash: Jinoyat kodeksini global muammolarga moslashtirish.

Mahalliy hamkorlikni kuchaytirish: Mahalla va jamoatchilik organlari orqali jinoyatchilikning oldini olish.

Xulosa

O‘zbekiston jinoyat huquqi tizimi mustaqillik yillarda sezilarli rivojlandi va zamonaviy talablarga moslashtirildi. Qonunchilikni liberallashtirish, jazoni ijro etish tizimida insonparvarlik tamoyillarini kuchaytirish, xalqaro standartlarga muvofiq huquqiy islohotlarni amalga oshirish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashda ijobiy natijalar qayd etilmoqda. Shu bilan birga, jinoyatchilikning oldini olish va jazoni yengillashtirish masalalarida yangi yondashuvlar muvaffaqiyatli qo‘llanmoqda. O‘zbekistonda huquqiy madaniyatni oshirish va jinoyatchilikka qarshi profilaktik choralarни kuchaytirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minalash mumkin. Ammo bu yo‘nalishda yanada ko‘proq islohotlar, jumladan, jinoyat kodeksini zamonaviy global tahdidlarga moslashtirish, reabilitatsiya tizimlarini kengaytirish va xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash zarur. Ushbu chora-tadbirlar jinoyatchilikni kamaytirishga va huquqiy tizimning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

⁴ Sh. Karimov, “Jinoyatchilikning oldini olishda ta’lim va ijtimoiy mas’uliyat”, Toshkent, 2021.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (oxirgi tahrir, 2023).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jinoyat huquqi va jazoni liberallashtirish bo‘yicha milliy strategiyasi” (2021).
3. S. Abdurahmonov, “Huquqiy davlat va jinoyatchilikka qarshi kurash”, Toshkent, 2022.
4. BMT Inson huquqlari Kengashi, “O‘zbekistonning jinoyat huquqi bo‘yicha xalqaro majburiyatlari” (2023).
5. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, “Jazoni ijro etish tizimida islohotlar”, Toshkent, 2023.
6. INTERPOL statistik hisobotlari, “Markaziy Osiyoda jinoyatchilik tahlili” (2022)
7. Sh. Karimov, “Jinoyatchilikning oldini olishda ta’lim va ijtimoiy mas’uliyat”, Toshkent, 2021.
8. UNESCO, “O‘zbekistonda jinoyat huquqiga oid xalqaro hamkorlik” (2022).



KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ

Ochilov Ismoil Hayit o'g'li

*ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari
huquq ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.*

Ijtimoiy fanlar kafedrasи o'qituvchisi

Ikromov Hayrullo Orifjonovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy huquqning davlat boshqaruvi va jamiyat hayotidagi ahamiyati atroflicha tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy huquq davlatning huquqiy tizimining asosini tashkil etib, davlat hokimiyati organlarining faoliyati va fuqarolarning huquq va erkinliklarini tartibga soluvchi me'yorlar majmui sifatida namoyon bo'ladi.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется значение конституционного права в государственном управлении и жизни общества в Республике Узбекистан. Конституционное право представляет собой совокупность норм, регулирующих деятельность органов государственной власти и права и свободы граждан, составляя основу правовой системы государства.

Annotation: this article analyzes in detail the importance of constitutional law in the Republic of Uzbekistan in public administration and in the life of society. Constitutional law forms the basis of the state's legal system and manifests itself as a set of norms that regulate the activities of state authorities and the rights and freedoms of citizens.

Kalit so'zlar: Konstitutsiyaviy huquq, asosiy qonun, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquq va erkinliklar, islohotlar, xalqaro standartlar.

Ключевые слова: конституционное право, основной закон, правовое государство, гражданское общество, права и свободы, реформы, международные стандарты.

Keywords: constitutional law, Basic Law, Legal state, civil society, rights and freedoms, reforms, international standards.

Maqolada konstitutsiyaviy huquqning rivojlanishi bosqichlari, 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsyaning tarixiy ahamiyati hamda davlatning huquqiy asoslarini shakllantirishda tutgan o'rni yoritiladi. Shuningdek, Konstitutsyaning demokratik tamoyillarga asoslanganligi, davlat hokimiyatining bo'linishi prinsipi,



fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklarini kafolatlash borasidagi yutuqlarga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekiston so'nggi yillarda amalga oshirayotgan konstitutsiyaviy islohotlarning mazmuni va maqsadlari keng yoritilib, islohotlarning ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka ta'siri o'r ganiladi. Bu islohotlar mamlakatni modernizatsiya qilish, xalqaro me'yorlarga mos huquqiy muhit yaratish, shuningdek, fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan.

Bundan tashqari, O'zbekistonning konstitutsiyaviy huquq sohasidagi xalqaro hamkorligi tahlil qilinib, BMT, Yevropa Kengashi va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan amalga oshirilayotgan loyihalar va islohotlar jarayoni ko'rib chiqiladi. Xalqaro huquq me'yorlarini milliy qonunchilikka integratsiya qilishdagi sa'y-harakatlar ham yoritiladi .

Ushbu maqola konstitutsiyaviy huquqning nafaqat davlat boshqaruvidagi, balki fuqarolik jamiyatining shakllanishidagi o'rmini tahlil qilib, O'zbekistonning zamonaviy huquqiy davlat sifatida rivojlanish yo'lidagi muhim yutuqlarini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiyaviy huquq, asosiy qonun, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquq va erkinliklar, islohotlar, xalqaro standartlar.

Konstitutsiyaviy huquq va uning mohiyati. Konstitutsiyaviy huquq – bu davlatning asosiy qonuni sifatida e'tirof etilgan Konstitutsiyaga tayangan holda, davlat va jamiyat munosabatlarini tartibga soluvchi huquq sohasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy huquq davlat boshqaruvining barcha jabhalarini huquqiy normalar bilan tartibga solib, qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy huquq davlat hokimiyatining shakllanishi, hokimiyat organlarining vakolatlari va faoliyat prinsiplari, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – davlatning huquqiy asoslari

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat mustaqilligi va davlat qurilishining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Konstitutsiya davlatning suvereniteti, demokratik va ijtimoiy mohiyatini, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlashni e'tirof etdi. Ushbu Konstitutsiya davlat hokimiyati organlari o'rtasida o'zaro muvozanatni ta'minlash va hokimiyatning bo'linishi prinsipiga asoslanadi:

1. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – Oliy Majlis (Qonunchilik palatasi va Senat).
2. Ijro hokimiyati – Prezident va hukumat.
3. Sud hokimiyati – mustaqil sud tizimi.



Konstitutsiya inson huquqlarini ta'minlashni davlatning asosiy vazifasi sifatida belgilaydi. Shu bilan birga, u davlat organlarining faoliyati va jamiyat hayotining barcha jabhalarini tartibga soladigan yuqori darajadagi qonun hujjatlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Konstitutsiyaviy islohotlar va ularning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida Konstitutsiyani takomillashtirishga qaratilgan bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Xususan, 2023-yilda Konstitutsiyaga kiritilgan o'zgartirishlar davlat boshqaruvida fuqarolar manfaatlarini hisobga olish va inson huquqlarini yanada kuchaytirishga yo'naltirilgan. Ushbu o'zgartirishlar quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Ijtimoiy himoyani kuchaytirish: Fuqarolarning ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda huquqlarini kengaytirish.

Fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash: Davlat organlarining shaffofligini oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Atrof-muhitni muhofaza qilish: Konstitutsiyada ekologik barqarorlikni ta'minlashga oid me'yordarning belgilanishi.

Sud hokimiyatining mustaqilligini mustahkamlash: Fuqarolarning sud huquqlarini kafolatlash va adolatli sudlovni ta'minlash.

Konstitutsiyaviy huquq va xalqaro me'yorlar. O'zbekistonning konstitutsiyaviy huquqi xalqaro huquq me'yorlariga moslashgan holda rivojlanmoqda. Xalqaro tashkilotlar, xususan, BMT va Yevropa Kengashi bilan hamkorlik doirasida inson huquqlarini himoya qilish, demokratik tamoyillarni rivojlantirish va qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqaro huquqiy normalarni milliy qonunchilikka moslashtirishni nazarda tutadi. Xususan, fuqarolarning asosiy huquqlarini ta'minlash borasida xalqaro shartnomalarga qo'shilish va ular bo'yicha majburiylarni bajarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishidir.

Konstitutsiyaviy huquqning jamiyat rivojlanishidagi roli. Konstitutsiyaviy huquq nafaqat davlat hokimiyatini tashkil etish va boshqaruvi tizimini belgilaydi, balki jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash orqali fuqarolik jamiyatini shakllantirishga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy huquq davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro mas'uliyat va ishonchni mustahkamlashda hal qiluvchi o'ringa ega.

Davlat boshqaruvida muvozanatni ta'minlash:



Konstitutsiyaviy huquq davlat hokimiyati tarmoqlarining o‘zaro muvozanatini va bir-birini nazorat qilish mexanizmlarini belgilab beradi. Bu demokratiyaning asosiy kafolati bo‘lib, hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida haddan tashqari vakolat to‘planishini oldini oladi. Masalan, qonun chiqaruvchi hokimiyatning ijro hokimiyatiga nisbatan nazorat vakolati va sud hokimiyatining har ikki tarmoqning qarorlariga xolis baho berish imkoniyati demokratik boshqaruvni ta’minlaydi.

Huquqiy mas’uliyatning kuchayishi: Konstitutsiyaviy huquq jamiyat a’zolarining huquqiy ongi va mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Bu huquq sohasi fuqarolarni o‘z huquq va majburiyatlarini bilishga undaydi, davlat organlarini esa o‘z vakolatlari doirasida faoliyat yuritishga majbur qiladi. Shu tariqa, qonunlar va qarorlarning adolatli ijrosini ta’minlaydi.

Hududiy boshqaruv va mahalliy organlarning mustaqilligi: Konstitutsiyaviy huquq orqali O‘zbekistonda mahalliy boshqaruv organlari – xokimiyatlar va mahallalar vakolatlari huquqiy asosda belgilangan. Ular o‘z hududida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanish masalalarini mustaqil hal qilish huquqiga ega bo‘lib, davlat va fuqarolar o‘rtasida yaqin aloqani ta’minlaydi.

Milliylik va xalqaro me’yorlarning uyg‘unligi:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi milliy an’analarga asoslangan holda ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uning xalqaro standartlarga mosligi mamlakatni global huquqiy hamjamiyatning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Bu uyg‘unlik inson huquqlari, ekologiya, madaniy merosni asrash va ijtimoiy tenglik kabi sohalarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi: Konstitutsiyaviy huquq fuqarolik jamiyatni institutlarini, masalan, nodavlat tashkilotlar va mustaqil ommaviy axborot vositalarini faoliyat yuritishga huquqiy asos yaratadi. Bu jamiyatni davlat qarorlari qabul qilish jarayoniga jalb qilish orqali boshqaruvni demokratlashtiradi.

Hokimiyat tizimidagi ishonchning oshishi: Konstitutsiyaviy huquq davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash orqali fuqarolar va davlat o‘rtasida ishonchni kuchaytiradi. Bu, o‘z navbatida, davlat boshqaruviga aholi tomonidan ishonchli munosabat shakllanishiga olib keladi.

Xulosa

O‘zbekiston Respublikasida konstitutsiyaviy huquq davlat boshqaruvi va jamiyat hayotini huquqiy asosda tartibga soluvchi eng muhim soha hisoblanadi. Konstitutsiya davlat hokimiyatining mustahkam tamoyillarini belgilab, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va xalqaro hamjamiyat bilan munosabatlarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi.



Mamlakatda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar, xususan, 2023-yilda kiritilgan o‘zgartirishlar, davlat boshqaruvining sifatini oshirish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan. Bu islohotlar ijtimoiy himoya, sud hokimiyatining mustaqilligi, ekologik barqarorlik, shaffof boshqaruv kabi ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab olib, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Konstitutsiyaviy huquq davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlarini mustahkamlash va xalqaro me’yorlarni milliy qonunchilikka integratsiya qilish orqali davlat barqarorligi va rivojlanishini ta’minlamoqda. Shu bilan birga, u fuqarolarning o‘z huquq va majburiyatlarini anglashiga, huquqiy mas’uliyatining oshishiga va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, konstitutsiyaviy huquq davlatning huquqiy va demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi yo‘lida mustahkam poydevor bo‘lib, uning amaliyoti davlatning xalqaro maydondagi obro‘sini oshirishda ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Kelgusida konstitutsiyaviy huquqni yanada takomillashtirish, inson huquqlari sohasida yangi huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarini chuqurlashtirish davlatning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lib qolishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari to‘plami (2021–2024).
3. BMT Inson Huquqlari bo‘yicha Kengashi ma’lumotlari (2022).
4. O‘zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlar bo‘yicha milliy strategiya (2017).
5. Adliya vazirligi materiallari, "Konstitutsiyaviy huquqni rivojlantirish: yangi yondashuvlar" (2023).
6. S. Abdurahmonov, "Konstitutsiyaviy huquq: nazariya va amaliyot", Toshkent, 2020.
7. UNESCO, "O‘zbekistonda huquqiy davlat qurilishidagi ilg‘or tajribalar", 2021.



JINOYAT HUQUQI TUSHUNCHASI VA VAZIFALARI VA PRINSIPLARI

Andijon davlat pedagogika instituti

*“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at” fakulteti
katta o’qituvchisi*

Ikromov Hayrullo Orifjonovich

Andijon davlat pedagogika instituti”

*Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at” fakulteti
MIG’MAHT yo’nalishi 301-guruh talabasi*

Abdullahayev Muhammad Ali

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jinoyat huquqi tushunchasi nima ekanligi uning kelib chiqish tartiblari va tasniflanishi haqida to’liq ma’lumotalar berilgan bo’lib soddalashtirilgan holda oson qilib yoritilgan.O’zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining moddalarini keng va sodda qilib sharxlab berilgan.Jinoyat Kodeksi orqali jamiyatimizda insonlarning huquqlari va majburiyatları, ularning tuzilish tartibi va bajarlishi haqida so’z boradi.Insonlarning jinoyat huquqi haqida huquqiy ongini oshirishita o’z hissasini qo’shayotgan oraganlar haqida aniq ko’rasatiladi.

Аннотация

В данной статье дается исчерпывающая информация о том, что такое понятие уголовного права, о порядке его возникновения и классификации. Дается широкое и простое толкование статей Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Через Уголовный кодекс рассматриваются права и обязанности людей в нашем обществе, порядок их формирования и исполнения. Наглядно показано, как люди способствуют повышению правовой осведомленности об уголовном праве.

Annotation

This article provides complete information on what the concept of criminal law is about the procedures and classification of its origin, easily covered in a simplified way. The articles of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan are widely and simply described. Through the Criminal Code, our society talks about the rights and obligations of people, the order and fulfillment of their structure. Increase the legal awareness of people about the criminal Law it is clearly seen about those who contribute.



Kirish so'zlari: jinoyat,kodeks, konstitutsiya,modda, jinoyatchilik, qonun, BMT,qonuniylik,demokratik prinsip,insonparvarlik,odillik.

Предисловия: преступление, кодекс, Конституция, статья, преступление, закон, ООН, законность, демократический принцип, гуманность, справедливость.

Introduction: crime, code, Constitution, Article, crime, law, UN, legality, democratic principle, humanity, justice.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy huquq tizimining tarkibiy qismi bo'lgan jinoyat huquqi huquqning alohida mustaqil sohasi sifatida o'rjaniladi. Shunga ko'ra,jinoyat huquqi o'zining predmeti, metodlari va vazifalari bilan boshqa huquqiyfanlardan ajralib turadi.

«Jinoyat huquqi» tushunchasi bir necha ma'nolarda qo'llaniladi. Masalan: 1) huquq sohasi; 2) qonunchilik sohasi; 3) fan sohasi; 4) o'quv fani. Barcha huquq sohalari kabi jinoyat huquqining asosini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan normalari tashkil etadi. Jinoyat huquqi huquq sohasi sifatida qonun ijodkorligi va huquqniqo'llash bilan bog'liq bo'lgan jinoyat qonunchiligi va huquqiy munosabatlarni hamo'z ichiga oladi.

Jinoyat huquqi O'zbekiston Respublikasi huquqiy tizimining tarmog'i bo'lib, Oliy Majlis tomonidan o'rnatilgan jinoiy javobgarlikning asoslari va prinsiplari, qanday ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat ekanligi, jazoga sazovorligi, javobgarlikka tortish va jazodan ozod qilish asoslari, jinoyat huquqiga oid huquqiy ta'sir choralarini belgilovchi yuridik normalar yig'indisidan tashkil topgan.

«Jinoyat huquqi» tushunchasining huquq sohasi, yuridik fan va o'quvkursi sifatida qo'llanilishi yagona normativ huquqiy baza – jinoiy- huquqiy normalar tizimidan iborat bo'lgan amaldagi jinoyat qonunida asoslanadi.

Jinoyat huquqi qonunchilik sohasi sifatida davlatning oliv qonun chiqaruvchi organi – Oliy Majlis chiqargan qonun va normalar yig'indisidan iborat bo'lib, u jinoiy javobgarlik asoslari va prinsiplari, ayrim qilmishlarning jinoiyligi va jinoiy jazoga loyiqligi, jinoiy javobgarlikka tortish va jinoiy jazodan ozod qilish asoslari va meyorlari, jinoyat huquqiga oid ta'sirning jinoiy jazo hisoblanmaydigan hamda jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasida ijobiy va ijtimoiy foydali xulq-atvorni rag'batlantiruvchi boshqa ta'sir choralarini qo'llashni belgilaydi. Mazkur tushuncha jinoyat huquqini huquq sohasi sifatida tushunishdan birmuncha torroq ma'noga ega



bo‘lib, davlat va jinoyatchi shaxs o‘rtasidagi munosabatdir. Bu munosabatlar jinoyatsodir etilishi bilan boshlanadi va sudlanganlikning olib tashlanishi yok jinoiyjavobgarlik va jazodan ozod qilish bilan tugaydi.

Jinoyat qonunining vazifasi o‘ta muhim ijtimoiy munosabatlarni qo‘riqlashdan iborat bo‘lib, ushbu vazifani bajarmay turib, qo‘yilgan maqsadga erishish, qo‘riqlanayotgan ijtimoiy munosabatlarga qilinadigan tajovuzlarning oldini olish va sodir etilgan jinoyat hamda uni sodir etishda aybdor bo‘lgan shaxslarga davlat tomonidan o‘rnatilgan majburlov choralarini qo‘llash orqali ta’sir etish imkoniyatini amalga oshirib bo‘lmaydi. Shunday qilib, jinoyat qonunining qabul qilinishi jinoyat huquqida ishlatiladigan boshqa tushunchalarga tuzatish kiritish, ularni yangicha sharhlash imkonini berdi.

Jinoyat huquqi fan sohasi sifatida jinoyat qonunlari, huquq va fan sohalarining rivojlanish tarixi; amaldagi qonunlar; jinoyat huquqiga oid normalarni qo‘llash samaradorligi; xorijiy davlatlarning jinoyat huquqi vaqonunlari; xalqaro jinoyat huquqi normalari; jinoyat qonunlarini qo‘llashning nazariy muammolari; jinoyat huquqi sotsiologiyasi; jinoyat qonunlari, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari xavf tug‘diruvchi xulq-avtorning turli shakllari va boshqa shunga o‘xhash muammolarning kelib chiqish sabablari va shartlari kabilarni o‘rganishga qaratilgan huquqiy qarashlar, tasavvurlar va g‘oyalar yig‘indisidan iborat.

Jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni Jinoyat kodeksining 2-moddasidagi vazifalarni shart qilib qo‘yadi. Jinoyat huquqining vazifalari sifatida shaxs, uning huquq vaerkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari,mulk, tabiiy muhit, tinchlik hamda insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo‘riqlash, jinoyat- larning oldini olish, fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasining Konstitut- siyasi va qonunlariga rioya etish ruvida tarbiyalashni nazarda tutadi. Bunday ijtimoiy munosabatlar barcha huquqiy demokratik davlatlar negizini tashkil etadi. Bu vazifani amalga oshirish maxsus, aniqrog‘i, qo‘riqlanadigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish orqali amalga oshiriladi hamda u jinoyat qonuni bilan taqilangan qilmishni sodir etish vaqtidan boshlab yuzaga keladi. Davlat ayrim qilmishlarni man etish yoki uni bajarishning majburiy ekanligini ko‘rsatish orqali buzilishi salbiy oqibatlarga olib keladigan hamda barcha fuqarolar va jamiyat uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni qo‘riqlaydi. Davlat va jamiyatning asosini tashkil etuvchi ijtimoiy munosa- batlarga tajovuz qiladigan ayrim qilmishlarga qat’iy taqiq o‘rnatish bilan birga, davlat huquq bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilariga aniq yuridik vazifalarni



yuklaydi. Davlat jinoyat huquqi normalarida istalgan xulq-atvor turini ifodalash orqali, ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qiladi. Zero, u biror-bir huquqiy munosabat subyektlariga aynan shunday xatti-harakat qilish yoki, aksincha, jamiyatga zid bo‘lgan ba’zi qilmishlardan o‘zini tiyish majburiyatini yuklaydi. Basharti, jinoyat huquqiga oid normalarda belgilangan talablarga rioya qilinmasa, u holda jinoyat huquqiga oid qo‘riqlanadigan munosabatlar yuzaga keladi. Huquqiy munosabatlarning mazmuni munosabat subyektlarining huquq va majburiyatlari mazmunidan kelib chiqadi.

Jinoyat huquqining fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash vazifasi Jinoyat kodeksining 2-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, bunga umuman jinoyat qonunlarining mavjudligi hamda undagi aniq normalarni qo‘llash amaliyoti orqali erishiladi.

Jinoyat huquqi predmetidagi maxsus ijtimoiy munosabatlarga jinoyat huquqiga oid tartibga soluvchi munosabatlar kirib, ular huquq beruvchi normalar asosida amal qiladi hamda haqqoniy, ijtimoiy foydali xulq- atvorni tartibga soladi. Huquq beruvchi normalar Jinoyat kodeksi Umumiyligining qismining uchinchi bo‘limida belgilangan bo‘lib, ular qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb nomlanadi. Fuqarolarni zaruriy mudofaa holatida ijtimoiy xavfli tajovuzlardan o‘zini, boshqa shaxsni, davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushslash, oxirgi zarurat, buyruq yoki boshqa vazifani ijro etish, kasb yoki xo‘jalik faoliyatiga bog‘liq asosli tavakkalchilik vaqtida zarar yetkazish huquqini beruvchi normalar ijtimoiy maqbul xulq-atvorni tartibga soladi. Mazkur normalarning bir qismi qonun oldida mas’uliyatli shaxslarni tarbiyalashi, ularda jinoyat sodir etish yoki boshqa qonunga xilof xulq-atvorga murosa-sizlikni shakllantirishi bois, ulkan tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Jinoyat huquqining prinsiplari. Jinoyat huquqi prinsiplari jinoyat qonunida mustahkamlangan hamda demokratik davlatning jinoyat huquqiga oid siyosatining mohiyati, hozirgi zamon prinsiplarini ifodalaydigan, shuningdek, sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlikning negizi, chegaralari va shakllari haqidagi ijtimoiysiyoziy, iqtisodiy, axloqiy, diniy va huquqiy tasavvurlarni aks ettiradigan yetakchi g‘oya hamda asosiy qoidalardir.

Jinoyat huquqi prinsiplari qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolatlilik, insonparvarlik, demokratizm, fuqarolarning qonun oldida tengligi, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarligi, umuminsoniy qad-riyatlar hamda umum e’tirof etgan xalqaro huquq normalarining ustunligi va O‘zbekiston Respublikasi



Konstitutsiyasida mustahkamlangan boshqa shu kabi prinsiplarga asoslanadi. Ayni paytda, har bir prinsip muayyan huquqiy sohani tartibga solish usuli, ijro etuvchi vazifalari bilan belgilanadigan o‘ziga xos mazmunga ega. Mazkur prinsiplar Jinoyat kodeksining 3-moddasida mustahkamlangan bo‘lib, ularning barchauchun majburiy mohiyati ochib berilgan. Binobarin, ular kishilarning huquqiy ongini tartibga solish bilan bog‘liq ta’sir ko‘rsatish hamda qonun chiqarish va qonunni qo‘llash faoliyatini yanada rivojlantirish uchun huquqiy zamin bo‘lib xizmat qiluvchi omil hisoblanadi. Barcha prinsiplar o‘zida demokratik jinoyat huquqining chinakam mohiyatini ifodalaydigan ichki o‘zaro muvofiqlashgan qoidalarning yaxlit tizimini tashkil etadi. Prinsiplar tizimi jinoyat huquqiga oid markaziy institutlar – jinoyat va jazoni o‘zida mujassamlashtiradi.

Jinoyat kodeksi normalarida mazkur prinsiplarning mavjudligi jamiyatdagi huquqiy munosabatlarni tartibga solib turadi. Zero, ular jinoyat va jazoga nisbatan nafaqat hozirgi tarixiy davrda qabul qilingan huquqiy qarashlarni aks ettiradi, balki jinoyat huquqiga oid munosa- batlarga qaratilgan umumiy talablarni ham o‘zida mujassamlashtiradi. Demak, huquqiy prinsiplar tizimiga nafaqat fuqarolar, balki jinoyat huquqiga oid qoidalarni qo‘llash vakolati berilgan davlat organlariga ham ta’sir ko‘rsatish vazifasi yuklatilgan.

Normativ prinsiplarning fuqarolarga ogohlantirish yo‘li bilan ta’sir o‘tkazishi huquqiy ongni jinoyat qonuni ko‘rsatmalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi e’tiqod darajasida tarbiyalash, ularga nafaqat davlat va jamiyat manfaatlari, birinchi navbatda, o‘z manfaatlaridan kelib chiqqan holda rioya qilish zarurligi maqsadiga egadir Qonuniylik prinsipi (JK 4-m.). Qonuniylik prinsipi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14, 15-moddalarida umumhuquqiy shaklda mustahkamlanadi.

Masalan, Konstitutsiyaning 14-moddasida davlat o‘z faoliyatini qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi belgilangan¹. Ushbu qoida 15-moddada tushuntirilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinishi e’lon qilinib, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘rishlari qayd etilgan.

Jinoyat huquqidagi qonuniylik prinsipi turli mazmun va ko‘ptaraflama ahamiyatga ega. Mazkur prinsip quyidagilarni bildiradi:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi moddasi 1- beti



- 1) qilmishning jinoiyligi faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi;
- 2) jazo va boshqa huquqiy oqibatlar faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi;
- 3) Jinoyat kodeksi jinoyat huquqi uchun yagona manba hisoblanadi;
- 4) shaxsnинг jinoyatni sodir etishdagi aybdorligi faqat sud tomonidan belgilanadi;
- 5) jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini faqat sud qo'llaydi;
- 6) jinoyat sodir etishda aybdor hisoblangan shaxsnинг huquqiy holati faqat qonun bilan belgilanadi;
- 7) huquqni qo'llovchi barcha idoralar jinoyat qonuning mazmunini o'z vakolatlari doirasida va Jinoyat kodek-sida ko'rsatilgan aniq matnga muvofiq sharhlashga majburdirlar.

Jinoyat kodeksining 4-moddasi 1-qismida qilmishlarning jinoiyligi, jazoga loyiqligi va boshqa kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar faqat jinoyat qonuni bilan belgilanishi, shaxsni javobgarlikka tortish asoslarini belgilab beruvchi barcha qoidalar, jazoni belgilash, shuningdek, shaxsnинг jinoyatni sodir etishda aybdorligidan kelib chiqadigan boshqa huquqiy oqibatlar faqat Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan va belgilangan. Bundan kelib chiqqanda, Jinoyat kodeksi davlatning oliv qonun chiqaruvchi organi – Oliy Majlis qabul qiladigan jinoyat qonuning yagona manbaidir. Demak, Jinoyat kodeksi jinoyatga oid yagona huquqiy hujjat shakli hisoblanib, jinoyat huquqiga doir qabul qili- nadigan barcha qonunlar shu yagona manbaga qo'shimcha sifatida kiritilishi shart. Jinoyat qonunlarini to'liq kodifikatsiya qilish quyidagilarga, ya'ni: 1) jinoyatga oid barcha huquqiy normalarni bitta qonunga toplashga; 2) ularni aniq mantiqiy ketma-ketlik va tizimga kiritish prinsipiغا ko'ra joylashtirishga; 3) jinoyat qonunlarining to'liq tizim ekanligi to'g'risidagi yaxlit tasavvurga ega bo'lishga; 4) huquqni qo'llovchilarining ulardan foydalanishida qulaylik tug'dirishga imkon beradi.

XULOSA

Xulasa qilib aytishimiz mumkinmi, rivojlanib taraqqiyot tomon intilayaotgan davlatlarning jinoyatga bo'lgan muammolari qatoriga aylanganib bormoqda. Bugungi kunda jinoyatlarni oldini olishda davlatimiz tomonidan islohatlar, qaror,qunun, chora-tarbirlar olib borilmoqda. Shu bilan birga jinoyat haqida har bir insonga normativ va huquqiy me'yorlar haqida keng malumotlar berilmoqda. Bu esa jamoyatimizda huquqbazarlik va jinoyatlarni oldini olishga yordam bermoqda. Jinoyatlar odatda davlat tomonidan jazolanishi mumkin bo'lgan xatti-harakatlar



sifatida qaraladi va ular turli tarzda tasniflanadi. Bundan tashqari jinoyatlarni og'irligi bo'yicha, yengilligi, tabiatni bo'yicha, tashkilliy jihatdan qanday bo'lishi haqida alohida turlarga bo'linadi. Ularni bir-biriga turlicha farqlanadi va jazolanish tartibi ham alohida amalga oshadi. Shuni aytishimiz mumkinki jinoyat qanday bo'lishidan qatiy nazar jamiyatimizga bitta jinoyat ham ko'plik qiladi, uni oldini olish avzal ish bo'ladi. Bu har bir insonga talluqli bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYAOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
3. M.H.Rustamboyev "jinoyat huquqi"
4. H.Ikromov Jinoyat huquqi darslik qo'llanmasi
5. Jinoyat huquqining umumiy qismidan amaliy masalalar O'quv qo'llanma-T O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015-46-bet
6. Kobulov R.Otajonov.A.A.Iqtisodiy sohasidagi jinoyatlar: O'quv qo'llanma-T; O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013,-154-bet



ZAMONAVIY XALQARO HUQUQNING ASOSIY PRINSIPLARI VA XALQARO HUQUQDA JAVOBGARLI

Andijon davlat pedagogika instituti

*“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at” fakulteti
katta o’qituvchisi*

Ikromov Hayrullo Orifjonovich

Andijon davlat pedagogika instituti

*“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at” fakulteti
MIG’MAHT yo’nalishi 301-guruh talabasi*

Abdullahayev Muhammad Ali

Annotatsiya

Ushbu maqolada asosan davlatlar huquqlari nima ekanligi, unga oid bo’lgan ma’lumotlar va uning qanday ahamiyatli ekanligi, uning tuzilish tartibi, amal qilinish doirasi qanday bo’lishi to’g’risida ma’lumotlar berib o’tilgan. Dunyo davlatlari uning qabul qilishdagi o’z odatlari kiritish tartiblari haqida keng malumotlar aytib o’tiladi. Shu bilan birga davlatlarning bir-biriga bo’lgan huquqlari va majburiyatlarini xarqaro huquqda javobgarlikga oid malumotlar keng yoritilib berilgan. Shu bilan birga O’zbekiston Respublikasi xalqaro huquqda olib borayotgan huquqir jarayonlar aniq va ravon aytilib o’tiladi.

Аннотация

Эта статья в основном посвящена тому, что такое права штатов, информация, которая к ним относится, и как они важны, порядок их создания, приводится информация о том, какой будет сфера применения. Государства мира свои привычки в его приеме подробно описаны процедуры введения. При этом широко освещается информация об ответственности государств в международном праве в отношении их прав и обязанностей друг перед другом. При этом четко и красноречиво будут изложены правовые процессы, осуществляемые Республикой Узбекистан в международном праве.

Annotation

This article mainly covers what are the rights of states, the information regarding it and how it is significant, the order of its structure, information has been provided on what the scope of action will be. Extensive information is mentioned about the procedures by which the countries of the world enter their own habits in its adoption. At the same time, information on the responsibility of states to each other



in international law has been widely covered. At the same time, the legal processes carried out by the Respublika of Uzbekistan in international law are clearly and fluently stated.

Kirish so'zlar: Xalqaro huquq prinsipi va tizimi, suveren tenglik, BMT nizomi, javobgarlik, xalqaro huquqbazarliklar, xalqaro huquqda hudud, YEXHK, hududiy yaxlitlik, deklaratsiya, kuch ishlatmaslik.

Введение: принцип и система международного права, суверенное равенство, Устав ООН, ответственность, международные правонарушения, территория в международном праве, ОБСЕ, территориальная целостность, декларация, неприменение силы.

Introduction: principle and system of international law, sovereign equality, UN Charter, responsibility, International offenses, territory in international law, OSCE, territorial integrity, declaration, non-use of force.

KIRISH

«Xalqaro huquq prinsipi» tushunchasi. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari ilk bor BMT Ustavi bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Ularning mazmuni 1970-yili Bosh Assambleyada qabul qilingan BMT Ustaviga muvofiq do’stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli muhim hujjat - Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi Deklaratsiyada, shuningdek, 1975- yildagi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Yakunlovchi aktida ochib berilgan va rivojlantirilgan. Bundan tashqari, xalqaro huquqning bir qator prinsiplariga bag‘ishlangan BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyalari ham mavjud.

Xalqaro huquq asosiy prinsiplarining aniq soni yuzasidan huquqshunos olimlar hozircha yakdil xulosaga kelolganlari yo‘q. 1970- yilgi Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi Deklaratsiya quyidagi yettita asosiy prinsipni qamrab olgan: 1) kuch ishlatmaslik; 2) nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish; 3) aralashmaslik; 4) hamkorlik; 5) xalqlarning teng huquqliligi va o‘z taqdirini o‘zi belgilashi; 6) suveren tenglik; 7) xalqaro huquqqa oid majburiyatlarni vijdonan bajarish. 1975-yildagi YEXHK Yakunlovchi akti bular qatoriga yana uchta:

1) chegaralarning buzilmasligi; 2) hududiy yaxlitlik; 3) inson huquqlarini hurmat qilish prinsiplarini qo‘shdiki, ular endilikda universal tus olgan¹.

¹ YEXHK yakunlovchi akti



Xalqaro huquq prinsiplari to‘g‘risidagi hujjatlarda ta’kidlanganidek, ular o‘zaro uzviy bog‘liq, birining mazmun-mohiyati boshqasining mazmuni bilan uyg‘unlashib ketaveradi. Shu bois, xalqaro huquq prinsipining mazmunini boshqalari bilan bog‘lab o‘rganish lozim.

Shunday qilib, xalqaro huquq prinsiplari umum e’tirof etgan xalqaro huquq normalaridir.

Xalqaro huquq prinsiplarining tizimi. Xalqaro huquqda amalda bo‘lgan prinsiplar universal va mintaqaviy (ularni e’tirof etadigan subyektlar doirasidan kelib chiqib), umumiyligi va sohaviy (ular amal qiladigan sohalar bo‘yicha) prinsiplarga bo‘linadi. Yuridik normalar va institutlar bilan birgalikda prinsiplar xalqaro huquqning murakkab ko‘rinishidagi yaxlit tizimini tashkil etadi.

Xalqaro huquq doirasida prinsiplarning xilma-xil turlari farqlanadi. Ular orasida *g‘oya-prinsiplar* muhim o‘rin tutadi. Tinchlik va hamkorlik, gumanizm, demokratiya g‘oyalari shular jumlasidandir. Ular BMT Ustavida, inson huquqlari to‘g‘risidagi paktlarda va shu kabi boshqa bir qator hujjatlarda o‘z aksini topgan. G‘oya-prinsiplar o‘z faoliyatining asosiy ko‘lamini aniq normalar orqali, ularning mazmunida aks ettirish va faoliyatini yo‘naltirish yo‘li bilan ro‘yobga chiqadi.

Shuningdek, xalqaro huquqning sohaviy prinsiplari mavjud. BMT Xalqaro sudi dengiz huquqi prinsiplariga bir necha bor havola qilganki, ushbu huquq sohaning bir qator umumiyligi normalarini anglatadi. Aksariyat xalqaro soha olimlarining fikricha, sohaviy prinsiplarning mavjudligi xalqaro huquq sohasiga xos bo‘lgan zarur belgi, demakdir. Prinsiplarning shakllanish va faoliyat ko‘rsatish borasidagi o‘ziga xosligi ko‘pincha shu yo‘l bilan belgilanadiki, ular jahon tartib-qoidalari va xalqaro huquqning eng muhim asoslarini aks ettiradi hamda mustahkamlaydi. Ular zaruriy huquq (jus necessitatis) sifatida namoyon bo‘ladi.

Prinsiplar ichida xalqaro huquqning asosiy prinsiplari (jus cogens) ajralib turadi. Ular umumiyligi mazmun kasb etuvchi universal imperativ normalar hisoblangan xalqaro huquq tartibotining poydevorini tashkil etadi. Diplomatiya amaliyotida odatda ular xalqaro munosabatlar prinsiplari deb yuritiladi. 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar to‘g‘risidagi Vena konvensiyasining 58-moddasiga muvofiq jus cogens (umumiyligi xalqaro huquqning imperativ normasi) normasi deganda, davlatlar xalqaro hamjamiyati tomonidan butun holda norma sifatida qabul qilingan va tan olingan, undan chekinish mumkin bo‘lmagan umumiyligi xalqaro huquq normasi anglanadi; u faqat umumiyligi xalqaro huquqning xuddi shunday xususiyatga ega keyingi normasi bilan o‘zgartirilishi mumkin. Jus cogens normalarining boshqa imperativ normalardan farqi shundaki, jus cogens



normalaridan har qanday chekinish davlatlar xatti-harakatini ahamiyatsiz qilib jus cogens normalariga doim rioya qilinishi va ular xalqaro munosabatlarning har qanday sohasida qo'llanishi zarur. Umumiy xalqaro huquq normalari uning asosiy prinsiplari jus cogens normalari hisoblanadi. Davlat tomonidan biron-bir asosiy prinsipning buzilishini xalqaro hamjamiyat butun xalqaro huquq tartibotiga tajovuz sifatida baholashi mumkin.

Prinsiplarning o'ziga xos jihatlaridan biri ularning o'zaro bog'liqli- gidir. Prinsiplar mazmunidagi umumlashganlik darajasining yuksakligi ulardan har birining talablarini boshqalarning mazmunini qiyoslab ko'rish yo'li bilan qo'llash mumkinligini ko'zda tutadi. Deylik, o'z taqdirini o'zi

belgilash prinsipini qo'llash uchun hududiy yaxlitlik prinsipini hisobga olish lozim bo'ladi. Prinsiplarning o'zaro bog'liqligi, 1970-yildagi BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va o'zaro hamkorlikka doir Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyada ta'kidlangan edi.

Xalqaro huquq nazariyasida muntazam ravishda prinsiplarning iyerarxiyasini aniqlash yo'lida harakatlar bo'lgan va bunday harakatlar hali ham davom etmoqda. Shak-shubhasiz, xalqaro huquqning barcha prinsiplari boshida jus cogens normalari turadi. Asosiy prinsiplarning ichki iyerarxiyasi (tabaqlananishi) muayyan muntazamlik kasb etmaydi: ayrim olimlar yalpi tinchlik va xavfsizlik muhofazasini mustahkamlovchi prinsiplarni birinchi o'ringa qo'ysa, boshqalari - gumanizm va inson- parvarlik prinsiplarini, uchinchi guruh olimlari esa, davlatga xos bo'lgan yaxlitlik va buzilmaslik prinsiplarini ustun deb hisoblaydi. Bir so'z bilan aytganda, bu borada yagona yondashuv mavjud emas.

Suveren tenglik prinsipi. BMT Ustavining prinsiplar to'g'risidagi moddasining ilk bandida: «tashkilot barcha a'zolarining suveren tengligi prinsipi asosida tuzilgan», – deb qayd etilgan. Bu prinsip nafaqat BMT, balki butun xalqaro munosabatlar boshqaruvi tizimlari negizida yotadi. Xalqaro huquqning alohida o'ziga xos jihatlari, avvalambor, uning subyektlari suveren teng davlatlar ekani bilan belgilanadi.

Suveren tenglik prinsipining asosiy mazmuni quyidagicha: davlatlar bir-birlarining suveren tengligi va o'ziga xosligini, shuningdek suve- renitetga mansub barcha huquqlarni hurmat qilishlari shart. Barcha davlatlarning teng ravishda asosiy huquq va majburiyatları mavjud. Har bir davlat xalqaro tashkilotlar va shartnomalarda ishtirok etish huquqiga egadir.

Davlatning suveren hokimiysi boshqa davlatlarning aynan shunday hokimiysi bilan cheklangan bo'ladi, negaki ular teng suverendir. Bir davlatning



«mutlaq suvereniteti» boshqalarining suverenitetiga muvofiq kelmaydi. Suverenitet xalqaro huquq doirasida amalga oshiriladi, aks holda, u o'zboshimchalikni bildirgan bo'lar edi. Suverenitet ta'sir doirasini aniq belgilash xalqaro huquqning asosiy vazifalaridan biridir.

Davlatlarning huquqiy maqomi tengligi xalqaro huquqning barcha normalari ularga nisbatan bir xil qo'llanilishini, teng kuchga ega ekanini bildiradi.

1970-yildagi BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va o'zaro hamkorlikka doir xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyaga ko'ra, «suveren tenglik» tushunchasi aniq mazmunga ega bo'lib, quyidagi unsurlarni qamrab oladi:

1. barcha davlatlar yuridik jihatdan teng;
2. har bir davlat to'la suverenitetga xos bo'lgan huquqlardan foydalananadi;
3. har bir davlat boshqa davlatlarning huquq subyektiga mansubligini hurmat qilishga majbur;
4. davlatlarning hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligi daxlsiz;
5. har bir davlat o'zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tuzumlarini erkin tanlash hamda rivojlantirish huquqiga ega;
6. har bir davlat o'zining xalqaro majburiyatlarini to'liq va sidqidildan bajarish hamda boshqa davlatlar bilan tinch-totuv yashashga majbur².

O‘tgan davr mobaynida Konstitutsiyamiz Respublika mustaqilligining huquqiy poydevorini mustahkamlashda, barcha sohalardagi islohotlarni amalga oshirishda va xalqimiz faravonligini yuksaltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Shu bilan bir qatorda davr sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib, mustaqilligimizning, insonlarning huquq va erkinliklari hamda manfaatlarining chinakam kafolatiga aylandi.

Bugungi kunda inson qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash g‘oyasi davlatimizning butun ichki va tashqi siyosatining tamal toshiga, Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan demokratik islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchiga hamda ushbu ezgu say-harakatlarni o‘zaro bog‘lab turuvchi muhim omilga aylandi. Mukammal Konstitutsiyani qabul qilish masalani bir tomoni shuki, faqat qabul qilib qo‘yib, normalarini ta’milanishini samarali choralar ko‘rilmasa kutilgan natija chiqmaydi. Oxirgi yillarda amalga oshirilayotgan ta’lim, tibbiyat, odil sudlov sohasini takomillashtirish, xalq bilan



muloqotni yangicha yo‘lga qo‘yishga qaratilgan tadbirlar Konstitutsiya normalarini hayotga tatbiq qilishini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda. Albatta hamma qilinayotgan ishlarni samarasi birdaniga bo‘lmaydi. Buning uchun ma’lum vaqt kerak. Aytish mumkinki, asosiy qonunga kiritilgan bu o‘zgartirish va qo‘shimchalar unda belgilangan asosiy maqsad, huquqiy davlat qurishdan kelib chiqib, davlat boshqaruvini erkinlashtirishga, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, xalq, inson manfaatini yanada kuchli, ishonchli himoya qilishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Konstitutsiya butun xalqimiz uchun juda ko‘p imkoniyatlar eshigini ochdi desak yanglishmaymiz.

Ma’lumki yurtimizda amalga oshiralayotgan keng ko‘lamli islohotlarning samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minalash bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan insonlar, birinchi navbatda, rahbar xodimlar, fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarni puxta bilishi, ularning ijrosini to‘g‘ri tashkil etishi, bu qoidalarga butun jamiyat a’zolari qat’iy amal qilishi shart bo‘lgan muhitni yaratish g‘oyat muhim va dolzarb vazifaga aylanib kelmoqda. Mamlakatimizda jadal sur’atlar bilan olib borilayotgan o‘zgarish va yangilanishlar negizda, avvalambor, Konstitutsiyamizda belgilangan davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi haqidagi qoidani amalda tatbiq etishdek ezgu maqsad mujassam ekani ham aynan shuni taqazo etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e’tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan referendum natijasiga ko‘ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo‘ldi. Bunga qadar 1992-yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o‘zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o‘zgarishlar ko‘لامи kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Umuman, konstitutsiya 65 foizga yangilangan.¹

Konstitutsiyada nazarda tutilmagan tartibda davlat hokimiyati vakolatlarini o‘zlashtirish, hokimiyat idoralari faoliyatini to‘xtatib qo‘yish yoki tugatish, hokimiyatning yangi va muvoziy tarkiblarini tuzish Konstitutsiyaga xilof hisoblanadi va qonunga binoan javobgarlikka tortishga asos bo‘ladi. Konstitutsiyamiz nafaqat qomusimiz, davlatimizning qonuni, shu bilan birga bizning

¹ K.Chegaboyev. “Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy o‘zgarish”. Kun.uz. <https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish>



tinch va osoyishta yashashimizni, barcha huquqlardan foydalanishimizni, so‘z erkinligiga ega ekanligimizni, bepul ta’lim olishimizni, imkoniyatlarimizdan foydalanishimizni hamda shunga o‘xshagan ko‘plab manfaatlarimizni himoya qiladigan manba hisoblanadi. Konstitutsiyamizga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritilishi ham biz uchun yanada ko‘proq imkoniyatlar eshigini ochdi.

Konstitutsiyamizning 7-moddasida keltirilgan jumlalar ham gapimizning yaqqol tasdig‘i desak adashmaymiz. Unda quydagicha yoziladi;

Xalq davlat hokimiyatining birdan bir manbaidir. O‘zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 8-may kuni Oliy majlis palatalari, siyosiy partiyalar, sud va ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari hamda jamoatchilik faollari bilan muloqot qildi. Davlatimiz rahbari o‘z nutqida yangilangan Konstitutsiyamizda barcha qatlama manfaatlari inobatga olinganligi, uni ishlab chiqishda aholi faol ishtirok etganligi hamda referendum orqali qabul qilinganligi, ushbu hujjat chinakam xalq Konstitutsiyasi bo‘lganidan dalolat ekanligini ta’kidladi. Konstitutsiya nafaqat xalq, jamiyat uchun balki, davlatimiz uchun ham uni rivojlanishi, butun dunyoda o‘z reytingini egallashida katta hissa qo‘sib kelmoqda.

Dunyoda kundan-kunga yangi sinovlar, xavf-xatar va tahididlar paydo bo‘layotgan vaziyatda Konstitutsiyada O‘zbekiston “suveren davlat” sifatidagi maqomni mustahkamladi.

Shunday murakkab vaziyatda, har bir ishimizda, qabul qilayotgan barcha qonun va qarorlarimizda faqat va faqat xalqimiz, Vatanimiz manfaatlari eng ustuvor o‘rinda turishi shart, – dedi davlatimiz rahbari.

Yangilangan Konstitutsiyada O‘zbekiston, “ijtimoiy davlat” degan tamoyil muhrlanib, davlatning bu sohadagi majburiyatlari bilan bog‘liq normalar 3 baravarga oshdi.

Yoshlar siyosatini, ta’lim-tarbiya, ilm-fan, madaniyat va sport sohalarini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida yuqori bosqichga ko‘tarish bo‘icha ham yangi imkoniyatlarni safarbar etamiz.

Nuroniyalar, yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan insonlar, alohida e’tiborga muhtoj aholi qatlamiga ijtimoiy xizmatlar ko‘lamini yanada kengaytiramiz. Ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini mutazam oshirib boramiz, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev .



Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat tomonidan yoshlар huquqlari himoyalanishi va ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtiroki rag‘batlantirilishi kafolatlab qo‘yildi. Konstitutsiyamizning 79-moddasi birinchi bandida qayd etilganidek:

“Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minkaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi”.

Bosh qomusimizda, shuningdek, davlat yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqning boy madaniy merosidan faxrlanish, vatanparvarlik tuyg‘ulari shakllanishiga g‘amxo‘rlik qilishi belgilandi. Bu haqida Konstitutsiyaning 78-moddasi to‘rtinchи bandida shunday deyilgan: “Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishi, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”.

Konstitutsiyamizning yana bir muhim yangiligi: yoshlarning ta’lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo‘lishi, bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish – davlatning konstitutsiyaviy majburiyati sifatida asosiy qonunga kiritildi. Konstitutsiyaning 79-moddasi ikkinchi bandiga ko‘ra: “Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”.

Darhaqiqat, bugungi dorilomon yurtimizda biz uchun shuncha imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilib, qonunda mustahkamlanib qo‘yilayotgan ekan, biz bundan oqilona foydalangan holda, yurtboshimizning ishonchini oqlash uchun, jamiyatimiz rivojiga o‘z hissamizni qo‘sib, mamlakatimizni jahon reytingidagi mavqeyini oshirish uchun doim harakatdan to‘xtamasdan oldinga intilishimiz zarur. Bugungi shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamonda yangiliklar yaratish, ilm-fan, odob-axloq, ta’lim va tarbiyani yoshlар ongiga singdirish ham bizning vazifamiz ekanligini his qilsak barcha harakatlar o‘z natijasini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan ilk marotaba uzliksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojini ta’minalash davlatning vazifasi etib belgilanganini ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Ta’limga oid normalar 50, 51, va 52-moddalarda o‘z aksini topdi.

Binobarin, ta’lim sohasidagi shuncha imkoniyatlarning yaratilishi bejiz emas. Shunday ekan, barcha sohalarning rivojlanishi ta’lim tizimi bilan bevosita bog‘liq.



Aytish joizki, bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar, yangilanishlar ham ta’lim tizimidagi e’tibor kuchayganidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 53-moddasi birinchi bandida: “Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlandi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi”, deb ta’kidlangan. Zero, intellectual salohiyatni yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridandir. Bizning barcha tarmoqlardagi huquqlarimiz kafolatlanganligi, bizga kuch, shijoat bag‘ishlab, harakatga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat yoshlarga g‘amxo‘lik masalasida o‘z zimmasiga g‘oyat muhim majburiyatlarni olgani alohida diqqatni tortadi. Eng asosiysi, mazkur konstitutsiyaviy normalar nafaqat O‘zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Shu bois, navqiron avlodimiz vakillari tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz, “Yoshlar Konstitutsiyasi” deya e’tirof etilayotgani bejiz emas.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. WWW.gazeta.uz
2. president.uz
3. K.Chegaboyev. “Yangi konstitutsiya. 10 ta asosiy o‘zgarish”. Kun.uz.
<https://kun.uz/news/2023/05/02>
4. <https://lex.uz>
5. insonhuquqlari.uz <http://pravacheloveka.uz>
6. Yangi O‘zbekiston <https://yuz.uz>
7. Norma.uz <https://www.norma.uz>



QADIMGI SHARQ, YUNONISTON, RIM BOG‘-PARK SAN‘ATI VA O‘RTA ASRLAR BOG‘LARI

*Yusupaliyeva Dilafroz Kaxramonovna
O‘zDSMI, “Madaniyat va sa‘nat menejmenti”
kafedrasi professor v.b., siyosiy fanlar doktori*

Bog‘-park san‘ati tarixi. Bog‘lar va parklar ko‘plab ming yilliklar davomida shakllandi. Ibtidoiy jamoa tuzumidagi dastlabki qurilishlar insonning eng avvalo yashashi, tabiiy xodisalar va dushmanlardan asrash singari oddiy ehtiyojlarini qondirgan. Bu qurilish bilan bir qatorda ibtidoiy jamoa kishisining o‘troq hayot tarziga o‘tishi bilan bog‘liq bog‘ ham paydo bo‘ladi.

Turli xalqlar orasida o‘zaro ta’sir va aloqalar imkonni bo‘lmaganligi tufayli bog‘ning ibtidoiy bezagi boshqalardan uzilgan holda mustaqil rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

Ammo shunga qaramay, bir-biridan juda uzoq bo‘lgan mamlakatda uy yonidagi sodda bog‘ni bezashda bir xillikni kuzatish mumkin, bu ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining bir xildagi darajasi va hayotdagi o‘xshash sharoitlar hamda jamiyatning tashkiliy tarkibining o‘xshashligi natijasi hisoblanadi. Bu ibtidoiy jamoa odamining istiqomat joyi oldidagi (tabiiy g‘or, o‘sib chiqqan qoya toshlar, yog‘och, g‘isht, tosh va boshqa ashyolardan qurilmalar) eng sodda bog‘lar qurilishi va bezatilishini rivojlanishidagi bu omillarning yetakchi o‘rnidan darak beradi.

Ibtidoiy odamning bog‘i eng oddiy to‘siqlar bilan o‘ralgan yer uchastkasidan iborat bo‘ldi. Ibtidoiy odam hayoti kabi uning mavjudligi ham tabiiy xodisalarga bog‘liq bo‘ldi. Bu bog‘ uyning yonida bo‘ldi, yer maydonidan farqli uni yovvoyi hayvonlardan asrash uchun o‘rab qo‘yildi. Dastlab o‘simliklar, asosan bevosita atorf tabiatdan olingan dorivor ekinlar o‘stirildi. So‘ngra ularning o‘rnini mevali va manzarali daraxtlar egalladi. Umuman olganda, ibtidoiy odam bizga qoldirib ketgan o‘simliklar tasviri shuni ko‘rsatadiki, unga quvonch hissi va tabiat go‘zalligi baxsh etadigan estetik idrok ma’lum bo‘lgan. Ko‘rinadiki, u o‘simliklardan nafaqat iste’mol manbasi, balki bezak sifatida ham foydalangan. Quldarlik tuzumini paydo bo‘lishi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishiga shunday sharoit yaratdiki, bunda qo‘srimcha foyda olish imkonni paydo bo‘ldi. Qullar mehnatidan eng og‘ir kuch talab qiladigan sharoitlarda, ya’ni qurilishlarda, shuningdek bog‘ va parklarni barpo etishda foydalanildi. Ko‘p sonli qullar mehnatidan foydalanish orqali qadimda mahobatli saroylar, haykallar, bog‘lar va parklar qurildi. Quldarlik davlati va



quldorlar egalik qilgan katta xajmdagi boylik ularga saroylar va hashamatli uylar qurish imkonini berdi. Boshqa aholi kichik uylar, qullar esa xarobalarda yashar edi. Quldarlik jamiyatidagi bog‘ bezagi san’atining xususiyatlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, u qadimgi Misr, Bobil va Ussuriyada boshlangan edi. Bobilliklar va ussuriyaliklar ayniqsa o‘zlarining keng va boy o‘rmon bog‘li xududlari bilan bog‘ va park tushunchalariga haqiqiy ma’no berdilar.¹

Qadimgi Misrda bog‘ san’ati. Insoniyat madaniyati beshigi hisoblangan Misrda qurilish va san’at eng qadimgi davrlardayoq rivojlangan edi. Bezakdor bog‘dorchilik Misrda yuqori darajaga erishadi. Bunga Nil daryosi bo‘yidagi hosildor vodiy va murakkab tizimli kanallardan sug‘oriladigan katta xajmdagi yerlar imkon berdi.² Bog‘ odatda hovlida yaratilgan va to‘rtburchak shaklida bo‘lgan. Palma, anjir, anorlar ikki-uch qator ekilardi, balandroq daraxtlar bog‘ chetiga, pastroqlari bog‘ ichiga o‘tzazilardi. O‘rtada ochiq joy qoldirilib, to‘rtburchakli suv havzasi joylashtirilardi.

Shuningdek ibodatxonalar va maqbaralar yonida keng muqaddas bog‘lar ham rejorashtirilar edi. Bog‘ning ayrim qismlari bir-biridan pastroq tosh devorlar bilan ajratib qo‘yilgan. Ariqlar bo‘yiga soyador daraxtlar ekilgan. Bog‘ ichiga to‘rtburchak suv havzalari va gulzorlar joylashtirilgan. Bog‘ning butun atrofi baland o‘sgan daraxtlar bilan o‘ralgan.³

Bog‘ soya va salqinlik berardi, meva va gullar bilan ta’mirladi, bu yerda lotos, papiruslardan iborat muqaddas daraxtlar ham bo‘lar edi. Yoqimli hid beruvchi daraxtlar alohida qadrlanardi.

Qadimgi Misrda aniq kompozitsion rejaga ega bo‘lgan bog‘ san’ati shakllandı:⁴

- o‘qli kompozitsion tuzilishi o‘z ichiga olgan va simmetriyadan foydalanilgan doimiy rejali;
- bog‘ning ajralmas qismi bo‘lgan suv havzali;
- ritmni kompozitsiya usuli sifatida foydalanilgan;
- hiyobon va qator daraxtlar ekish qo‘llangan;
- daraxtlardan noyoblari ekilgan.

Semiramidaliklarning “muallaq bog‘lari”. Misrga qarama-qarshi ravishda G‘arbiy Osiyodagi Assuriya va Bobil singari tekislikda joylashgan (Tigr va Yefrat daryolari orasi) mamlakatlarda o‘rmonzor daraxtlarga boy. Bunda boy o‘rmonzor

¹ Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 10 bet.

² O’sha joida.

³ Жирнов А.Д. Искусство паркостроения. Львов, 1977, 14 bet.

⁴ Боговая И.О., Фурсова Л.М. Ландшафтное искусство. М., 1988, 10 bet.



sharoitida assuriyaliklar va bobilliklar o'simliklar, daraxtlarni ko'proq qadrlaydi. Tabiiy daraxtzor o'rmonlar ov qilish, tantanalar va bayramlar o'tkazish joyi hisoblanadi. Ayni paytda misrliklar maydonni tasvirlaganda inson markaziy element hisoblanadi, assuriyaliklar va vavilonliklarda maydonning o'zi asosiy tasvir elementi bo'lib, inson unda ilohiyashtirish elementi bo'lib xizmat qiladi.⁵ Assuriyaliklar va bobilliklar muallaq bog'lar yaratuvchisi hisoblanadi.

Semiramidaliklarning "muallaq bog'lari" ayniqsa mashhur bo'lgan. Ular mil.avv. VI asrda shoh Navuxodonosor hukmdorligi paytida yaratilgan.⁶

Bu muallaq bog'lar mustahkam baland poydevorga o'rnatilgan keng to'rt qavatli ayvonlarga qurilgan. Ayvonlarga g'isht terilgan va qatron qalay qo'yilgan, shu bilan suv va tuproqni pastki qavatga o'tmaydigan qiladi. Keng bog' ayvonlar oq va pushti marmardan ishlangan mahobatli zinalar bilan bog'lanadi. Har bir ayvonda unumdar tuproq qalin qilib yotqizilgan, u eng baland daraxtlarning o'sishiga ham imkon bergen. Bog' ayvonini paxmoq o'simliklar bezagan.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, Assuriya va Bobilda bezakdor bog' san'ati eng avvalo erkin tabiiy kompozitsiya bilan ifodalangan, zero bunda landshaft tabiiy kompozitsiya bosh tasviriy omil bo'lgan. Bobildagi saroy va ibodatxonalar yonida asosan bezak xususiyatiga ega bo'lgan va geometrik shakldagi hiyobonlar asosiy o'rin egallagan. Arxitektura va sirk inshootlari nihoyatda katta xajmda bo'lgan. Assuriyaliklar va bobilliklar o'rmon-bog' va muallaq bog' kashfiyotchilaridir. Ular uchun yana sun'iy tepaliklar va ayvonlar odatiy bo'lgan, bu ko'plab kanallar, suv havzalari, ko'llar va boshqalar mavjudligida ko'rindi. Palma, sarv, eman, chinor singari daraxtlar bu joylar uchun xos xususiyat bo'lib qolgan. Midiylar va forsiylarda ham bog' qurilishi rivojlangan. Saroylar oldidagi bog'lar hiyobondagi daraxtlar bilan geometrik shaklda joylashgan. Bog' qurilishi maftunkor ish bo'lgan. Daraxtlar payvand qilinib yangi navlar yaratilganligi ma'lum. Forsiylar uchun muqaddas bog'lar alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Ular o'z bog'larini "paradizi" deb nomlagan.⁷

Qadimgi Yunon bog'lari. Yevropada birinchi bo'lib Qadimgi Yunonistonda paydo bo'ldi. Qadimgi yunon bog'larida daraxtlar tizimli shaklda joylashtirilgan, to'rtburchak daraxtzor shaklini tashkil qilgan. Hiyobonlar va yo'laklar to'g'ri chiziq bo'ylab qurilgan va haykallar, favvoralar, hovuzlar, vazalar, ustunlar, minoralar, marmar ibodatxonalar va boshqalar bilan bezatilgan. Bog'ning markaziy joylarida

⁵ Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 12 bet.

⁶ «Пойтахт транспорти», № 31, 2007, 7 bet.

⁷ www. yellow pages. uz/? mode=rubrics chapter-id



dam olish uchun soya-salqin shiyponlar bilan o‘ralgan gimnastika mashqlari uchun qumloq maydonchalar qurilgan.

Qadimgi yunonlar o‘simlik olami haqida anchayin keng ma’lumotlarga ega bo‘lgan.⁸ Yunonlar mifologiyasida qadimda suyukli bo‘lgan gullar, ayniqsa atirgul haqida rivoyatlar bor.⁹

Qadimgi Yunoniston bog‘-park san’ati uchun quyidagi xududni ko‘kalamzorlashtirish turlari bo‘lgan:¹⁰

Muqaddas daraxtzor – geroonlar. Ular qahramonlarga atab tashkil qilindi va xotira xususiyatiga ega bo‘ldi. Bog‘ hududi suv havzalari, haykallar va arxitektura inshootlari joylashtirildi. Keyinchalik geroonlarda xotira sport musobaqalari tashkil etildi, yo‘laklar, maydonlar, ippodromlar qurilib, ular sport parklariga aylanib qoldi. Yo‘laklar va maydonlar yoniga chinorlar, teraklar va boshqa daraxtlar ekildi.

Falsafiy bog‘lar ilmiy suhbatlar va mashg‘ulotlarga mo‘ljallanadi.

Shahar ko‘chalari, maydonlarining yashil qiyofasi inshootlar va yo‘llar bo‘yicha daraxtlar va butalar ekib yaratiladi.

Shaxsiy bog‘lar sof utilitar xususiyatga ega. Ularda gullaydigan o‘simliklardan keng foydalaniladi.

Qadimgi Rim bog‘-park sanati. Misr va yunon madaniyati yutuqlaridan foydalanib rimliklar o‘z madaniyatini yaratdi, u qadimiylar jahon tarixida eng boylaridan biri hisoblanadi. Mil. avv. I asrda bog‘larning quyidagi turlari shakllandi:

Muqaddas daraxtzorlar diniy e’tiqod bilan bog‘liq. Negaki ular yunonlarda kichikroq maqbara, minora yoki mehrobdan iborat bo‘lgan.

Shahar jamoatchilik bog‘lari maydonlardagi jamoatchilik inshootlari yonida qurilgan va turli xajmda bo‘lgan. Buloq yoki hovuzlari bo‘lgan bog‘larning hiyobonlari bo‘lgan va qator daraxtlar ekib bezatilgan, dam olish uchun o‘rindiqlar qo‘yilgan yopiq shiyponlar bo‘lgan, haykallar bilan bezatilgan.

Shahardagi xususiy bog‘lar unchalik ko‘p bo‘lmagan va uy rejasiga moslab joylashtirilgan. Qadimgi Rimda atrium-peristal uylar turi shakllangan edi, uning tarkibida haykallar, butalar, gulzorlar bilan bezatilgan va suv bilan ta’minlangan ichki hovli bo‘lar edi. Hovlini o‘rab turgan galereya devorlari o‘simlik tasvirlari bilan bezatilgan edi. Bunday ichki hovlilar peristilya deb nomlandi. Villa va saroydagi bog‘lar xo‘jalikdan tortib xazilnamo so‘zlar bilan nomlanar edi. Ular

⁸ Рандхава М.Сады через века.М.,1981, 10 bet.

⁹ Верзилин Н. По садам и паркам мира. Л., 1960, 132 bet.

¹⁰ Боговая И.О., Фурсова Л.М. Ландшафтное искусство.М.,1988, 12 bet.



ayvonsifat qoyalarga joylashtirilardi, gullar, favvoralar, haykallar, turli arxitektura inshootlari bilan bezatilardi.

Bog‘-ksist (yassi bog‘) parter ko‘rinishiga ega bo‘lgan va uyga taqalib turgan.

Bog‘-ippodrom Yunonistondan olingan. Hiyobonlar va qirqilgan butalar bilan o‘ralgan gulzorlardan iborat yassi ochiq maydon ko‘rinishida bo‘lgan. Atrofiga favvoralar, shiyponlar, gulzorlar, daraxt-butalar kompozitsiyalari joylashtirilgan. Bunday bog‘lar nomi Pliniy va Kolumella tasvirlarida keltiriladi. (Tuski toskan villasi, Rim yonidagi Laurensiya villasi va imperator Adrianning “Tiburtina” villasi 117-138 yillarga oid bo‘lgan).

Rim bog‘ san’atiga xos bo‘lgan xususiyatlar quyidagilarda ko‘rinadi:¹¹ butun kenglikka nigoh tushib turishi uchun villalar tepalik joylarga qurildi, bu bosh talab bo‘lgan edi.

Joyning baland-pastligidan va tabiiy sharoitlardan mahorat bilan foydalanildi va uy-joylar bog‘ bilan uyg‘unlikda qurildi. Bog‘lar plastik elementlar va suv havzalari bilan boy, dabdabali qilib bezatilgan. Daraxtlar ko‘rinishiga qarab bog‘ maydoni bo‘ylab joylashtirildi. Jamoatchilik bog‘lari shaharda, ham shahardan tashqarida qurildi.

IV asr oxirida antik davr o‘zining fani, san’ati, arxitekturasi bilan uzlatga chekinib, o‘rta asrga o‘rnini bo‘shatib berdi.

Bu paytda san’atlar orasida eng nozik hisoblangan va faqat tinchlikni yoqtiradigan bog‘-park san’ati rivoji to‘xtab qoladi. U ibodatxonalar va qal’alarda, nisbatan buzilishdan saqlanib qolgan xududlarda mavjud bo‘ldi.¹²

Ibodatxona bog‘lari. Ularda dorivor va mayda bezakdor o‘simgiklar o‘stirilgan. Rejası oddiygina bo‘lgan, markazda suv havzasi va favvara joylashtirilgan. Ko‘pincha ikkita kesishib o‘tadigan yo‘l bog‘ni to‘rt qismga bo‘ladi; bu kesishuv markaziga atirgul butalari o‘tqazilardi.

Qal’alardagi bog‘lar devor ichida joylashardi. Ular kichikroq va yopiq bo‘lgan. Bu yerda gullar o‘stirilgan, quduq, ba’zan kichikroq hovuz va favvara va doim o‘rindiqlar bo‘lgan.

Bog‘-labirint ibodatxonalar bog‘larida shakllangan va keyingi bog‘ qurilishidan mustahkam o‘rin oldi. Dastlab labirint doira yoki olti burchak shaklidagi naqsh tasavvurini beradi va murakkab yo‘llar bilan markazga olib boradi. Dastlabki o‘rta asrlarda bu tasvir ibodatxona polida tasvirlandi, keyinchalik yo‘llar qirqilgan

¹¹ Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 17 бет.

¹² Боговая И.О., Фурсова Л.М. Ландшафтное искусство. М., 1988, 16 бет.



shox devor bilan ajratib qo‘yilgan bog‘ga ko‘chirildi. So‘nggi o‘rtalarda bog‘dorchilik va botanika yuksak darajada rivojlandi, dastlabki botanika bog‘lari paydo bo‘ldi.

Qadimiy Xitoy bog‘lari. Xitoylik ustalar bog‘ qurishda ikki asosiy yo‘nalishga e’tibor berdilar. Ulardan biri Xitoyning iqtisodiy markaz bir qator yuz yilliklar davomida mavjud bo‘lgan Yanszidan janubroqda yuzaga keldi. Kichikroq yer maydonlarida ixcham bog‘lar yaratish bog‘dorchilikning bu yo‘nalishining asosiy xususiyati hisoblanadi. 1559 yili Shanxayda qurilgan Suchjou bog‘lari va Yuy-van bog‘i ushbu yo‘nalishga misol bo‘lishi mumkin.¹³

Bu bog‘da barcha narsalar kichik ko‘rinishda namoyish qilinardi, daraxtlarga kichik shakl berilardi. Ixcham bog‘lar binolar, hovuzlar, ko‘priklar, qoyalar, butalar, noyob daraxtlar va gullaydigan butalar bilan jihozlanardi.

Shimoliy yo‘nalish Xitoy bog‘-park san’atida ikkinchi yo‘nalish hisoblanadi. Bog‘ uchun katta yer maydonlaridan foydalanish va ularda bir kompozitsiyaga bo‘ysundirilgan suv havzalari va tog‘larni joylashtirish shimoliy yo‘nalish uchun xos xususiyat hisoblanadi.

Pekindan 12 km masofada joylashgan “Ikeyuan” (“Osoyishtalik bog‘i”) bog‘i hozirgacha saqlanib qolgan bu turdag‘i bog‘larning eng yaxshi namunasi hisoblanadi.¹⁴ Uning maydoni 330 ga atrofida, bu maydonning beshdan to‘rt qismini suv havzalari tashkil etadi.

“Ikeyuan” bog‘i Xitoydagi chiroqli go‘shalarning kichraytirilgan nushasidek tasavvur hosil qiladi. Bu yerda mamlakatning turli xududlaridagi tabiatni namoyon qiluvchi ko‘rinishlarni, qadimiy mashhur bog‘larning manzarasini va arxitektura ansambllarini uchratish mumkin. Arxitektura qurilmalarining turli uslublari va murakkab tarxlariga qaramasdan, bog‘ umuman yaxlit ansamblni tashkil etadi.

Kunminxu ko‘li va Vanshoushan tog‘i bog‘ning markaziy motivlari hisoblanadi. Bir necha orollar va uzun to‘g‘oni bo‘lgan Kunminxu ko‘li 264 ga maydonni egallaydi. To‘g‘on, orollar va qirg‘oq orasida oltita ko‘prik bor, ular ajoyib arxitektura qurilmasi hisoblanadi. Yozda ko‘lning ustini nilufar gullar qoplaydi. Ko‘l bo‘yida dam olish va undan baxra olish uchun qirg‘oqda 400 metrli galereya qurilgan. Vanshoushan tog‘ida mavjud bo‘lgan ko‘plab pavilyonlar va saroylar ayrim bog‘-hovlilarning yopiq kompleksini hosil qiladi, ularning ichida daraxtsimon

¹³ Горохов В.А., Лунц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 48 бет.

¹⁴ Жирнов А.Д. Искусство паркостроения. Львов, 1977, 26 бет.



pionlar, magnoliyalar o'stirilgan, toshli bog'lar joylashtirilgan va noyob baliqlar hamda nilufar gullar uchun hovuzlar qurilgan. Tog'ning shimoliy cho'qqisi o'rmon bilan qoplangan. Tog' etagida ariqlar bor. Ariqlar qirg'og'i manzarasi Yanszidan janubroqda joylashgan xududlar uchun xos bo'lgan manzaraga o'xshaydi.

Ikkala yo'nalishdagi (shimoliy va janubiy) bog'-park san'ati xususiyati quyidagilarda ko'rindi:

- 1) bog'-park qurilishi uchun mamlakat tabiat - tabiiy manzaralar namuna bo'lib xizmat qilgan;
- 2) bog' manzarasi uchun rangtasvirdan olingan obrazlardan foydalanilgan;
- 3) relyefga yaxshilab ishlov beriladi. Sun'iy tog'lar, tepaliklar, qoyalar, g'orlar, ko'llar, ariqlar tabiat qanday bo'lsa shunday qilib mahorat bilan yaratiladi. Qoyatosh qurilmalari bog'da dastlabki o'rnlardan birida turadi. Xitoyda bog'lardagi toshlar va qoyalar qurilmasi bilan maxsus shug'ullanuvchi tosh yo'nuvchilar hunari paydo bo'lgan;
- 4) suv bog'ning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Xitoy an'anaviy qonuniga ko'ra bog' suv manbasi tomon joylashtirilishi kerak. Ko'l va havzalarning asosiy qismini nilufar gullar egallaydi. Noyob baliqlar havzalarda yashovchilarning asosiy qismini tashkil etadi;
- 5) qadimiylar Xitoy bog'lari turli inshootlar, chinni va bronza idishlar, chiroqlar, qushlar va jonivorlar haykallari bilan to'lib toshgan. Bog' atrofi yoki ichida har qanday ob-havoda uni tomosha qilish mumkin bo'lgan yopiq shiyponlar qurilgan;
- 6) Xitoy bog'larida xilma-xil daraxtlar uchraydi va bog' janubroqqa joylashgani sayin daraxtlar va butalar turi ko'payadi. Bu yerda ko'proq qarag'ay, archa, majnuntol, bambuk, magnoliya, shaftoli va bodom, daraxtsimon pion kabilarga e'tibor beriladi.

Yaponiya. Yapon bog'i rejallashtirilganda avval syujet tanlanadi. Syujetda tog' va tepaliklar, tosh va suv asosiy o'rin egallaydi. Yapon tilida bog' "Ten-say" deb ataladi, bu "tog' va suv" ni anglatadi. Ammo ba'zan bog'larda tepaliklar, buloqlar yoki ariqlarning aniq tasviri bo'lmaydi, faqat ularning shakl-ramzi bo'ladi. Shunda vodiylar va tog'lar, suvsiz tog' daryolarning tez oqimlarini ifodalovchi "quruq manzara" vujudga keladi. Yaponiyada faqat tosh va qumliklardan iborat bog'lar bor. Kiotodagi Rioanji "Toshlar bog'i" bu turdag'i mashhur bog'lardan hisoblanadi.¹⁵ Bog' to'g'ri to'rtburchak shaklga ega. Uning yassi yuzasiga yirik oq

¹⁵ Жирнов А.Д. Искусство паркостроения. Львов, 1977, 26 бет.



qum sepilgan, turli shakl va kattalikdagi 15 ta tosh bor, ular 2-3 yoki 5 donadan qilib joylashtirilgan. Dengiz to'lqinlari tasavvurini hosil qilish uchun oq qum bambuk xaskash bilan tarab turiladi. Bu yerda hech qanday o'simlik yo'q, lekin o'zining mutanosibligi va toshlarni mohirona joylashtirilganligi tufayli Yaponiya bog'san'atining beqiyos asari hisoblanadi.

Yapon bog'larida doimiy yashil nina bargli daraxtlarga alohida e'tibor beriladi. Yapon manzaralariga xos bo'lgan eman daraxtlari gravyura va suratlarda minglab rassomlar tasvirlagan va ular bog'larda asosiy o'rinni egallaydi.

Yapon bog'larida ochiq joylar va ko'lmaklar yashil maysalar bilan kamdan-kam qoplanadi. Bog'ning soya-salqin joylarida ko'proq shoxdan foydalanadi. Tuvaklarda o'stirilgan kalta daraxtlar yapon bog'iga xos xususiyat hisoblanadi. Bu daraxtlar buralgan va egilgan, ammo ularga inson qo'li bilan emas, balki tabiat bu ajoyib shakllarni bergandek.

Yapon bog'ida gullar kam ekiladi. Ammo suv havzalarida nilufar gullari ko'p o'stiriladi.

Hindiston. Hindistonning bog' san'ati ham bu davrda gullab-yashnadi, unga ham sharqona xususiyat xos bo'ldi va arxitektonika asosiy o'rinni egalladi.¹⁶ Hindlarda bog' yashash joyining bir qismi va yaxshi ko'rgan joyi bo'lgan. Daraxt hayot ma'nosini bergen. Muqaddas ishlar daraxt tagida qilingan.

Boy hindlarning katta xajmdagi ko'ngilochar bog'lari, chiroqli gullar o'sgan ko'llari bo'lgan. Shaharning ayrim qismlarida aholi foydalanadigan jamoatchilik bog'lari ham bo'lardi.

Bog'larda takomillashgan shakldagi ko'plab suv havzalari bo'lgan. Bular ajoyib hovuzlar va ko'llardan iborat bo'ldi. Ulardan ham cho'milish, ham yerkarni sug'orish uchun foydalanildi. Mulkdorlar va taniqli shaxslarning ko'l va hovuzlari ko'p hollarda faqat bezak elementi sifatida xizmat qilgan. Hindlar bog'larida muqaddas hisoblangan jonivorlarga katta ahamiyat beriladi.

Yevropaga arablar rimliklar ta'sir qilgan o'z madaniyati bilan keldilar. Ayniqsa arablar madaniyati Ispaniyada gullab yashnadi.

Arab san'atining ajoyib namunasi bo'lgan Grenadadagi Algambra ansambl eng mashhur saroy-bog' kompleksi hisoblanadi.¹⁷ Bu saroyning qurilishi 1213 yildan 1338 yilgacha davom etdi, kichikroq bog'chalar bilan o'ralgan Algambra ("qizil uy")

¹⁶ Стойчев Л. Парковое и ландшафтное искусство. София, 1962, 21bet.

¹⁷ Горохов В.А., Лунц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 18 bet.



deb tarjima qilinadi) saroyidan iborat bo‘ldi va butun bir bog‘lar tizimi bo‘lgan Generamif yozgi qarorgohi yuqorida aytilgan tepalikda joylashgan.

Algambraning butun ansamblı unchalik katta emas, uning maydoni bor-yo‘g‘i 13 ga. Saroyni o‘rab turgan bog‘lar doimiy kompozitsiyaga ega bo‘lgan va saroy arxitekturasi bilan uzviy bog‘langan, ammo bog‘ning butun xududi yagona kompozitsiyaga ega emas. Bog‘lar maydoni katta emas: Mitra bog‘i – 1550 m², Sher bog‘i – 530 m², boshqalari undan ham kichikroq. Ularning arxitekturaviy rejasi xususiyati shundan iboratki, bunda geometrik tasvirlardan tashqari bezakdor suv havzalari va favvoralar keng qo‘llangan va gullar o‘tqazilgan tuvaklardan ham foydalanilgan.

O‘rta asrlarda bog‘-park san‘ati. Ma’lumki, o‘rta asrlar ko‘plab o‘zaro urush voqealariga boy bo‘ldi. Mudofaa maqsadida baquvvat devorlar bilan o‘ralgan qal’alar qurildi. Shuningdek dindorlar uchun ibodatxonalar, shuningdek shaharlar qurildi. Qal’a, ibodatxona va shaharlar maydonida binolar ko‘p qurilganligi uchun bog‘ va parklar uchun juda kam joy qolardi. Lekin bunday sharoitlarda ham bog‘lar qurildi, ularni adabiy manbalar va rangtasvir asarlarida kuzatish mumkin.

Badiiy ijod yo‘nalishini tanlagan cherkov landshaft san‘atida bezakdor elementlarga kam e’tibor berdi. Bog‘larda dorivor o‘tlar va meva-sabzavotlar yetishtirdilar.

XIII asrda Italiyada devor bilan o‘ralgan va anchagina katta bog‘lari bilan dabdabador shahardan tashqari villalar qurildi. Dante oilasi Kameretda, Gamboloti oilasi Pizeda, Viskonti oilasi Milanda villa qurdilar.

XIV asr birinchi yarmida Fransiyada ko‘plab bog‘lar paydo bo‘ldi. Parij yaqinida artuadagi Sena daryosining baland qirg‘og‘ida qurilgan bog‘ shular jumlasidandir. Luvrda Karl V bog‘ qurdirgan.¹⁸ O‘rta asrlar oxirida bog‘larda pavilyonlar, shiyponlar, hovuzlar paydo bo‘ldi.

Estetik dastur va texnik imkoniyatlarga ko‘ra har bir tarixiy davrlarda bog‘lar qiyofasi, ularning uslubini belgilovchi prinsiplar va usullar vujudga keldi. Bunda doimiy va manzarali singari ikki asosiy uslubiy yo‘nalishlar shakllandi.

Doimiy uslub yo‘nalishi uchun geometrik reja (to‘g‘ri yo‘l, parter va gulzorlarning geometrik shakli, kompozitsion o‘qni simmetrik bezash va boshqalar), arxitekturaviy ishlov berilgan, terraslangan yuza, bosh binoning mavqeini ta’kidlanganligi, suv havzalarining aniq shakllari, daraxtlar va butalarni qator ekish

¹⁸ Горохов В.А., Лунц Л.Б. Парки мира. М., Стройиздат, 1985, 20 bet.



va ularga shakl berish kabilar xos bo'ldi. Sharq, Yunoniston va Rimning qadimgi bog'lari, o'rta asrlar va Uyg'onish davri bog'lari, XVII asr fransuz doimiy parklari, XVII asr oxiri XVIII asr birinchi yarmi Rossiya bog'lari va parklari shu guruhga kiradi. Manzarali uslubiy yo'nalish doimiydan farqli tabiatning tabiiy go'zalligini aks ettiradi va ta'kidlaydi. U erkin setkali rejasi, ilon izi yo'llari, tabiiy relyefi, suv havzalari, ko'lmaqlar, o'tloqlarning erkin shakllari bilan ajralib turadi. Xitoy va Yaponiyaning bog'lari, XVIII asr Yevropa va XVIII-XIX, XIX-XX asrlar Yevropa, Amerika, Rossiya bog'-park san'ati shu manzara parki uslubiga bir yo'nalishdagi parklarda boshqalarning usuli ham mavjud bo'ladi. Zamonaviy bog'lar uchun ikkala yo'nalishdagi usullarni deyarli barobar ishtiroki xos bo'ladi.

O'rta asrlar bog'i kichikroq hajmda bo'lgan va odatda kvadrat va to'rtburchak shakllarga bo'lingan. Rejalashtirishda yangi jihat – labirint paydo bo'ladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Yusupalieva, Dilafruz K. "The Importance Of National Values In The Formation Of Intellectual Power." Journal of Positive School Psychology 6.7 (2022): 5199-5206.
2. Kaxramonovna, Yusupaliyeva Dilafruz. "Mass-Cultural and Concert-Calendar Year Plans of Watching the Formation of the Event." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN 4.10 (2023): 30-35.
3. Yusupalieva, D. K. "Political role of television in the development of national ideology." ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86) (2020): 665-667.
4. Kaxramonovna, Yusupaliyeva Dilafruz. "Modern Trends in the Development of Culture and Art Management." Journal of Innovation in Education and Social Research 2.1 (2024): 181-188.
5. Kaxramonovna, Yusupaliyeva Dilafruz. "Implementation of Public-Private Partnership in Culture and Recreation Gardens." Journal of Innovation in Education and Social Research 2.1 (2024): 172-180.
6. Yusupalieva, D. K. "Development of mutually beneficial cooperation of Uzbekistan within the SCO." ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85) (2020): 901-903.
7. Юсупалиева, Диляфуз Кахрамоновна. "ОПЫТ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В СФЕРЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ИНСТИТУТОВ ТЕЛЕВИДЕНИЯ." Russian-Uzbekistan Conference. Vol. 1. No. 1. 2024.
8. Yusupaliyeva, Dilafruz Qahramonovna. "ROSSIYADA BOG '-PARK QURILISHI TARIXIDAN." Oriental Art and Culture 5.5 (2024): 444-450.



9. Kalkanatov, Asilbek. "PROFESSIONAL QUALIFICATION OF THE MANAGER IN THE CULTURAL FIELD." JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE 2.9 (2023): 19-23.
10. Kalkanatov, Asilbek. "THE IMPORTANCE OF MANAGING THE PARTICIPATION OF CULTURAL AND ART INSTITUTIONS AND ORGANIZATIONS IN CULTURAL ACTIVITIES." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.9 (2023): 7-10.
11. Irisboyeva, D. E. "AMIR TEMUR DAVRIDA MADANIYATNING YUKSALISHI." ARXITEKTURA, MUHANDISLIK VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR JURNALI 2.5 (2023): 31-33.
12. Kolkanatov, Asilbek. "IFTIKHORI TIMSOLI TUMOR BRANCH." JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH 2.11 (2023): 67-69.
13. Nazarbay o‘g‘li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." Academic Integrity and Lifelong Learning (France) 2 (2023): 15-21.
14. Nazarbai, Kolkanatov Asilbek. "NEW VOICE IN UZBEK DIRECTION." Journal of Innovation, Creativity and Art 2.12 (2023): 65-70.
15. QOLQANATOV, Asilbek. "MA'DANIYAT VAZIRLIGI VA MADANIYAT MARKAZLARI: TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARIDAN." News of UzMU journal 1.1.1. 1. (2024): 16-20.
16. Nazarbay o‘g‘li, Qolqanatov Asilbek. "OMMAVIY TOMOSHA MUASSASALARI FAOLIYATI TAHLILI." Academic Integrity and Lifelong Learning (France) 2 (2023): 15-21.
17. Nazarbaevna, Qolqanatova Alfiya, and Kojalepesov Sultanbay Serjanovich. "The Importance of Scenario in Cultural Events." EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION 4.2 (2024): 259-262.



MODERN APPROACHES OF TEACHING WRITING IN ENGLISH LANGUAGE

Qobilova Kamola Azamatovna

Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Abstract: The article is devoted to the formation of a foreign language communicative students' competencies in the field of writing. The author gives definitions of writing speech, introduces two approaches to teaching writing, names the stages teaching creative writing, criteria for evaluating written messages, talks about communicative writing assignments.

Key words: written speech, the process of generating a written message, the result of written activity, creative writing, approaches to teaching writing, parameters of evaluation criteria for written communications.

Currently expanding international cooperation, which in the field of education is manifested in the creation of joint educational institutions, in the development of joint courses, in participation in international education projects. University graduates have great opportunities in terms of passing internships abroad, conducting scientific research in their specialty with the involvement of foreign-language materials, working in foreign firms, which require a modern specialist to have both oral and written forms of foreign language communication. In this regard, higher education is designed to provide training for specialists who combine professional and intercultural communicative competence. Written speech is increasingly penetrating into interpersonal and professional intercultural communication, into the learning process and foreign languages, which can also be explained by the growing role of information communication technologies in all human activity. What is written speech and is it necessary, for example, to teach a handwritten letter? Now young people can type and easily use a computer keyboard, but in cases where it is necessary there is quite a lot to write by hand (exams, essays in class, notes at lectures, speeches, notes, postcards, etc.). "Effective writing involves conveying a message in such a way as to affect the audience as the writer intends any piece of writing is an attempt to communicate something: that the writer has a goal or purpose in mind; that he has to establish and maintain contact with his reader; that he has to organize his material and that he does this through the use of certain logical and grammatical devices. Written speech is the communicative ability to combine words



in writing to express one's thoughts in accordance with the needs of communication. Written speech is a type of speech activity that aims to convey information in writing in accordance with the situation of communication. There is no doubt that written speech is becoming increasingly important, i.e. the role of written communication in receiving and transmitting information, which manifests itself in mastering the ability to express one's thoughts in writing. However, there is a contradiction between the requirements of school and university programs, between modern requirements for the level of student preparation and the results actually achieved in the formation of this communicative skill. Therefore, an important methodological task is to clarify the content of programs, teaching aids in the field of written language in a foreign language in order to comply with didactic continuity learning between school and university, strengthening the communicative function of this type of activity, bringing the goals of teaching foreign language writing into line with modern requirements of domestic programs and international requirements. Teaching productive writing as a learning goal is present in programs for all types of educational institutions, at all stages of teaching a foreign language. The tasks of teaching English in the field of writing in a non-linguistic university include the ability to write essays or reports on well-known topics, arguing one's point of view, and conduct business correspondence in English. Foreign internships for students, graduate students and young scientists require the ability to take notes in a foreign language: compose and fill out a questionnaire, answer questions, write an application for admission to study or work, write a short or extended autobiography, write personal or business letters, using not only the appropriate grammatical constructions, but also the necessary form of speech etiquette of native speakers, including the form of business etiquette. Recently, methodologists have been talking a lot about the need to teach speech etiquette in foreign language classes. More often than not, this applies to oral speech and the area of expressing politeness in written speech is sometimes undeservedly ignored. At the University of Munich, at the Institute of English Philology, Professor Paula Maier conducted an experimental analysis of business letters in English written by both native speakers and foreigners. The result amazed the researcher with the difference in the choice of politeness strategies by representatives of English culture from the choice of such by representatives of another culture. Although in general, the content of letters from non-native speakers indicated their awareness of various types of politeness strategies, their wording was less formal and more straightforward than in a group of native speakers. Non-native speakers avoided those politeness formulas that actively used by native speakers and



vice versa, used those forms that were not used by the British. These data strongly suggest that business emails, even if they do not contain grammatical errors, can be perceived negatively due to incorrectly chosen politeness strategies.

There are at least two approaches to teaching writing: 1) concentration on the process of generating a written text and 2) concentration on the result of written activity writing for learning and writing-for-writing. We must always be aware of whether we are focusing on teaching the process of writing or on the product of writing, whether we want to teach students different genres of written messages or teach them creative writing. In any case, we must want to form the habit of writing. (to build a writing habit). When we focus on the product, we are more interested in the purpose of the letter and the end result, and this is due to choice of genre of writing. The second approach focuses on the various stages of the writing process: pre-writing phases, editing, re-drafting, and producing a finished version. That is, this approach requires students to consider writing as a serious painstaking work. In many textbooks you can find step-by-step instructions for students to work on creating competent, structured written messages. An example would be the following instruction:

Activities for putting together a good piece of work in writing :

- a) Check language use
- b) Check layout and punctuation
- c) Check spelling
- d) Check for unnecessary repetition
- e) Decide on the information for each paragraph
- f) Note down various ideas g) Select the best ideas for inclusion
- h) Write a clean copy of the corrected version.

If we compare writing and, for example, reading as two fundamental language skills, it should be noted that both of these skills are quite difficult to achieve. However, as stated L.G. Kuzmina "if we first of all expect pleasure from reading, then writing is rather associated with great effort and effort". In order to motivate students to make these efforts and to give them the joy of creativity in the process letters, you can use the potential creative writing. The most important when teaching creative writing in English the following steps are presented in the language: 1) Express the purpose of writing the message 2) Consider the potential recipient of the message 3) Organize the material 4) Transfer information 5) Exchange ideas, thoughts 6) Convey meaning to the reader 7) Follow the sequence of presentation of thoughts 8) Use semantic links 9) Use a variety of grammatical and lexical



constructions 10) Avoid spelling and punctuation errors 11) Follow the etiquette of written communication in the English-speaking culture. Creative writing can be used at any stage of learning. First, you can offer students various types of supports in the form of visual and auditory clarity: objects, pictures, photographs, audio texts, songs, instrumental musical works, videos, as well as graphic visualization: instructions, poems, stories, ready-made samples of written speech. Gradually, they can be taught to compose letters, stories from the point of view of a hero or any subject about the history of his life, a written continuation of an interrupted story or a well-known literary work, writing mini-compositions or an essay on a selected quote or article. Also, business texts of an informational nature can be used for creative written work. Students are asked personal questions such as: What does this information mean to me?; How does this situation differ from the situation in my country (family, school)?; What would I do if I were them? Why Written creative assignments have a huge educational potential and can be used in every foreign language lesson. The teacher selects and applies them in the educational process, based on the learning objectives and the level of communication skills of students. We should not forget the three most important conditions when introducing creative writing in the classroom: learning objectives, principles, methods and techniques of learning, as well as learning control, i.e. assessment of the level of proficiency in this speech skill. One should understand the level of foreign written language proficiency as its correspondence not only normative linguistic and speech parameters, but also ethical, communicative and sociocultural requirements, necessary and sufficient to implement effective communication in writing . The following parameters can be proposed as criteria for evaluating written communications: 1. Content (correspondence to a given topic, situation, degree of disclosure of the main idea, argumentation); 2. Organization of the text (sequence, consistency, structuring, composition); 3. Style and register (formal/unofficial style, adequate case); 4. Language design (variety of lexical-syntactic and grammatical structures, spelling and grammatical correctness); 5. Connectivity (connection within and between sentences, proportionality of parts of the text); 6. Arrangement of parts of the text (margins, red line, volume); 7. General impression (interest of the addressee in the written text, positive effect). Domestic and International experience in the development of modern forms of foreign language activity control shows that it should be comprehensive and consist of communication-oriented control tasks.



References:

1. Попова Т.П. Коммуникативно-ориентированный контроль и самоконтроль на начальном этапе обучения иностранному языку в языковом вузе.//Testing And Assessment. Proceedings of the International Conference, Nizhny Novgorod. 2002 - C.57-60
2. Byrne D. Teaching Writing Skills. – Longman, 1988
3. Parrott M. Tasks for Language Teachers. – CUP, 1993 Vol. 29 (2022): Miasto Przyszłości 226 Miasto Przyszłości Kielce 2022
Ong va ongsizlik inson tafakkurining asosiy tushunchalaridan hisoblanadi. Bu mavzu ko'plab falsafiy, psixologik va nevrologik tadqiqotlarga asos bo'lgan bo'lib, insonning qanday qilib o'zi va atrofidagi dunyo haqidagi ma'lumotlarni qabul qilishi, qayta ishlashi va bu jarayonlarda ong va ongsiz holatlarning roli qanday ekanligi haqida muhim savollarni keltirib chiqaradi.

1. Ongning Ta'rifi va Vazifalari

Ong — bu insonning tashqi dunyo va ichki holatlari haqida ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va ularga munosabat bildirish qobiliyati. Ongning eng muhim vazifasi — dunyo haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va xulosa chiqarishdir. Bu orqali inson qarorlar qabul qilish, o'zini anglash va jamiyat bilan o'zaro aloqada bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Psixologik nuqtai nazardan, ong insonning hozirgi vaqtidagi fikrlari, hissiyotlari, his-tuyg'ulari va maqsadlari bilan bog'liqdir. Inson ongi o'zgaruvchan bo'lib, yangi ma'lumotlarni qabul qilish va eski fikrlarni tahlil qilishda doimiy ravishda faoliyat yuritadi.

2. Ongsizlik: Tushunchasi va Xususiyatlari

Ongsizlik esa, ongli faoliyatning aksi bo'lib, bu — odamning ma'lum bir voqeя yoki jarayonni bilmasligi, lekin shu bilan birga u holatni amalga oshirishi. Ongsizlikning eng muhim xususiyatlaridan biri — insonning o'z faoliyatining sabablarini va maqsadlarini bilmasligi yoki anglamasligidir.

Sigmund Freyd ongsizlikni insonning ichki istaklari, qorong'u hissiyotlari va repressiya qilingan xotiralari bilan bog'liq deb hisoblagan. Uning fikricha, ongsiz qatlamda insonning hozirgi ongida noqulay yoki zararli bo'lib ko'ringan fikrlar, hissiyotlar va istaklar yashirinadi. Bu istaklar va hissiyotlar odamning kundalik faoliyatiga ta'sir qiladi, lekin ular ongli ravishda sezilmaydi.



3. Ong va Ongsizlik O'rtasidagi Munosabat

Ong va ongsizlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish uchun, bu ikki holatning o'zaro interaksiya qilishini tahlil qilish zarur. Bir tomondan, ong insonning dunyo haqidagi idrokini boshqaradi, boshqa tomondan, ongsizlik xulq-atvor, qarorlar va harakatlarga ta'sir qiladi, lekin inson bu ta'sirlarni anglamaydi. Misol uchun, ba'zi xatti-harakatlar yoki tanlovlardan ongsiz hissiyotlar yoki ichki istaklar asosida amalga oshiriladi, bu esa odamning o'zi tomonidan sezilmasligi mumkin.

Ong va ongsizlikni bir-biridan ajratish qiyin, chunki ular bir-birini to'ldiradi. Masalan, biror kishining hozirgi ongida ma'lum bir maqsad yoki fikr bo'lishi mumkin, lekin bu maqsadga erishishda ongsiz omillar, masalan, o'tgan tajribalar yoki o'ziga xos ichki qarshiliklar, muhim rol o'ynashi mumkin.

4. Ong va Ongsizlikni O'rganishning Muhimligi

Ong va ongsizlikni o'rganish nafaqat inson psixologiyasi, balki falsafa, neurofiziologiya va kognitiv fanlar uchun ham muhimdir. Bu mavzuni o'rganish insonning qaror qabul qilish jarayonlarini tushunishga yordam beradi, xususan, insonning xatti-harakatlarini tushunish va boshqarish uchun zarur bo'lgan bilimlarni taqdim etadi.

Ongni o'rganish orqali odam o'z ichki dunyosini yaxshiroq tushunishi va o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ongsizlikni o'rganish esa

insonning his-tuyg'ulari va istaklarining nimalarga ta'sir qilishini aniqlashda foydalidir.

Xulosa

Ong va ongsizlik inson psixikasining markaziy qismlarini tashkil etadi va ularning o'zaro munosabati juda murakkabdir. Ong bizga dunyoni bilish va unga munosabat bildirish imkonini berar ekan, ongsizlik ko'pincha o'zimizning xatti-harakatlarimizni va qarorlarimizni tushunishdagi noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Ularning o'zaro bog'lanishini va har birining o'ziga xos rolini tushunish orqali, insonning tafakkuri va xulq-atvorini yanada chuqurroq anglashimiz mumkin

XulosaOng: Inson ongingin faoliyatiga asoslangan holatdir. Bu, o'zimizning fikrlarimizni, hissiyotlarimizni, tajribalarimizni va qarorlarimizni anglash va boshqarish qobiliyatimizni o'z ichiga oladi. Ong bizning atrof-muhitimizga qarshi reaktsiyalarimizni, o'yashimizni va hayotdagi maqsadlarimizni belgilashga yordam beradi.

Ongsizlik: Ongning faoliyatining yo'qligi yoki sustlashishi. Ongsizlik, insonning bilishi va anglashini cheklab, xatti-harakatlarining avtomatik bo'lishi mumkin. U ayrim ruhiy holatlar yoki patologiyalar (masalan, komaga tushish yoki



uyqusizlik) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Xulosa: Ong va ongsizlik insonning ichki dunyosini va ruhiy holatini aks ettiradi. Ong insonni atrof-muhitga moslashishga, o‘z his-tuyg‘ularini anglashga va qarorlar qabul qilishga imkon beradi. Ongsizlik esa, ba’zan vaqtincha yoki doimiy ravishda ongning yo‘qligini bildiradi va bu holat inson hayotining qiyin jihatlariga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. <https://president.uz/uz> - Узбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти.
2. Урунтаева Г.А. Детская психология. - М.: «Академия», 2010. -С. 36.
3. Поддъяков Н.Н. Мышление дошкольника. - М.: «Педагогика», 1977. -С. 222.
4. Фозиев Э. Тафаккур психологияси. - Т.: «Укитувчи», 1990.
5. Каримова В.М., Суннатова Р. Мустакил фикрлаш. - Т.: «Шарқ», 2000.
6. Нишонова З.Т. Мустакил ижодий фикрлаш. - Т.: «Фан», 2004.
7. Тихомиров О.К. Психология мышления. - М.: МГУ, 1984.
8. Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления (для пятилетних детей). - М.: «Знание», 1984.
9. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: «Просвещение», 1991.
10. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: «Педагогика»,



ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG'LIQLIGI

Abdurahimova Farhundamoh Jamol qizi

DTPI Pedagogika fakulteti

Boshlang‘ich ta ’lim yo ‘nalishi

1- bosqich 108- guruh talabasi

Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

*Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya
kafedrasи o’qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)*

ulugbekshomurotov986@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola Pedagogik psixologiya nima ekanligi, qaysi davrda tashkil topganligi, Pedagogika va psixologiyaning qay yo'sinda bog'liqligi va bu sohada olib borilayotgan ishlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: psixologik yo'nalishlar; ta'lif jarayoni; psixologik asoslar; Pedagogik bilimlar; Pedagogik psixologiya.

Аннотация

В данной статье описано, что такая педагогическая психология, в какой период она возникла, как связаны педагогика и психология и что делается в этой области.

Ключевые слова: психологические направления; учебный процесс; психологические основы; Педагогические знания; Педагогическая психология.

Abstract

This article describes what Pedagogical psychology is, in what period it was established, how Pedagogy and psychology are related, and what is being done in this field.

Keywords: psychological directions; educational process; psychological foundations; Pedagogical knowledge; Pedagogical psychology.



KIRISH

Pedagogik psixologiya - ta'lim va tarbiya muammolarini tadqiq qiladigan psixologiya sohasi. U shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va insonda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rghanadi. Pedagogik psixologiyaning maqsadi — shartsharoit va boshqa psixologik omillardan kelib chiqqan holda o'qitishning oqilona rivojlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish. Pedagogik psixologiya 19-asrning 2yarmida vujudga kelgan. Eksperimental psixologiya tadqiqotchilari Pedagogik psixologiya rivojiga katta hissa qo'shganlar. Pedagogik psixologiyaning fan sifatida taraqqiy etishida o'sha davrda yuzaga kelgan psixologik yo'nalishlar ham turtki berdi. Bixevoiristik (qarang Bixevoirizm) psixologiya yo'nalishi tarbiyachi va o'quvchiga tashqi muhitning ta'sirini Pedagogik psixologiya uchun asos qilib oladi. Pedagogik psixologiya umumiy va bolalar psixologiyasi, shuningdek, pedagogika bilan uz-viy bog'liq. Pedagogik psixologiya, asosan, ta'lim psi-xologiyasi va tarbiya psixologiyasiga bo'linadi. Ta'lim psixologiyasida o'quv jarayonida xotira, tafakkur, nutq, xayol, irodaning roli, shuningdek, o'quvchilarining individual xususiyatlari (temperamenti, harakte-ri, qiziqishlari), o'quv predmetlarining o'ziga xos'tomonlari, ta'lim jarayonini boshqarishning psixologik tamoyillari va boshqa o'rghaniladi. Hozirgi zamon ta'lim psixologiyasida o'quvchilarga doimiy yangilanib turadigan axborotlarni mustaqil o'zlashtirish imko-niyatini beradigan, ilmiy-texnika yangiliklaridan orqada qolmaslikni ta'minlaydigan tafakkur sifatlarini o'rghanish muhim masaladir. Tarbiya psixol o'g'yasining asosiy vazifasi — mактабдаги tarbiyaviy ishlar jarayonida shaxsning shakllanishi masalasini ishlab chiqish. Unda shaxsning axloqiy sifatlarining shakllanishiga alohida ahamiyat beriladi. Pedagogik psixologiya tadqiqotlari o'quv materiali mazmunini tanlash, o'quv dasturlari, darsliklar tuzish, ta'limning har xil bosqichlarida o'qitish metodlari tizimini tashkil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim-tarbiyaning shaxsni kamol toptirish ishiga bog'liqligi milliy goyani shakllantiruvchi, takomillashtiruvchi va uni ommaga yetkazuvchi kuchlarga bog'liqdir. Pedagogik - psixologiya fani ham jahon fani taraqqiyoti hamda va uning takomillashib borish jarayonini, fanga kirib kelishi kutilgan yangiliklarni yanada aks ettiradi, albatta. Bu asosiy vazifa sifatida ilk bor qonuniy asoslarga ega bo'lmoqda va pedagogik psixologiya fani oldiga muhim nazariy vazifalarni hal qilish qo'yilmoqda:

1) pedagogik psixologiyaning muhim vazifalaridan biri ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, faollashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqish;



- 2) ta‘lim - tarbiya jarayonida turli yoshdagi bolalarning aql-idrokiga, irodasiga, uni shaxs sifatida shakllantirishga ta‘sir etuvchi omillarni o‘rganish;
- 3) o‘quvchilar shaxsni tarkib topishi jarayonini, bu jarayonning umumiy qonuniyatlarini va individual farqlarni, turli tarbiyaviy tadbirlarning o‘quvchilarga ko‘rsatadigan ta‘sirini o‘rganish;
- 4) ta‘lim va tarbiya jarayoni bir-biriga bog‘liqdir, bu jarayonda aqliy qobiliyatlarni, axloqiy sifatlarni, shaxsni hissiy va irodaviy sifatlarini shakllantirishning maksimal rivojlanishi shart-sharoitlarini aniqlash;
- 5) mustaqil bilim olish, materialni chuqur yoki yetkazishning psixologik masalalarini ishlab chiqish;
- 6) bilish faoliyatini o‘zaro tashkil qila bilish shart-sharoitlarini aniqlash
 - 7) o‘z-o‘zini tarbiyalashning psixologik asoslarni aniqlash;
- 8) o‘qituvchi shaxsni va o‘qituvchi shaxsini xususiyatlarini, milliy o‘qituvchining sifatlarini aniqlash;
- 9) pedagogik bilimlar, ko‘nikma va malaka, qobiliyatlarning tarkib topishi hamda taraqqiyotining psixologik jarayonlarini aniqlash;
- 10) o‘z-o‘zini tarbiyalash, milliy g‘urur va vatanparvarlik jarayoni uning psixologik muammolarini nazariy jihatdan asoslab berishdan iboratdir;
- 11) shuningdek jahon tajribalari bilan birga, milliy xususiyatlarimiz, undagi eng ilg‘or tomonlar, muhimi, pedagogik tarbiyanuvchilar, o‘quvchilar, talabalar bilan imkonи boricha ko‘proq muloqotda bo‘lish, o‘quvchi shaxsining barcha xususiyatlarini hisobga olib, bilim va tarbiya berish, ya‘ni yagona pedagogik jarayonni ta‘minlash, masalalari ham nazarda tutiladi;
- 12) pedagogik psixologiyaning eng asosiy vazifalaridan biri o‘zlashtirishning sifat darajasini aniqlash usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Pedagogik psixologiyaning amaliy vazifasi esa yoshlarni o‘zlashtirishning psixologik shart-sharoitlari, tarbiyaning psixologik masalalari, bolaga ta‘lim-tarbiya berishda ularni yoshlik va individual xususiyatlarini hisobga olish, yoshlarda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllanishi, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, ilmiy tushunchalar hosil qilish, o‘z ustida ishlash, o‘z-o‘zini tarbiyalash, yosh o‘qituvchilarni psixologik faoliyatga mehr-muhabbatini shakllantirish psixologiya fanining yutuqlarini, psixologik bilimlarni keng jamoat-chilik e‘tiboriga havola qilinishi, otaonalar, tarbiyachi va o‘qituv-chilarni bulardan bahramand qilishdan iboratdir. Amaliy vazifalar radio va tele ko‘rsatuvlarda, jurnallarda, ma‘ruza va maxsus ko‘rsatuvlardan orqali chiqish, mahalla, mакtab va ota - onalar bilan suhbatlashish orqali amalga oshiriladi.



Biz shu narsaga erishishimiz kerakki, keng jamoatchilik bola ruhiy taraqqiyotiga doyir psixologik bilimlardan bahramand bo'lsin. Ana shundagina biz yoshlarga haqiqiy ta'lim-tarbiya bera olamiz va uni muvaffaqiyatli amalga oshiramiz. Pedagogik psixologiya o'z predmetining mazmuniga qarab umumiy psixologiyada amal qiladigan ko'pgina metodlardan foydalanadi. Chunki zarur bo'lgan dalillarni qidirish, ularni sodir bo'lish sabablarini aniqlash va isbotlash turli xil metodlar vositasida bajariladi. Qaysi metoddan foydalanishdan qa'ti nazar, bu metodlar faqat xususiy ilmiy tadqiqot ishlari uchungina emas, balki amaliy ta'limtarbiya maqsadlarida bolani chuqurroq o'rganishni tashkil qilish uchun muhimdir. Ta'limtarbiya ishlarini to'g'ri tashkil etish uchun pedagogik psixologiyada qo'llanadigan tadqiqot metodlari o'quvchilarning individual psixologik xususiyatlarini, tarbiyaviy ta'sir ko'tsatisfda maqsadga muvofiq va eng samarali metodlarni tanlashga asos bo'ladigan o'quvchilar shaxsining o'ziga xosligini yaxshi bilish lozim. Pedagogik psixologiyada qo'llanadigan metodlar ham psixologiya fanining tamoyillari va usullariga qo'yilgan talablarga rioya qilishi maqsadga muvofikdir.

1. O'rganish lozim bo'lgan har bir jarayon, holat va xususiyatlarni bir- biriga bog'lab tekshirish lozim. Har bir o'rganiladigan psixik hodisalarini nevrofiziologik asoslardan yoki xotirani diqqatdan, idrokni tafakkurdan ajratib o'rganish yaramaydi.
2. Tekshirilayotgan psixik hodisalarini rivojlanish qonuniyatlarini bilmasdan turib uni har tomonlama o'rganish mumkin emas. Shuningdek, turli yoshsagi bolalarning psixik rivojlanish xususiyatlarini bilmasdan turib o'rganilayotgan yosh davrning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish va tavsifnomaga berish mumkin emas.

XULOSA

Tekshirish jarayonida kishining butun psixikasida, ongida aks etadigan jamiyatning moddiy nigizi undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan birlashtirishlozim. Ta'lim-tarbiya jarayonida psixik hodisalarining miqdor o'zgarishlarini sifat o'zgarishlarga o'tishi va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o'tishini kuzatib borish lozim. Masalan: o'quvchi psixikasining taraqqiy etishini o'rganib «ko'rib, bilim olish, tajribalar to'plash jarayonida o'quvchining bilish qobiliyatini, ya'ni xotira, tafakkur, fikr yuritishdagi sifat o'zgarishini bilib olsa bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik. T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. – T.: —A.Navoiy



nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi 2001.

3. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. O'quv qo'll. – T.: O'qituvchi 1996.
4. Hoshimov K., C.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. O'quv qo'll. I-jild. –T.: O'qituvchi, 2010.
5. . Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. Darslik. - T.: —Fan va texnologiyalar|| nashriyoti, 2008.
6. Xasanboyev J., To,,raqulov X., Xaydarov M., Xasanboyeva O. Pedagogika fanidan izoxli lug'at. – T., 2008.
7. Egamberdiyeva N.M. —Ijtimoiy pedagogika|| – T.: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, A.Navoiy, 2009.
8. Mavlonova R. va boshqalar —Ijtimoiy pedagogika|| – T.: Istiqlol, 2009.
9. Karimova V. M. «Psixologiya» T.Sharq 2002y.
10. G'oziyev E. G'. «Umumiyl psixologiya» 1-2 tom. Toshkent. 2002.
11. Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiyl psixologiya» T.:O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008.
12. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. «Umumiyl psixologiya» T.: Fan va texnologiyalar 2010 yil



FALSAFANING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Jo‘rayeva Feruza Abdumalikovna

*DTPI Pedagogika fakulteti psixologiya yo‘nalilshi
112-ps-guruh talabasi*

Azimovn619@gmail.com

Astanaqulova Moxinur Baxrom qizi

*DTPI Pedagogika fakulteti psixologiya yo‘nalilshi
112-ps-guruh talabasi
mohinurastanaqulova648@gmail.com*

Annotatsiya. "Maqola falsafaning taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, uning tarixiy rivojlanishini har bir asosiy davrga ajratib ko‘rib chiqadi. Falsafaning dastlabki bosqichi Antik davrda shakllanib, inson tafakkurining tabiat va olamni tushunishga intilishlari bilan bog‘liq bo‘ldi. O‘rta asrlar falsafasida diniy tafakkur ustun bo‘lib, ilohiyot va axloqiy masalalar markazga qo‘yildi. Yangi davrda ilm-fan va rasyonallik rivojlandi, insonning erkinligi va tafakkurining muhimligi ta‘kidlandi. XIX asrda dialektik materializm va inqilobiy qarashlar, shuningdek, ijtimoiy rivojlanish masalalari falsafada markaziy o‘rin egalladi. XX asrda esa, zamonaviy falsafa yangi yondashuvlar va ilmiy nazariyalar bilan boyidi. Maqola falsafaning har bir bosqichidagi asosiy yo‘nalishlar, yondashuvlar va mutafakkirlarning hissasini o‘z ichiga olgan holda, inson tafakkurining taraqqiyotidagi o‘zgarishlarni yoritadi."

Kalit so‘zlar. Ekzistensializm, siyosiy, yahudiy, iqtisodiy, xristanlik, idealiz,materializm,ruh,axloq va ilmiy.

Абстрактный. "Статья посвящена анализу этапов развития философии, а ее историческое развитие разделено на каждый основной период. Первый этап философии сформировался в Античности и был связан со стремлением человеческого мышления к пониманию природы. и мироздание. О В философии Средневековья преобладала религиозная мысль, а в центр ставились вопросы богословия и морали. В новую эпоху особое внимание уделялось науке и рациональности, а также подчеркивалась важность человеческой свободы и мышления. В XX веке диалектический материализм и вопросы общественного развития заняли центральное место в философии. В XX веке современная философия обогатилась новыми подходами и научными



теориями, в том числе проливающими свет на изменения в развитии человеческой мысли.

Ключевые слова. Экзистенциализм, политический, еврейский, экономический, христианский, идеализм, материализм, духовный, моральный и научный.

Abstract. "The article is devoted to the analysis of the stages of the development of philosophy, and its historical development is divided into each main period. The first stage of philosophy was formed in the Antiquity and was associated with the aspirations of human thinking to understand nature and the universe. In the philosophy of the Middle Ages, religious thought prevailed, and theology and moral issues were placed in the center. In the new era, science and rationality were emphasized, and the importance of human freedom and thinking was emphasized. In the 20th century, dialectical materialism and the issues of social development took a central place in philosophy. In the 20th century, modern philosophy was enriched with new approaches and scientific theories including, sheds light on changes in the development of human thought."

Key words. Existentialism, political, Jewish, economic, Christian, idealism, materialism, spiritual, moral and scientific.

Kirish qism.

Falsafa inson tafakkurining eng chuqur va keng qamrovli sohalaridan biridir. U o'zining tarixiy rivojlanishida bir nechta bosqichlarga bo'linadi. Har bir bosqichda yangi fikrlar, yondashuvlar va qarashlar shakllanib, insoniyatning dunyoqarashi, bilimga bo'lgan yondashuvi va jamiyatdagi o'rni haqida yangi tushunchalar ishlab chiqilgan. Falsafaning taraqqiyoti har bir davrda insoniyat uchun muhim ilmiy, axloqiy va ijtimoiy masalalarga javob topish uchun xizmat qilgan.

1. Antik falsafa (Miloddan avvalgi VI–IV asrlar)

Antik falsafa G'arb dunyosining asosini tashkil etgan dastlabki falsafiy yo'nalishlarni yaratgan davrdir. Bu davrda falsafa, asosan, Yunonistonda rivojlanib, olamning tuzilishini, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishga qaratilgan edi. Dastlabki faylasuflar, masalan, Tales, Pifagor, Heraklit, Sokrat, Platon va Aristotel, tabiatni va inson tafakkurini ilmiy jihatdan tushunishga intilishgan. Platon va Aristotel falsafasi yanada chuqurlashib, mavjudlik, axloq va bilim haqida yangi qarashlarni ilgari surgan. Ularning ta'limotlari keyinchalik falsafaning barcha rivojlanish bosqichlariga ta'sir ko'rsatdi.



2. O'rta asr falsafasi (V–XV asrlar)

O'rta asrlar falsafasining markazida ilohiyot va diniy tafakkur turadi. Xristianlik, islom va yahudiylikning falsafiy talqinlari bu davrda keng tarqaldi. Falsafa asosan din va teologiyaning ta'sirida shakllandi, bu davrda ilmiy fikrlar diniy dunyoqarashlarga asoslangan edi. O'rta asr faylasuflari, masalan, Avliyo Avgustin, Foma Akvinskiy, al-Farobi, Ibn Rushd va Ibn Sino, ilohiyot va axloqiy masalalar

bo'yicha o'z fikrlarini bildirdilar. Ular insonning erkinligi, e'tiqod va bilimning o'zaro bog'liqligini izohlashga harakat qildilar. Bu davr falsafasi insoniyatning diniy tafakkurini yanada rivojlantirib, keyingi davrlarga mustahkam ilmiy asoslarni taqdim etdi.

3. Yangi davr falsafasi (XVI–XVIII asrlar)

Yangi davr falsafasining boshlanishi bilan ilm-fan va rasyonallikning rivojlanishi, shuningdek, insonning erkinligi va tafakkurining ahamiyati aniqlandi. Bu davrda falsafa, asosan, Yevropa mamlakatlarida, ayniqsa, Frantsiya va Angliyada shakllandi. Descartes, Spinoza, Locke, Hobbes va Kant kabi mutafakkirlar ilmiy tadqiqotlar va metodologiyaga katta e'tibor qaratdilar. Descartes'ning "Cogito, ergo sum" (Men o'ylayman, demak mavjudman) tamoyili, tafakkurni va shubha qilishni bilimga olib boradigan asosiy yo'l deb e'lon qildi. Locke va Hobbes siyosiy falsafada davlat va ijtimoiy shartnoma nazariyalarini ishlab chiqdilar. Kant esa "yangi falsafiy inqilob"ni amalga oshirib, bilish va tafakkur jarayonlarining chegaralarini o'rganishga harakat qildi.

4. XIX asr falsafasi

XIX asrda falsafa yanada ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy masalalarga qaratilgan yangi yondashuvlar bilan boyidi. Bu davrda dialektik materializm, Hegelning idealizmi va Marxning materialistik tarixiy tafakkuri o'z ta'sirini ko'rsatdi. Hegel tarixni ruhning rivojlanishi sifatida ko'rdi, u fikr va tafakkurni o'zgarish va taraqqiyot jarayoni deb tushundi. Karl Marks esa iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarni o'zgartirishga intildi va ijtimoiy inqiloblar orqaliadolatli jamiyat yaratish g'oyasini ilgari surdi. Marxizm falsafasida iqtisodiyot va sinfiy kurash markaziy o'rinni egalladi.

5. XX asr va zamonaviy falsafa

XX asrda falsafa yangi ilmiy yondashuvlar va metodologiyalar bilan boyidi. Bu davrda ekzistensializm, analitik falsafa, postmodernizm kabi yangi yo'nalishlar shakllandi. Ekzistensializm insonning mavjudligini, erkinligini va ma'nosini tushunishga qaratildi, Sartre, Heidegger va Kierkegaard kabi faylasuflar insonni o'z taqdiri va ahloqiy qarorlarida erkin va mas'uliyatli deb hisoblashdi. Analitik falsafa mantiq va tilni ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, Bertrand Russell va



Ludwig Wittgenstein bu yo'nalishning asoschilaridir. Postmodernizm esa, an'anaviy bilim va haqiqatlarni shubha ostiga qo'yib, ko'plab qarashlar va qadriyatlar o'rtasida nisbiylikni ta'kidlab o'tdi. "Maqola falsafaning taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, uning tarixiy rivojlanishini har bir asosiy davrga ajratib ko'rib chiqadi. Falsafaning dastlabki bosqichi Antik davrda shakllanib, inson tafakkurining tabiat va olamni tushunishga intilishlari bilan bog'liq bo'ldi. O'rta asrlar falsafasida diniy tafakkur ustun bo'lib, ilohiyot va axloqiy masalalar markazga qo'yildi. Yangi davrda ilm-fan va rasyonallik rivojlandi, insonning erkinligi va tafakkurining muhimligi ta'kidlandi. XIX asrda dialektik materializm va inqilobiy qarashlar, shuningdek, ijtimoiy rivojlanish masalalari falsafada markaziy o'rinni egalladi. XX asrda esa, zamonaviy falsafa yangi yondashuvlar va ilmiy nazariyalar bilan boyidi. Maqola falsafaning har bir bosqichidagi asosiy yo'nalishlar, yondashuvlar va mutafakkirlarning hissasini o'z ichiga olgan holda, inson tafakkurining taraqqiyotidagi o'zgarishlarni yoritadi."

Xulosa. Falsafaning taraqqiyoti bosqichlari, insoniyat tafakkurining tarixi va rivojlanish jarayonini aks ettiradi. Har bir bosqich, avvalgi davrning savollariga javob izlash, yangi tushunchalar yaratish va dunyoqarashni kengaytirishga xizmat qilgan.

1. Diniy va mifologik bosqichda insonlar tabiat hodisalarini ilohiy kuchlar bilan izohlashgan.
2. Tabiiy falsafa va ilmiy izlanishlar dunyo va tabiat qonuniyatlarini tushunishga olib keldi.
3. Ontologik va epistemologik bosqichda mavjudlik va bilishning tabiatini o'rganildi.
4. Axloqiy va ijtimoiy falsafa jamiyat va insoniyat o'rtasidagi munosabatlar hamda adolat masalalarini muhokama qildi.
5. Zamonaviy falsafa ilmiy inqiloblar va yangi falsafiy yo'nalishlar orqali inson hayotini va jamiyatni yanada chuqurroq tushunishga harakat qildi.
6. Postmodernizm esa haqiqatning nisbiyligi va ijtimoiy tizimlarning tanqidiga e'tibor qaratdi.

Falsafa davomli taraqqiyotda bo'lib, har bir bosqichda insoniyatning dunyoqarashi va bilimlari o'zgarib, yangi savollar va fikrlar paydo bo'lgan. Bu rivojlanish jarayoni inson tafakkurining yuksalishi va insoniyatning o'zini tushunishga bo'lgan doimiy intilishidir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Sharq mutafakkiri. –T.: O'zbekiston, 1971.)
2. Said Shermuxamedov. Biblografiya. –T.: 2010. 3-7 betlar. (maqola mualliflari Sh.Samadov va A.O'tamurodov)
3. Omonulla Fayzullaev. –T.: 2006. 4-8 betlar. (Maqola mualliflari V.Qobulov va S.Shermuxamedov).
4. Falsafa (o'quv qo'llanma). E.Yusupovning umumiy tahriri ostida. -T.: Sharq, 1999.8.Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. -T.: O'qituvchi, 1997.
5. 9.Falsafa asoslari (Q.Nazarov). -T.: O'zbekiston, 2005.10.Omonulla Fayzullaev. –T.: 2006.
6. Hozirgi zamon falsafasi: holati va taraqqiyotining istiqbollari. Akademik Jondor Tulenov tavalludining 80 yilligiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.
7. Xayrullaev M.M. Milliy ma'naviyatimizning ulkan jonkuyari. Akademik Ibrohim Mo'minov (Maqlolalar va xotiralar). –T.: 1993.
8. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. -T.: Akademiya nashriyoti, 2007.
- 9.Jalolov A. O'zbekiston: mustaqillik, ma'naviyat, mafkura. –T.: O'zbekiston, 1994.
- 10Jalolov A. Istiqbol ufqulari. –T.: Sharq, 1998.



DIQQAT VA UNING TURLARI

Hayitaliev Saidullo

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'l'm

yo'nalishi I -bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada diqqat tushunchasi, uning inson psixologiyasidagi ahamiyati va turlari yoritilgan. Diqqatning fiziologik asoslari, uni shakllantirish va rivojlantirish usullari hamda uning turli shakllari o'rtasidagi farqlar izohlangan.

Kalit so'zlar: Diqqat, e'tibor, ong, fiziologiya, ixtiyoriy diqqat, ixtiyorsiz diqqat, postvolyuntar diqqat.

Kirish

Diqqat insonning ruhiy faoliyatida muhim o'rinn tutadi. U turli jarayonlarni boshqarish, axborotni tahlil qilish va muayyan maqsadlarga erishishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bu tushuncha nafaqat psixologiya, balki pedagogika va nevrologiya sohalarida ham keng tadqiq qilinadi.

Diqqatning ta'rifi va ahamiyati:

Diqqat – bu insonning muayyan ob'ektga yoki hodisaga ongli ravishda e'tibor qaratish jarayonidir. U kognitiv jarayonlar, masalan, idrok, xotira va tafakkur bilan chambarchas bog'liq. Diqqatning asosiy vazifasi ong faoliyatini muhim ma'lumotlarga yo'naltirishdir.

Fiziologik asoslari: Diqqat jarayonini bosh miya yarim sharlaridagi neyron tarmoqlar va ular orasidagi o'zaro aloqalar boshqaradi. I.P. Pavlovning asab tizimi tadqiqotlariga ko'ra, diqqat muayyan asab markazlarining faollashuvi natijasida yuzaga keladi.

Diqqat turlari

1. Ixtiyorsiz diqqat: Bu diqqat turi insonning ongli harakatlarisiz paydo bo'ladi. Masalan, kutilmagan ovoz yoki yorqin nur diqqatni o'ziga jalb qiladi. Bu asosan reflektor jarayonlar bilan bog'liq.

2. Ixtiyoriy diqqat: Insonning ongli harakati bilan boshqariladigan diqqat turi. Bu o'quv jarayonida yoki professional faoliyatda ko'p qo'llaniladi. Ixtiyoriy diqqat ko'pincha kuchli intizom va maqsadga erishish istagi bilan bog'liq.



3. Postvoluntary diqqat: Ushbu diqqat turi ixtiyoriy harakatlar natijasida avtomatlashtirilgan jarayonlar bilan bog'liq. Masalan, uzoq davom etgan mashg'ulotlardan so'ng e'tibor tabiiy ravishda jamlanadi.

Diqqatni rivojlantirish usullari Mashqlar: Miya uchun maxsus mashqlar bajarish.

Organizatsiya: Tashkiliy masalalarga e'tibor qaratish.

Dam olish: Ortib ketgan ruhiy zo'riqishni bartaraf etish uchun tanaffuslar. Diqqat inson psixologiyasining asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, uning asosida shaxsnинг kognitiv faoliyati samaradorligi oshadi. Bu jarayon insonning e'tibori qaratilgan narsalar, hodisalar yoki fikrlarga markazlashishida namoyon bo'ladi. Quyida diqqat va uning turli aspektlariga oid qo'shimcha ma'lumotlarni keltiramiz. Diqqatning fiziologik mexanizmlari

Diqqatning asosi bosh miyaning frontal bo'limlari faoliyatiga bog'liq. Ayniqsa:

Talamus: sensor axborotlarni filtrlashda muhim rol o'ynaydi.

Gipokampus: ma'lumotlarni uzatish va saqlash jarayonida ishtiroy etadi.

Frontal korteks: qaror qabul qilish va rejalashtirishni boshqaradi. I.P. Pavlovning ta'kidlashicha, diqqatning shakllanishida uyg'onish va tormozlanish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Ularning muvozanati inson diqqatini ushlab turadi.

Diqqatning o'ziga xos xususiyatlari: Diqqatning quyidagi xususiyatlari psixologiyada ajratib ko'rsatiladi:

1. Hajmi – inson bir vaqtida nechta ob'ektga e'tibor bera oladi.
2. Barqarorlik – diqqatni muayyan faoliyatga uzoq vaqt davomida qaratish qobiliyati.
3. Ajratish qobiliyati – bir nechta ob'ekt orasidan muhimini ajratish.
4. Taqqoslash – turli ma'lumotlarni bir-biri bilan solishtirish qobiliyati.
5. Ko'chuvchanlik – e'tiborni bir vazifadan boshqasiga tezkor ravishda o'tkazish.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat o'rtasidagi farq

Diqqat buzilishining sabablari: Diqqatni boshqarishda qiyinchiliklar inson hayotida turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buzilishlarning asosiy sabablari:

1. Charchoq – jismoniy va ruhiy holatning zo'riqishi.
2. Stress – ortiqcha asabiy holatlar diqqatni bir nuqtaga jamlashga xalaqit beradi.
3. Motivatsiya yetishmasligi – faoliyatga bo'lgan qiziqishning pastligi.



4. Atrof-muhit omillari – shovqin, haroratning noqulayligi.
Diqqatni rivojlantirish strategiyalari
Meditatsiya va mindfulness: Ongni tinchlantiruvchi mashqlarni bajarish.
Prioritetni belgilash: Muhim vazifalarga e'tiborni qaratish.
Jismoniy mashqlar: Sport miya qon aylanishini yaxshilab, diqqatni rivojlantiradi.
Uyqu rejimini boshqarish: Yetarli miqdorda uyqu sog'lom diqqatning asosi hisoblanadi.

Xulosa

Diqqat insonning ijtimoiy va shaxsiy hayotida markaziy o'rin tutadi. Diqqatning turli turlari va xususiyatlarini chuqur o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham ahamiyatlidir. Diqqatni boshqarish qobiliyatini rivojlantirish shaxsning muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi.

Diqqat insonning hayot faoliyatida, o'quv va ish jarayonlarida muhim o'rin tutadi. Uni rivojlantirish va boshqarish ko'nikmalari insonning muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ixtiyorsiz, ixtiyoriy va postvolyuntar diqqat turlari har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli vaziyatlarda qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pavlov I.P. Buyuk miya yarim sharlarining fiziologiyasi. Toshkent, 2018.
2. Rubinshteyn S.L. Psixologiya asoslari. Moskva, 2020.
3. Ashurov X. Inson psixologiyasining asosiy tamoyillari. Toshkent, 2022.
4. Luria A.R. Diqqat va idrok mexanizmlari. Moskva, 2017.
5. Alimova D.S. O'quv faoliyatida diqqatni boshqarish texnologiyalari. Samarqand, 2021.



KUSHON DAVLATI

Boyto'rayev Sirojedin Usmon o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Saydullayev Hasan Islom o'g'li

Gulboyev Muxammadi To'lqinovich

Mamarajabov Nodirbek Qodir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kushon davri Markaziy Osiyo xalqlarini moddiy va ma'naviy madaniyatida jiddiy o'zgarishlar bo'lganligi bilan izohlanadi. Buyuk Kushonlar sultanatining taqdiri, ma'naviyati nuqtai nazaridan ayanchli tugadi, ya'ni o'z davrida uning tarixi va madaniyati deyarli yozilmadi. U haqda qadimgi ma'lumot juda kam, yozuv yodgorliklari ham unchalik ko'p emas.

Kalit so'zlar: Kattanahor, Zartepa, Zang kanali, Gaofu, yuechji, Xan, Qoratepa, Peshovar, Guyshuan, Tuyshuan.

Kirish. Kushon davlatining paydo bo'lishi uzoq vaqt olimlar orasida katta ilmiy munozaralarga sabab bo'lib kelgandi. Bu afsonaviy tuyulgan podsholik tarixini o'rganish o'tgan asrdayoq boshlangan edi. Miloddan avvalgi I asrga kelib Katta Yuyechji uyushmasidagi beshta xokimlikda Tuyshuan (Kushon) xokimligi ancha kuchayib va xudidi kengayib bordi. «So'nggi xon sulolasi tarixi» (Xitoy) ma'lumotlariga ko'ra, «Guyshuan xokimi Kloqzyuko qolgan to'rtta xokimlikni birlashtirib o'zini Buyshuon xokimi» deb e'lon qildi. Kushon davlati podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning xokimlik davrida Kushonlar sultanati yanada gullab-yashnadi. Kanishna davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo'shib olinadi. Mamalakatning poytaxti esa Peshovar (Afg'oniston) atrofida edi. Mamalakatning hududi Shimimoliy Xindiston, Afg'oniston, Markaziy Osiyodagi ko'pgina viloyatlar, Sharqiy turkistondan iborat edi. Sima Szyanning yozishicha, «Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon-shuhrati qo'shni mamlakatlarga yoyildi». Mamlakatning xarbiy qudrati ko'pchilik tomondan tan olindi. Xitoyning g'arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimligini tan olib, unga o'z garovga qo'yilgan odamlaridan yuborar edi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Markaziy Osiyoda mil. avv. IV-II asrlarda oramiy yozuv asosida Xorazm, Parfiya va So'g'd yozuvlari paydo bo'ladi. Kushon davriga kelib ular safiga yanabir yozuv-Kushon (Baqtriya) yozuvi paydo



bo'ladi. Dastlabki yodgorliklar Ayrитомда va Ko'xna Termizda 30-yillarda ochilib, 60-yillarda davom ettirildi. Keyinchalik ko'xna Termiz yaqinidagi Qoratepa buddiylik ibodatxonasi, Fayoztepa, Xolchayon va Dalvarzin ko'xna shaharchalar ochilib nixoyat darajada yuksak bo'lgan kushon madaniyati butun dunyoga mashhur bo'ldi. Ayrитом ko'xna shahrining topilgan o'ylarning Kesh tog'iga ishlangan tosh tasvirlar (sharshara) asrimiznig 30-40 yillaridayoq ma'lum edi. Bu peshtoqlarda gullarga burkangan, musiqa asboblari chalib turgan qizlar va do'mbira chalib turgan bolalarning tasviri tushurilgan. Surxondaryo viloyatining Denov shahri paxta dalalarining birida qachonlardir yirik shahar bo'lgan Xolchayon yodgorligining qoldiqlari saqlanib qolgan. Shaharlarning paydo bo'lishi mil. avv. I ming yillikning o'rtalariga to'g'ri keladi. Milloddan avvalgi 250yilda vujudga kelgan Yunon-Baqtiriya podsholigiga O'rta Osiyoning katta yerlari qatori Surxon vohasi ham qaragan. Bu podsholik davrida Surxandaryoda ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar rivojlanib, sinfiy tabaqalanish ham kuchaydi. Shaharlar ravnaq topdi. Hunarmandchilik va tashqi savdo yuksaldi. Yunon, Hind va Turon xalqlari madaniyati omuhtalashib, o'ziga xos yuksak madaniyat vujudga keldi. Shu davrga oid ko'hna binolarningharobalari Termiz atroflaridan ham topilgan.

Milod boshlarida Surxandaryo Kushonlar davlati tarkibiga kirdi. Kushonlar dastlab Toxarlar davlati o'mnida bir asr davomida 5 qabilaga bo'linib yashaganlar. Bulardan Guyshuan (kushon) qabilasi yabg'uziy (hukumroni) Kudzula Kadfis milodiy 1-asrda qolgan 4 qabilani bo'y sundirib, o'zini hukumdor deb elon etdi. U Surxandaryodagi Dalvarzintepani poytaxt qiladi .Milod boshlarida Xitoydan Kushon podsholigi mulklari ,jumladan Dalvarzintepa, Termiz orqali O'rta dengiz sohili mamlakatlariga dastlabki karvon yo'li Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmoqlaridan biri o'tgan edi. Bu yo'l tashqi savdo va mamlakatlar aro madaniyatning rivojlanishida juda katta ahamiyat kasb etdi. Kushon podsholigi markazlashgan quldorlik davlatiga aylandi. Aholi asosan budda dinining Mahayana mashabiga etiqod qilgan. **Tadqiqot metodologiyasi.**Dalvarzintepadan topilgan budda haykali shundan dalolat beradi. Kushon davlatining asoschisi Kudzula Kadfis tezda Hindistonni bosib oldi va shimoliy Baqtryani o'ziga bo'ysundirdi. Kadfis II, ayniqsa, Kanishka podsholigida Kushon davlati kengayib,o'z davrida Rim, Parfiya Xan (Xitoy) sultanatlari bilan tenglashadigan qudratli sultanatga aylandi. Hozirgi butun Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, O'rta Osiyoning janubiy yerlari unga qaragan. Kushon davlati miloddan avvalgi I-asrning 2-yarmidan milodning III-asri o'rtalarigacha hokim surdi.



Surxandaryo hududida Kushon davriga oid arxiologik yodgorliklar juda ko'p va xilma hildir Axomoniylar va Yunon - Baqtriya davridan bu yerda hozircha 40 manzil shahar ma'lum bo'lgan bo'lsa, Kushon davriga oid 120 dan ortiq shahar va qishloq aniqlandi. Aholi asosan Sherabod va Surxandaryo havzasi yoqalab joylashgan edi. Aholining joylashishi, katta kichik shaharlarning vujudga kelishi sug'orish shahobchalari bilan bog'liq, albatta.

Sug'orish havzalaridagi markaz shaxarlar atrofida katta kichik shaxarchalar, qarorgohlar joylashib, ular har jihatdan markaz shaxarga bo'y sunar edi. Markaz shaxarlar esa o'z navbatida Surxandaryodagi eng yirik shaxar -Termizga qaram edi. Shu tarzda aholi turar joylari katta shaxar (Chog'oniyon ,Termiz) o'rtacha shaxar (Dalvarzintepa, Zartepa) shaxarcha (Jondavlattepa, Talashgantepa va boshqalar) yirik va mayda qishloqlarga bo'lindi. Topilgan 120 yodgorlikdan 40 tasini katta shaxarlar jumlasiga kiritish mumkin.

Miloddan avvalgi I - milodiy III asrlarda hukmronlik qilgan Kushon podsholigi nafaqat Vatanimiz tarixida, balki butun Markaziy Osiyo tarixiy o'lkalari xalqlari iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o`rin tutgan davlatlardan biri sanaladi. Kushon podsholigiga asos solgan qabilalar tarixiy manbalarda yuechji(yovchi) va toxarlar deb nomlangan. Miloddan avvalgi II asrning to`rtinchchi choragida asosan Baqtriyada hukmron bo`lgan Yunon - Baqtriya shohligi Markaziy Osioning shimoliy hududlarida iste'qomat qilgan yuechji qabilalarining yurishi tufayli inqirozga uchragan. Milodiy I asrga kelib, Baqtriyada besh katta urug` (Xumi, Shuanmi, Guyshuan, Xeytun va Gaofu - yoki boshqa bir manbada Gaofu o`rnida Dumi) ga bo`linib yashagan yuechji qabilalari Kudzula Kadfiz tomonidan Guyshuan- Kushon urug`i qo'l ostida yagona davlatga birlashtirilgan. Kushon davlatining shimoliy chegarasi Janubiy Hisor tog` tizmasiga kirgan Boysuntog` hisoblanib, Kushon hukmdorlari o`z davlatining shimoliy chegaralarini mustahkamlash borasida ham tinimsiz faoliyat ko`rsatganlar.

Boysuntog`dagi " Temir darvoza" va uning bilan bog`liq mudofaa istehkomlari ana shunday inshootlardan biri hisoblanadi. Vima Kadfiz va ayniqsa, Kanishka I hukmronligida bu davlat tarkibiga Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkiston yerlari ham kiritilgan va natijada Kushon davlati Ko`hna Dunyoning Rim imperiyasi, Parfiya va Xan Xitoyi bilan bir qatorda turgan buyuk davlatga aylangan. Milodiy III asr oxirida ichki ziddiyatlar va ayniqsa, sosoniylar Eroni qo`shinlarining Kushonshahar, ya'ni Baqtriyani egallashlari tufayli Kushon davlati inqirozga yuz tutgan. To`rt asr davomida markazlashgan davlatning mavjudligi Baqtriyada,



shu jumladan, uning tarkibiy qismi bo`lgan Surxon vohasida ham iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida yuksalishga olib kelgan.

Miloddan avvalgi I - milodiy I asrlarda Surxon vohasi jadal o`zlashtirilgan, yirik kanallar qazilgan (Kattanahor), mavjud sug`orish inshootlari kengaygan (Zang kanali), yangi shaharlarga asos solingan (Zartepa) yoki Termiza (Termiz) va Dalvarzintepa singari shaharlar hududiy jihatdan kengaygan. Kushon davri shaharlari loyiha asosida bunyod etilgan ikki qism, ya'ni arki a'lo va unga

tutash asosiy shahar qisimlaridan iborat bo`lgan. Bu davr shaharsozligi Dalvarzintepa, Zartepa, Ko`hna Termiz va uning tarkibiy qismlari hisoblangan Qoratepa, Fayoztepa, o`rnidagi diniy inshootlar orqali yaxshi o`rganilgan.

Surxon vohasining Kushon davri shaharlari ma`muriy, iqtisodiy markaz bo`lish bilan bir qatorda diniy markazlar vazifasini ham o`tagan (Ko`hna Termizdagi Qoratepa, Fayoztepa, Zartepa, Ayrитом va Dalvarzintepadagi buddaviylik ibodatxonalar). Kushonlar hukmronligining ilk bosqichidayoq, Ko`hna Dunyo davlat va xalqlarini iqtisodiy va madaniy jihatdan bog`lab turgan qit`alararo savdo yo`li, ya'ni Buyuk ipak yo`li to`liq shakllangan va bu xalqaro savdoda Kushon davlati ham muhim o`rin egallagan.

Xolchayon, Dalvarzintepa, Ko`hna Termiz, Zartepa, Ayrитом kabi obidalardan qazib ochilgan dunyoviy va diniy yo`nalishlarda yaratilgan haykallar, xilma-xil mo`jaz san'at turlari, turli-tuman hunarmandchilik buyumlari o`zining takrorlanmasligi bilan ajralib turadi.

Jizzax shahri Sibir, Qozog`iston, Shosh, Farg`ona, Samarqand, Buxoro, Xuroson kabi yirik shaharlar o`rtasida darvoza vazifasini bajargan. Qadimda Farg`ona, O`ratepa, Zomin orqali Mirzacho`lni kesib, to`g`ri Qozog`iston orqali Nurotaga o`tgan uchta karvon yo`li Jizzaxda qo`silib, Ilono`tdi darasidan Samarqand darasiga, so`ng vohasiga o`tgan. Bu yo`llarning Jizzaxga kiraverishidagi darvoza, qal`alar Kushon podsholigi davrida, ya'ni I-IV asrlarda qurilgan. Demak, shahar nomi ham o`sha qal`alar nomi bilan bog`liqdir.

Bu qal'aning asli nomi Dizak bo`lgan. X asrlardagi yozma manbalarda ham shunday deb yozilgan. Joy nomlarini o`rganuvchi olimlarning ilmiy xulosalariga ko`ra, "Diz" — qadimgi so`g'd tilida "qal'a", "istehkom" demakdir, "ak" esa bizdagi "cha" qo`sishchasiga to`g`ri keladi. Demak, Dizak "qal'acha" degani. Bu to`g`rida yana shuni aytish mumkinki, XII-XVII asrlarda Xurosonda ham yuqori Dizak va Quyi Dizak degan qishloqlar bo`lganligi manbalarda qayd etilgan. Dizak shahri haqida arab geografi va sayyohi al-Maqdisiy — "Katta shahar, undan daryo o'tadi, bozorida Jome Masjid bor", deb yozgan. 983 yilda yozilgan "Hudud ul-



Olam” asarida “Jizzax — kichik bir shahar, suv bo‘yida joylashgan, yonida bozori bor, katta savdo bo‘ladi”, — deb ko‘rsatilgan.

Kushon davriga oid xum, tog`ora, ko`za, xanjar, qilich, sopol idishlar, oddiy taqinchoqlar, tanga pullar haqida «Surxondaryo», «Termiz» kitoblarida, shuningdek, o`quvchilarining darsliklarida batafsil bayon qilingan.

Arxeolog M.Masson, Ye.Pugachenkova va boshqa qadimshunoslarning ilmiy xulosasini bilardik, xolos. Biroq keyingi yillarda Buddha diniga doir topilmalar ham hammani qiziqtira boshladi. Dalvarzintepa shahristoni yaqinidan Buddha ibodatxonasi qoldiqlari, Buddaning jahon xalqlari e'tibori shu topildiqlarga qaratildi boshi, Bodisatvaning mahobatli haykali chiqqanidan so`ng. Yaponiyaning Nara shahrida ana shu topildiqlar ko`rgazmasi namoyish etilganda Kunchiqar davlat fuqarolari lolu hayratda qoldilar. Negaki, ular Buddha diniga mansub kishilardir. Shuningdek, Dalvarzintenaga yaqin joydagi Xolchayon, Budrach shaharlari topildiqlaridagi Buddha diniga doir ashyolar ularning hayratini yanada oshirdi.

Dalvarzintepa, Xolchayon va Budrach topildiqlariga yaponlarning qiziqishi Buddha ibodatxonasi, Buddha boshi va Bodisatvaning ulkan haykali tufayligina ortgani yo`q. Balki boshqa namunalar ham yaponlarning diqqatini bizga — O`zbekistonga, xususan, Surxondaryoga qaratdi. Ular bu yerlardagi xarobalarda Buddaga mansub yana qancha-qancha ma'lumotlar topilishiga umid bog`ladilar. Fayoztepa ibodatxonasi 2003-2006 yillarda Surxondaryoga Yaponiya, Rossiya, Fransiya va Germaniya qadimshunoslari kelib, Dalvarzintepa, Xolchayon, Budrach, Eski Termiz, Kampirtepa, Fayoztepa, Qoratepa va boshqa obidalarni qazishni davom ettirishdi hamda ko`p yillik tadqiqotlar “tashxis”ini qo`yishdi. Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy universiteti hamda Termiz Davlat universitetining qadimshunos olimlari bu tadqiqotlarning boshida turishdi. Ular safida O`zbekiston Milliy universiteti aspiranti Jaloliddin Annaev, Termiz Davlat universiteti o`qituvchisi, tarix fanlari nomzodi To`xtash Annaev, Surxondaryo arxeologiya muzeyi direktori Ismoil Botirov va boshqa olimlar bor edi. Shunday qilib, Fayoztepadan ham Buddha ibodatxonasi, Bodisatva haykali va boshqa narsalar topildi. Eng muhimi— bu ibodatxona juda ko`p maydonni egallagan, shuning uchun olimlar Buddha diniga oid eng yaxshi topildiq shu, deb tan olishdi. Pirovardida Buddadini shu yerdan Xitoy, Hindiston, Yaponiyaga yoyilgan degan to`xtamga kelishdi. Shuning uchun O`zbekiston Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda YuNESKOning respublikamizdagい vakolatxonasi va Yaponiya ilmiy-madaniy markazlari hamkorligida Fayoztepada ana shu topilgan ibodatxonaning kichik namunasi barpo qilindi.



